

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**G.Gulyamova  
Sh.Ziyamuxamedova  
N.Bozorova  
O.Choriyev**

**YURISTNING YOZMA NUTQI**

*darslik*

**Toshkent – 2020**

**UO‘K: 34 (075)(575.1)**

**KBK:**

**Taqrizchilar:**

**Azimova I. – filologiya fanlari nomzodi;**

**Rasulmuxamedova D. – filologiya fanlari nomzodi.**

**SHARTLI BELGILAR**



– **bilib oling**



– **esda tuting**

**G.Gulyamova v. b.**

Yuristning yozma nutqi: kasb-hunar kollejlari uchun darslik /  
Taqrizchilar: Azimova I., Rasulmuxamedova D. – Toshkent:  
TDYU, 2020. – 135 bet.

**ISBN: © Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, 2020.**

## KIRISH

Kishilik jamiyatidagi har qanday huquqiy munosabatlar til vositasida o‘z ifodasini topadi. Aytish mumkinki, til – huquqning yashash shakli. Huquqning targ‘ib va tashviqi, joriylanishi va tarqalishi hamda amal qilishi, albatta, tilsiz ro‘yobga chiqmaydi. Shu bois yaxshi huquqshunos ayni paytda til qoidalarini puxta o‘zlashtirmog‘i, bir so‘z bilan aytganda, til bilimdoni bo‘lmog‘i shart. Mamlakatimizdagi yuridik ta’lim muassasalarining o‘quv rejasiga Yuristning yozma nutqi fanining kiritilishi xuddi shu muammoning yechimini ko‘zlaydi. Zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash asosiy maqsadimiz ekan, bu maqsad mutaxassislikka oid yozuv qoidalarini o‘rganmay turib amalga oshmaydi.

Zamonaviy yuristlar so‘zga chechan, badiiy didli, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda yuqori darajada ifodalay oladigan bo‘lishi zarur. Bo‘lg‘usi yurist kadrlar, asosan, rasmiy doirada faoliyat ko‘rsatadi va davlat nomidan ish olib boradi. Shu bois ularning faoliyatini rasmiy hujjatlarsiz, muomala madaniyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan “Yuristning yozma nutqi” darsligining yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Yana shuni alohida ta’kidlash o‘rinligi, ta’lim tizimida nimani o‘qitish va qanday o‘qitish kerak degan masalalar asosiy muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Ta’lim samaradorligi ana shu ikki masalaning yechimini to‘g‘ri hal qilish bilan belgilanadi.

Ko‘p yillik pedagogik tajribalarimiz yozma nutq madaniyatiga erishishda ta’lim mazmuni faqat o‘zbek tili qurilishi grammaticasini o‘rganishga qaratilsa, ko‘zlangan maqsadni bermasligini ko‘rsatmoqda. Chunki grammatic tahlil, so‘z turkumlari va gap bo‘laklariga tegishli ta’rif-qoidalarni yodlash bilan talabalarning fikrlash, jo‘yali gapirish va yoza olish qobiliyatini takomillashtirib bo‘lmaydi.

Shu bois Yuristning yozma nutqi fani uchun mavzu tanlashning bosh mezoni, amaliyot ko‘rsatayotganidek, uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir.

Yuristning yozma nutqi fani talabalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma shakllar da to‘g‘ri, ravon hamda mantiqan izchil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ularni yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Mualliflar darslikni tayyorlashda mana shu jihatlarga alohida e’tibor berdilar.


# I BO'LIM

## YOZMA NUTQ MADANIYATI. YOZMA YURIDIK NUTQ

### 1-mavzu. YOZMA NUTQ MADANIYATI VA UNING KELIB CHIQISHI

**1-topshiriq.** Nutqning og'zaki va yozma shakli qanday xususiyatlarga egaligi haqida bahs yuriting. Nutq shakllarining farqlarini quyidagi shaklda davom ettiring.

Og'zaki nutq	Yozma nutq
<i>Oldin paydo bo 'lgan</i>	<i>Keyin paydo bo 'lgan</i>
<i>Eshitamiz</i>	<i>Ko 'ramiz</i>



Inson nutqi ikki xil ko'rinishga ega: og'zaki va yozma. Yozma nutq og'zaki nutqni maxsus belgilar tizimi yordamida ifodalashdir. **Og'zaki nutqda** tovushlardan, yozma nutqda esa harflardan foy-dalanamiz. **Yozma nutq** yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liq.

**1-mashq.** Matnni o'qing. So'zlarning og'zaki va yozma shakliga e'tibor bering.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1991-yilning 31-avgustdagи VI sessiyasida O'zbekistonni mustaqil davlat deb e'lon qildi va 1-sentabr Mustaqillik kuni sifatida nishonlanishi belgilandi. 1991-yil 18-noyabrd Da'vlat

bayrog‘i, 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi, shu yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasini 200 ga yaqin davlat tan oldi, 50 dan ortiq davlat O‘zbekistonda o‘z elchixonalarini ochdi.

O‘zbekiston davlati 1991-yil 21-dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘ldi.



Boshqa xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham o‘tmishda bir qancha yozuv turlaridan foydalangan. Avesto, O‘rxun-Enasoy, sug‘d, xorazm, uyg‘ur yozuvlari shular jumlasidandir. Bu yozuvlarda xalqimizning tarixi, davlat va davlatchilik faoliyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti, urf-odatlari, madaniyati, adabiyoti va san’atiga aloqador bo‘lgan qimmatli ma’lumotlar saqlanib qolgan. Yozuv tufayligina biz ularni bilib olamiz, o‘rganamiz, mukammallashtirib, yangiliklar yaratamiz. Yozuv sharofati bilan butun insoniyat Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Muhammad al-Xorazmiyning “Kitob al-jabr val-muqobala”, Mirzo Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy”, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” singari ilmiy asarlaridan voqif bo‘ldi. Turkiston piri Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlari, Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Furqat, Cho‘lpon-u Fitratlarning go‘zal baytlari ko‘ngil mulkiga aylanishiga ham aynan ana shu yozuv sabab.

Yozuv juda qadimiyyidir, vaqt, makon va hudud jihatdan chegaralanmagan. Yozuv – ko‘rinib

turuvchi daliliy ashyo, yozma nutqning asosi. Inson tafakkurining eng buyuk kashfiyoti. U orqali biz ajdodlarimizning ma’naviy durdonalaridan bahramand bo‘lish bilan bir birga o‘zimiz yaratayotgan ma’naviy boyliklarimizni kelajak avlodlarga qoldiramiz. Jamiyat boshqaruvi, huquqiy-axloqiy normalarning tatbiqi, joriy etilishi ham, albatta, yozuv bilan amalga oshadi.

Tilshunoslikda nutq: 1) so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni; 2) shu jarayon natijasida yuzaga chiqadigan hodisa sifatida izohlanadi. (Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1985. – B. 61.)

Shunga asosan nutqning og‘zaki va yozma shaklini o‘zaro farqlash lozim. Yozma nutq ko‘pincha monologik xarakterda bo‘lib, u og‘zaki nutqdan batafsilligi, mulohaza-mushohadaga keng o‘rin berilganligi, nutq madaniyati me’yorlariga rioya qilinganligi bilan (badiiy adabiyotdagi ayrim individual nutq namunalaridan tashqari) ajralib turadi. Yozma nutq og‘zaki nutqdan so‘ng yozuv ta’sirida paydo bo‘lgan, u adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariiga bo‘ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Vaqtli matbuot, ilmiy-metodik adabiyot (darslik, qo‘llanma, monografiya, maqolalar), badiiy adabiyot, rasmiy yozishmalar, hujjatlar, xususiy yozishma (xat)lar yozma nutq ko‘rinishlaridir. Adabiy til me’yorlariga rioya qilish, til boyligidan keng va ijobiy foydalanish yozma nutqqa xos.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, badiiy nutq, shuningdek, hujjatlar, ommaviy axborot vositalari uchun tuzilgan yozma matnlar kiradi. Yozma nutq



madaniyati har bir kishidan o‘z fikr-mulohazalarini tilning imloviy-grammatik qoidalariga, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan tarzda ifodalashni talab qiladi. U tilning barcha mavjud vositalari va uning imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o‘rinli, to‘g‘ri foydalanilgan holda tuzilgan madaniy nutqdir. Nutq madaniyati esa ana shu til – aloqaralashuv qurolini ishlatishga bo‘lgan munosabatdir. Yozma nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok etish, tilning ifodaviy vositalaridan mazmun va uslubga ko‘ra nutqiy vaziyatga qarab o‘rinli foydalanish hamda aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir.

**2-topshiriq. Yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi xizmati xususida mushohada yuriting. Quyidagi fikrlarni davom ettirib, matnni nihoyasiga yetkazing.**

Inson tafakkurining buyuk kashfiyoti, shubhasiz, yozuv sanaladi. Ilohiy ne’mat – nutq bilan siylangan inson o‘z kashfiyoti – yozuv tufayli abadiylik pillapoyalari tomon odimladi. Yozuv insonga tabiat, jamiyat, ruhiyat sirlarini o‘rganish va o‘rgatish imkoniyatini in’om etdi...

**3-topshiriq. Aliment, vasiylik, memorandum, ombudsman va suverenitet so‘zlariga ta’rif bering. Bu so‘zlarni “Yuridik ensiklopediya”dan toping va o‘zingiz bergen ta’rif bilan qiyoslang.**

## 2-mavzu. YOZMA NUTQNING ANIQLIGI

**4-topshiriq. Yozma nutq aniqligi borasidagi fikrlaringizni bildiring. Aytilgan fikrlarni guruh bilan muhokama qiling.**



Yozma yuridik nutq aniqligi — ifodalanayotgan fikr, voqelikka so‘z va atamalarning shakl hamda mazmun jihatdan muvofiq kelishi. Nutqning aniq bo‘lishi uning shakllanishida ishtirok etuvchi nafaqat lingistik, balki ekstraliningistik omillarga ham bog‘liq. Bu esa til va tafakkurning o‘zaro aloqadorligi bilan o‘lchanadi. Voqelik bilan tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarining nutqdagi in’ikosi o‘rtasidagi aynan muvofiqlik nutq aniqligini ta’minlaydi.

Ma’lum bir tushunchani ifodalash uchun so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay olmaslik nutq aniqligiga putur yetkazadi.

**Aniqlikni buzuvchi holatlarga, asosan, quyidagilar sabab:**

- a) sinonimlarni noto‘g‘ri qo‘llash;
- b) paronimlarni noto‘g‘ri qo‘llash;
- d) so‘z tartibi o‘rnini almashtirib qo‘llash;
- e) eskirgan so‘zlarning qo‘llanish o‘rnini bilmaslik;
- f) kasb-hunarga oid so‘z va atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llamaslik;
- g) so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari hamda ma’no qirralarini farqlamaslik.

**2-mashq.** Quyidagi namuna asosida yuridik amaliyotda qo'llaniladigan so'zlarning sinonim, omonim va antonimlarini yozing va daftaringizga ko'chiring.

<b>So'zlar</b>	<b>Ularning sinonimlari</b>
Muqaddam	Ilgari, oldin, avval, burun
O'zga	
Ayb	
Muvofiq	
Aloqador	
Muddat	
Adolat	
Zarar	
Alomat	
Inkor etmoq	

<b>So'zlar</b>	<b>Ularning omonimlari</b>
Yot	I. Begona II. Yotmoq
Kamera	
Nota	
Palata	
Davlat	
Sir	
Organ	
Tuman	
Chek	
Band	

<b>So'zlar</b>	<b>Ularning antonimlari</b>
Daromad	Sarf, chiqim, buromad

Ayovsiz	
Foyda	
Hushyor	
Umumiy	
Jadal	
Asos	
Taqiqlamoq	
Oshkor	
Majburiy	

### Sinonimlarni noto‘g‘ri qo‘llash



Yuridik matnlarda uchraydigan *fuqaro*, *shaxs*, *subyekt*, *inson* so‘zлari o‘zaro ma’no yaqinligiga ega bo‘lsa-da, ularni bir-birining o‘rnida qo‘llab bo‘lmaydi. Masalan, Konstitutsiyamizning 8-moddasi matnida keltirilgan (O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.) *fuqarolar* so‘zini *shaxslar*, *insonlar* so‘ziga almashtirib bo‘lmaydi. Chunki davlat so‘zi fuqaro so‘zini talab qiladi. Yoki har bir *shaxsga* o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi haqidagi 44-modda matniga faqatgina *shaxs* so‘zi muvofiq keladi.

### Paronimlarni noto‘g‘ri qo‘llash

Qonun hujjatlari, xususan, turli mazmundagi bayonnomalar yozishda *davo-da’vo*, *yod-yot*, *tanta’na*, *holi-xoli* kabi talaffuz jihatdan o‘xshash,

ammo boshqa-boshqa ma'noga ega bo'lgan, yozuvda bir-ikki harf yoki tutuq belgisi bilan farqlanadigan mazkur so'zlar tilshunoslikda paronimlar deb yuritiladi. Ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash bayon qilinayotgan fikrning buzilishiga olib keladi va nutq aniqligi tamoman yo'qoladi. Shuning uchun ularni nutqqa olib kirishda juda ham hushyor bo'lismi, so'zlar ma'nosiga alohida e'tibor berish zarur.

### **So'z tartibi o'rnini almashtirib qo'llash**

O'zbek adabiy tilida gap bo'laklarining belgilangan joylashuv tartibi mavjud. Jumladan, adabiy til me'yoriga ko'ra aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Ushbu qoidaga amal qilmaslik natijasida gapping fikriy mundarijasida aniqlik buziladi. Masalan, *jismoniy shaxs moliya yili davomida har bir ishlab daromad olgan oy uchun eng kam ish haqi miqdorida soliqqa tortiladi*. So'z tartibining o'zgarishi gap mazmuniga ta'sir qilgani kuzatiladi. Aslida, bu jumla adabiy til me'yorlariga muvofiq quyidagicha berilishi lozim. *Jismoniy shaxs moliya yili davomida ishlab daromad olgan har bir oy uchun eng kam ish haqi miqdorida soliqqa tortiladi*.

Demak, g'aliz jumlalar bilan tuzilgan qonun moddalarining matni fuqarolarga tushunarli bo'lmaydi. Bo'lg'usi mutaxassislar ifodalananayotgan fikrning boshqalar tomonidan to'laqonli qabul qilinishiga erishish uchun adabiy til me'yorlarini puxta o'zlashtirishlari lozim.

### **Eskirgan so'zlarning qo'llanilish o'rnini bilmaslik**



Adabiy tilimiz kabi yuridik til ham muttasil rivojlanish va o‘zgarishdadir. Bu o‘zgarishlar yuridik tilning lug‘at tarkibida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Chunki xalqimiz tarixida ro‘y bergen va sodir bo‘layotgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-huquqiy o‘zgarishlar sababli tilimizdan ayrim so‘zlar iste’moldan chiqib ketadi. Ularga nisbatan **eskirgan so‘z** (arxaizm va istorizm)lar atamasi ishlatiladi. Masalan, islom huquqi bilan bog‘liq (fiqh, qozi, rishva kabi) yoki sobiq Ittifoq davridagi (partiya, siyosiy byuro, grajdan kabi) huquqqa doir atamalar hozir eskirgan so‘z hisoblanadi. Ayrim eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan so‘zlar tilimizga qaytadan olib kirildi. Masalan, *hokimiyat, hokimlik, vazir, vazirlilik*,

*devonxona* va boshqalar. Albatta, bu kabi so‘zlar mazmunini bilish va ularni qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘rinlardagina ishlatish kerak.

Yaxshi mutaxassis aniq nutq tuzish uchun qo‘llanishi chegaralangan so‘zlar ma’nolarini yetarli darajada bilish bilan bir qatorda ularning ishlatilish o‘rinlarini ham aniq tasavvur etishi zarur.

### **Kasb-hunarga oid so‘z va atamalarni o‘z o‘rnida qo‘llamaslik**

Kasb-hunarga oid ba’zi atamalar borki, ular yuridik matnlardagi so‘zlar bilan shakldosh yoki paronimlik hosil qiladi. Masalan, operatsiya (tibbiyot va huquqda), kadr (kino sohasi va yuridik faoliyatda) so‘zları boshqa-boshqa tushunchani ifoda etadi. Agar bunday so‘zlardan foydalanilsa, matn tarkibidagi boshqa so‘zlarga e’tibor qaratish kerak. Shunda jumla mazmuni to‘g‘ri anglanadi.

### **So‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari hamda ma’no qirralarini farqlamaslik**





Huquqqa doir publitsistik matnlarda o‘z va ko‘chma ma’nolardagi so‘zlardan foydalilanadi. Bunday so‘zlarning ma’no qirralarini farqlamaslik ham nutq aniqligiga putur yetkazadi. Masalan, Botirovning jinoyati o’n bir yillik qamoq bilan “**taqdirlandi**”. (T. Malik)

Jumladagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z qo‘shtirnoqqa olinib, ko‘chma ma’no ifodalagan va teskari (**jazolandи**) mazmunni anglatgan. Agar so‘z qo‘shtirnoqsiz yozilsa, mazmun noaniq bo‘lib qoladi.

**3-mashq.** Tarkibidagi tovushlar miqdori talaffuzidagi o‘xhashlik bilan farqlanib, alohida-alohida leksik ma’no ifodalovchi so‘zlarni toping va ularning yozilishiga diqqat qiling. Xato yozilgan paronimlarni topib, ularni to‘g‘rilang va misollarni ko‘chiring.

1. Polis – shaxsiy yoki mulkiy sug‘urta shartnomasi zarurat tug‘ilganda sug‘urtachiga qarshi *davo* qo‘zg‘atib zararni undirish uchun sudga taqdim etiladigan rasmiy hujjat.
2. To‘g‘ri, o’sha mamlakatlar iqtisodiy rivojlangan, xalqi nisbatan boy-badavlat. Ammo bizdagi insoniylik, qadr-qimmat, mehr-oqibat u tomonlarda *tansiq*.
3. Vatan oldidagi farzandlik *burjini* o‘tamoq – har bir yosh uchun sharaf.
4. Quyosh hamal yulduzlar *burchiga* o‘tishi bilan kunlar isiy boshlaydi.
5. Sheylok oddiygina qasoskor emas, balki har qanday xudbinlik uning uchun *yod* bo‘lgan, millati boshiga tushgan barcha kulfatlar uchun o‘ch olishni o‘z hayotining mazmuniga aylantirgan qasoskordir.
6. Sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra fermer xo‘jaligi foydasiga asosiy *qars* va penya, jami 73 million so‘m, undirildi.
7. Hamyon ichidan bir dasta pul va uch bora *qayt* qilingan chek chiqди.
8. U *xolda* ma’muriyat bu ma’lumotlarni aniqlash choralarini ko‘radi.
9. Tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun undiriladigan davlat boji miqdori 5 baravarga,

ularning ramzlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun *yig ‘inlar* miqdori 2,5 baravarga kamaytirildi. 10. Mahallalarda kam *ta ‘mirlangan* oilalarga moddiy yordam berilyapti.

**4-mashq. Quyidagi namuna asosida jadvaldagi paronim so‘zlar ma’nolarini izohlang.**

So‘zlar	Ularning paronimlari
Modda / moda	Modda – qonun moddasi. Moda – libos bichimi
Nasha / nash’a	
Qayd / qayt	
Bob / bop	
Asir / asr	
Nufuz / nufus	
Sur’at / surat	

**5-topshiriq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalangan holda shakldosh, ma’nodosh va paronimlik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlardan uchtadan yozing.**

### 3-mavzu. YOZMA NUTQNING MANTIQIY IZCHILLIGI

**6-topshiriq.** Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Matndagi gaplar o‘rni o‘zgartirilgan. Matnda ifodalanayotgan fikrdan kelib chiqib, ularni ikkita kichik matnga ajrating. Gaplarni mantiqan ketma-ketlikda joylashtiring va daftaringizga ko‘chiring.

Kichik matnlar quyidagi gaplar bilan boshlanadi.

*Milliy mafkuramiz negizlaridan biri tilga bo‘lgan munosabatimizdir.*

*Mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar.*

Milliy mafkuramiz negizlaridan biri tilga bo‘lgan munosabatimizdir. Mafkura sohasida bo‘sqliq vujudga kelishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Demak, bu ramziy belbog‘ning kuchi, qudrati siz-u bizlarning ona tilimizga bo‘lgan munosabatimizga bog‘liq. Mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Til – millat vakillarini mustahkam birlashtiruvchi, tutib turuvchi belbog‘. Inson uzlusiz ravishda ezgulikka yo‘g‘rilgan ruhiy, ma‘rifiy va ma‘naviy ozuqa olib turmasa, bularning o‘rnini yot ta’sirlar ishg‘ol etadi. Qayerda mafkuraviy bo‘sqliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin.

(A. Ibrohimov)



Nutqda so‘z va gaplar o‘rtasidagi ma’noviy-mazmuniy aloqalarning ifodalanayotgan fikrdagi mantiqiy mohiyat va izchillikka mos kelishi nutq mantiqiy-ligidir.

Fikr noto‘g‘ri bo‘lsa, nutq mantiqiy jihatdan tugal bo‘lmasligi aniq. Grammatik jihatdan shakllanmagan nutq ham, nutqda noo‘rin qo‘llanilgan lug‘aviy birlik va grammatik shakllar ham mantiqqa putur yetkazadi.



Yurist tilning butun qoidalarini o‘zlashtirgan holda o‘zi fikr yuritayotgan mavzuni yaxshi bilmas ekan, nutq mantiqiyligi yuqori darajada bo‘lmaydi. Zero, ulug‘ mutafakkir Forobiy to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabitdir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi mantiq ham tafakurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi”.

Nutqda mantiqiylikka erishish uchun, avvalo, bir fikrni ikkinchi fikrga bog‘lash, mavzuning muqaddima, asosiy qism va xotimasini to‘g‘ri joylashtirish, fikr yuritilgan mavzu yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish mahoratini shakllantirish zarur. Har qanday voqelik yuzasidan aytilayotgan mulohazalar yuqorida sanab o‘tilgan zaruriy qismlarga ega bo‘ladi, agar bu qismlar tartibi o‘zgartirilsa, mantiq yo‘qolishi, maqsad amalga oshmasligi aniq. Shuning uchun nutqiy mantiq talabiga muvofiq gaplar o‘rtasida ham izchillik bo‘lishi, ularning birida bayon etilgan fikr ikkinchisi orqali to‘ldirilishi kerak. Bu holat ma’lum bir fikrning tugashiga qadar davom ettirilishi lozim. Gaplar o‘rtasida fikriy izchilik yo‘qolishi bilan mantiqiylikka putur yetadi.

Demak, tushunchalar uchun muqobil bo‘la oladigan so‘z, atamalarни o‘z o‘rnida qo‘llash va ohang, so‘zlar bog‘lanishi, so‘zlar tartibi, gap turlarining mazmunga muvofiqligini ta’minlash nutq mantiqiyligi asosini tashkil qiladi.

**5-mashq. So‘zlar tartibini asl holatiga keltirib, gaplarni mantiqiy izchillik asosida yozing.**

1. Amaliyotda, noaniqlik, yuridik, va, nihoyatda, natjalarga, mumkin, kutilmagan, har qanday, olib kelishi. 2. Sog‘ligi, bog‘liqdir, bilan, manfaati, va, chunki, fuqarolar, muhofaza qilish, hayotini, bu, soha 3. Yozma, barqaror, nutq, yuridik, u, o‘ylanadi, avvaldan.
4. Yuristning, kuchli, til, har qanday, nihoyatda, qurolidir. 5. Davlat, va, munosabati, matni, maqomi, tiliga, katta, bilan, qonunlar, o‘zbek, berilishi, tili, tarjimasi, atamalariga, o‘zbek, yuridik, e’tibor berilmoqda. 6. Prokurorga, ishini, darhol, imzolagandan, jinoyat, xulosasini, tergovchi, ayblov, yuboradi, keyin. 7. Amalga oshiriladi, va, ijro etilishi, ustidan, prokuror, tomonidan, tergov, dastlabki, yuritishda, surishtiruv, harakatlarini, qonunlarning, nazorat.
8. Sudda, jinoyat, joydagи, jinoyat ishi, sodir etilgan, ko‘riladi. (JPK)



### **Nutq mantiqiyligiga putur yetkazuvchi lisoniy jihatlar quyidagilardan iborat:**

- a) nutqda ayrim so‘zlar tushirib qoldirilishi: *Saloh o‘z do‘siti bilan teatr oldida uchrashdi. U oq ko‘ylak qora shimda edi.* (Kim oq ko‘ylak qora shimda bo‘lgan? Salohmi yoki do‘siti?)
- b) rus guruhini tamomlagan ba’zi yuristlarning *u* va *o‘* harflari farqiga bormasligi: *Mehr kuzda bo‘ladi.*
- c) tutuq belgisining qo‘llanilish doirasini bilmaslik: *Jabrlanuvchining davolari o‘zini oqlamadi.*
- d) *x* va *h* tovushlarini yozuvda to‘g‘ri qo‘llay olmaslik: *Uning xoliga voy.*
- e) *f* mantiqan bir-biriga zid, o‘zaro aloqador bo‘lмаган tushunchalar ifodalovchi so‘zlarni nutqda qo‘llash.

**7-topshiriq.** O‘zaro tutuq belgisi bilan farq qiluvchi so‘zlarni yozing va ularning ma’nolarini izohlang.

**8-topshiriq.** “Yuridik ensiklopediya”dan foydalangan holda h va x harflari bilan boshlanuvchi huquqiy atamalardan beshtadan yozing. Har birining ma’nolarini umumiste’moldagi mazmuni bilan qiyoslang.

## 4-mavzu. YOZMA NUTQ TA'SIRCHANLIGI

### 9-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni berilgan namunadagidek badiiy tasvir vositalari asosida izohlang.

*Namuna: Qasos – shaytanat olamining eshigi.*

Jinoyat, davlat, oila, jamiyat, jazo, huquq, qonun, qamoq, sud, o‘g‘rilik, tamagirlilik, giyohvandlik, ozodlik, burch, til, terrorchilik.



Nutq tuzilishi, gapning ifodali so‘z, jumla va iboralaridan tarkib topishi, badiiy tasvir vositalariga ko‘ra tinglovchi diqqatini jalb qila olishi nutq ifodaliligidir.

So‘zning turli ma’no qirralarini ham ko‘ra olishga intilish, yozma nutqdagi so‘zlarning favquloddha uyg‘unligini ta’minalash mutaxassisdan katta mehnat talab etadi. Muloqot vaziyatining mohiyatiga chuqur yetmasdan tanlangan til birliklari, har qancha go‘zal bo‘lmasin, nutq egasining maqsadini ifodalay olmaydi.

Ma’lumki, o‘zbek tili nutqiy vositalarga juda boy tillardan biri. Nutqqa rang-baranglik berish, nutqiy badiiylikni kuchaytirish maqsadida ko‘proq turli xil tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Ana shu til vositalaridan o‘rinli va unumli foydalana olgan notiq kishi qalbida hislar tug‘yonini uyg‘ota oladi.

Til kishilar fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritib berishda chegarasiz imkoniyatlarga ega. Ifodalanayotgan fikr-mulohazalar yuqori darajada bo‘lishi uchun tilning tasviriy vositalari, uning turli xil ma’no nozikliklarini timmay o‘rganish lozim. Ana shundagina qisqa jumla va matnlarda olam-olam fikrlarni ifodalay olish mumkin, chunki so‘z har qanday fikrning libosidir.

Demak, nutqning ifodali, ta'sirli bo'lishi quyidagilarga asoslanadi:

a) frazeologik ibora, maqol, matal va hikmatlardan o'rinli foydalanish. Masalan: *Qonunga xilof harakatning misi chiqadi*.

b) sifatlash, metafora va boshqa ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llash. *Masalan: Surgun (qamoq) – bu yaramas malham; u avval yomon qonni so'rib olib, keyin uni yanada ko'proq zaharlab, badanga singdiradi.* (Viktor Gyugo)

Huquqshunoslikda nutqning ekspressivita'sirchanlik xususiyatidan keng foydalanilmaydi. Biroq huquqiy mavzudagi ommabop maqolalar aksariyatida sarlavhadanoq ibora, maqol, matal, ko'chma ma'noli va hikmatli so'zlar qo'llanadi. Gazeta yoki internet sahifalaridagi "Yolg'onning misi chiqdi", "So'nggi pushaymon – o'zingga dushman", "Bilmayin bosdim tikanni...", "Jazo "mukofotsiz" bo'lmas" kabi sarlavhalarning o'ziyoq kishida qiziqish uyg'otishi tabiiy.

Shuningdek, advokat nutqida ham ta'sirchan vositalardan foydalanish kuzatiladi.

#### **6-mashq. Nutq ta'sirchanligi qaysi vositalar orqali ifodalangan. Gaplar mazmunini muhokama qiling.**

1. Marat ismli shaxsning 300 AQSH dollaridan maosh berish evaziga qilgan "g'amxo'rliqi" Murod Odilovni 2 yil Qozog'iston Respublikasida sarson-sargardon qildi.
2. Yo'l patrul xizmati xodimlari sa'y-harakati tufayli "hojatbaror" kirakashlar faoliyatiga chek qo'yilmoqda.
3. Tuman IIB xodimlari tomonidan o'tkazilgan surishtiruvda Nozim oshnasi Karim bilan chiqib ketgani aniqlangach, kalavaning uchi topilgandek bo'ldi.
4. O'ylamay qilingan ish – boshga keltirar tashvish deganlaridek, Olimjonning



o‘ylovsiz ishlari oxiri voy bo‘ldi. 5. Deyarli har bir sudyaning xizmat faoliyatida shunday daqiqalar ro‘y berishi mumkinki, u o‘zini eng muqaddas qadriyatlarga dog‘ tushirish va Prometey tomonidan insonga tuhfa qilingan olov bilan odil sudlovga o‘t qo‘yish uchun yordam berayotgandek his qilganda yuragi tilka-pora bo‘ladi. 6. U shuning uchun yiqilganki, odil sudlov Sheylokning eng nozik joyi – sudxo‘r qalbiga qaqqhatqich zarba bergan. 7. Shu sababli Rimdagि qulchilik davridan beri deyarli biron o‘zgarishsiz amal qilib kelayotgan huquq xuddi zamindan uzilgan Antey kabi o‘z asosidan uzilib, kuchini yo‘qotayotgan edi. 8. Giyohvandlik – asr vabosiga qarshi kurash har bir huquq xodimining burchidir. 9. Shekspir asarlari hozirgi davr huquq tarixi va nazariyalariga sayqal beruvchi o‘ziga xos qayroqtosh vazifasini ham o‘tay oladi. 10. Fransiyadan asli yurist bo‘lgan, ammo yozuvchi yoki shoir sifatida jahon ada-biyoti osmonida yorqin yulduz kabi porlagan ko‘plab iste’dodlar chiqqan.

### **7-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralar ma’nosini izohlang.**

1. Bizga **toza** suv kerak. Ko‘ngli **toza** kishining do‘sti ko‘p bo‘ladi. 2. Eshik **ochiq**. Mehmonni **ochiq** chehra bilan kutib ol. U **ochiq**, samimi yigit. 3. Qopni **teskariga** ag‘dardi. Bu yo‘l menga **teskari**. Ombor mudiri darrov **to‘nini teskari kiyib oldi**. 4. So‘zni **to‘g‘ri** yozishni o‘rgan. U – **to‘g‘ri** odam. 5. Usta **o‘tkir** asbob bilan simni qirqdi. **O‘tkir** – zehnli bola.

### **10-topshiriq. Nutq ta’sirchanligini belgilovchi vositalar yordamida huquqiy sohaga doir matn tuzing.**

## **5-mavzu. NORMATIVLIK – YOZMA NUTQNING MUHIM XUSUSIYATI**

**8-topshiriq. Davriy me'yorni ifodalovchi so'zlarga e'tibor qarating. Shu so'zlar vositasida gaplar tuzing.**

<b>XV asrda</b>	<b>XIX asrda</b>	<b>XXI asrda</b>
Bila	Birla, ila	Bilan, ila
Aro	Aro, ora	Ora
Qaro	Qaro, qora	Qora
Sing'on	Sing'an	Singan
Borg'il	Borg'il/borgil	Borgin



Rivojlangan har qanday til, jumladan, hozirgi o'zbek tili ikki asosiy funksional tur: adabiy til va jonli so'zlashuv tiliga bo'linadi. Har bir muayyan til sohib (tashuvchi)lari bo'lgan elat (xalq) yoki millat vakillari tomonidan jonli so'zlashuv tili bolalikdan boshlab egallanadi. Adabiy til, uning me'yor va qonuniyatları esa keyinchalik o'rganib, o'zlashtirib olinadi. Bunda, ayniqsa, oila va bilim dargohlarining o'rni, shuning-dek, mohir suxandon va notiqlar bilan hamsuhbat bo'lish va ular ko'magida turli janrdagi adabiyotlarni o'qish, o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Umumxalq tilining yuqori shakli hisoblangan adabiy til aniq va muayyan bir tizimda har bir davr tiliga xos me'yor, tartib-qoidalarni ifodalaydi. Milliy adabiy til og'zaki va yozma shakllarini aniqlashda eng muhim va asosiy belgi uning muayyan bir me'yor, ya'ni aniq bir qolip, tartib-qoidalarga solinganligidir. Milliy tilgacha bo'lgan davrdagi adabiy til bilan milliy adabiy til orasida muhim tafovutlar



bo‘lishiga qaramay normativlik adabiy til taraqqiyotining barcha (milliy tillar tashkil topgan, milliy adabiy tillar to‘la shakllangan) davrlarida asosiy belgi bo‘lib qoladi. Adabiy til taraqqiyotining dastlabki davrlariga tegishli yodgorliklarni o‘rganish unda bir qator me’yorlar mavjudligi, eski me’yorlar yo‘qolib ketishi, yangi me’yorlar yuzaga kelishi, yangi va eski me’yorlar muvoziy (parallel) holda qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Demak, me’yor faqat tilning hozirgi holati, ya’ni sinxroniya uchungina xarakterli emas, balki diaxroniyada ham vujudga keladi.

Adabiy til umumxalq tilidan leksika, fonetika, grammatikadagi o‘z me’yor va qoidalari bilan farq qiladi. Bu me’yorlar shu tilda so‘zlashuvchi kishilar uchun umumiyligi va zaruriy hisoblanadi. Adabiy tilning lug‘at tarkibi ma’lum tartibga keltirilgan. So‘zlar ma’nosi va ishlatilishi, talaffuzi va yozilishi hamda grammatik shakllar yasalishi yagona, mushtarak qoidaga bo‘ysunadi. Adabiy me’yor til taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi, uning ichki qonuniyatlariga asoslangan holda tilda doimo yuz berib turadigan o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ko‘rinish (variant)larni inkor etmaydi va kishilarning mu-loqot madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi.

### **8-mashq. Berilgan sinonimik qatordan ko‘p va kam ishlataluvchi so‘zlarni aniqlang.**

Sabab, bahona, bois, vaj; ahd, va’da lafz; xasis, ziqna, qizg‘anchiq, mumsik, baxil; dushman, g‘anim, yov, yog‘iy; jesus, ayg‘oqchi, agent; asir, tutqun, bandi; ozodlik, erkinlik, hurlik; ruxsat etmoq, izn bermoq, ijozat etmoq; loyiq, muvofiq, munosib, mos, bop; tez, ildam, jadal.

**FSMU texnologiyasi asosida quyidagi savolga javob bering.**

Yozma nutq rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

F	<b>Fikringizni bayon eting.</b>
S	Fikringiz bayoniga biror <b>sabab</b> ko'rsating.
M	Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi <b>misol</b> keltiring.
U	Fikringizni <b>umumlashtiring.</b>

**9-mashq. Quyida berilgan misollardagi qaysi o'rnlarda adabiy nutq me'yori buzilganligi e'tiboringizni tortyapti?**

1. Ayni paytda viloyat adliya boshqarmasi, huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda qonun hujjatlarini yuritish yuzasidan turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

2. Ba'zi hollarda bir oilada yashayotgan er-xotinlar rasmiy nikohdan o'tmaslik holatlari keyinchalik bola huquqlariga daxl qiladi.

3. Odam savdosi insonning yuksak e'zozga loyiq bo'lgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzuvchi, shaxsiy daxlsizligiga tahdid soluvchi jamiyatdagi salbiy illatlardan biridir.

(“Inson va qonun” gazetasining 2009-yil 7-aprel soni)

**9-topshiriq. Quyidagi atama va ularga berilgan ta'riflarni qiyoslang. Ularning mazmunini guruh bilan muhokama qiling.**

**Amnistiya** – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlik uchun jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish, shuningdek, jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash.

**Jabrlanuvchi** – yetarlicha dalillarga asoslangan holda jinoyat oqibatida moddiy, ma'naviy, jismoniy zarar yetkazilgan shaxs.

**Offshor** – dunyodagi moliyaviy markazlar, shuningdek, bank operatsiyalarini tavsiflash uchun qo'llanuvchi so'z.

**Sanksiya** – jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsga nisbatan majburiy chora (qamoq, tintuv va shu kabi) ko'rish uchun sud tomonidan beriladigan ruxsat.



## **6-mavzu. SO‘Z TANLASH MEZONI – YOZMA NUTQ ME’YORLARINI BELGILOVCHI MUHIM OMIL**

**10-topshiriq. So‘z tanlashda sinonimlardan foydalanishning ahamiyatini tushuntiring va bildirilgan fikrlarni misollar bilan asoslang.**



Yozma nutqda so‘z tanlash, zarur so‘zni ma’nosibir-biriga yaqin sinonimik qatordan ajratib olish katta ahamiyatga ega. So‘zlar nutq turi, nutqning kimga atalgani va maqsadiga ko‘ra tanlanadi: ilmiy nutq uchun atama, publitsistik nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o‘tkir, ta’sirchan, badiiy nutq uchun esa badiiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so‘zlar olinadi. Badiiy nutqning nasr va nazm ko‘rinishlaridagi til xususiyatlari ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Tanlangan so‘z adabiy nutqqa xos, nutq madaniyati me’yorlari doirasida bo‘lishi lozim, chunki har qanday nutq – tarbiyalovchi omil, u eshituvchi va o‘quvchilarda to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri yozish ko‘nikmalari va savodxonlikni shakllantiradi.

### **10-mashq. Quyidagi gaplar xatolarini tuzatib ko‘chiring.**

Aql yoshga emas, boshga. Institutda bu yil katta qurilish ishlarini olib borilyapti. Ertalab chiqqan quyoshni tushga yaqin bulut pardalari yuzini bekitdi. Xadicha xola bu gapning eshitib, boshidan ro‘moli tushib ketdi. Men Narzi yoniga bo‘lib, umi qutqarishim kerak edi.



Tilning eng katta boyliklaridan biri sinonimlar – ma’nosibir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar.



Sinonim so‘zlar orasidan nutqiy vaziyat uchun eng muvofig‘ini tanlab olish ancha mas’uliyatli ish. Chunki har bir so‘z o‘zining ma’nodosh (sinonim)idan nozik ma’no qirralari, uslubiy bo‘yog‘i bilan ajralib turadi. Bu farqlarni ilg‘ab olish uchun ularning qo‘llanishini bir-biriga qiyoslab, solishtirib ko‘rish kerak. Masalan: *qobiliyat, layoqat, iste’dod, talant, salohiyat, uquv* so‘zлари.

Layoqat, talant so‘zлари “mahorat, ishtiyоq”, iste’dod so‘zi “o‘qish-o‘rganish kuchi”, shuningdek, “yaratuvchilik kuchi”, uquv, salohiyat so‘zлари esa ko‘proq aql-ong bilan bog‘liq “yuqori qobiliyat dарrasi” ma’nosida qo‘llanadi. Shunday ekan, ularning har biridan turli xil nutqiy vaziyatda foydalanish muhim.

Qo‘shiq va ashula so‘zлари bir tushuncha – she’rni kuyga solib yaratilgan vokal asarni bildiradi. Ba’zan ularni almashtirib qo‘llash mumkin, lekin hamma vaqt emas. Masalan: *Ashula va raqs ansamбли, katta ashula, maqom ashulalarida ashula* so‘zini qo‘shiq bilan almashtirish, aksincha, *qo‘shiqchi shoир, qo‘shiq bizga hamisha hamroh, hayot qo‘shig‘i*, kabi birikmalarda qo‘shiq so‘zi o‘rniga ashulani qo‘yish mushkul.



*Olam, dunyo, jahон* sinonim so‘zlarni olaylik. Qiyoslang: *olamga sayohat* // jahonga yoki dunyoga sayohat, *dunyo voqealari* // olam voqealari, *jahон championati* // olam championati. Bu birliklarni bir-biri bilan almashtirib bo‘lmaydi. Shunday ekan, har bir so‘zning nozik ma’no xususiyatlarini bilish, so‘z tanlash, ularni boshqa so‘zлар bilan bog‘lab, qiyoslab ko‘rish kerak.



Agar so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar nutqning umumiy adabiy-madaniy ruhiga singishib ketsa, me’yorni buzmasa, ulardan o‘rni bilan foydalanish mumkin. Masalan: Afsuski, egnida xorijiy kiyimni ko‘z-ko‘z qilib, qo‘lidagi “Ayfon”da *chet el* muzikasini varanglatib yuradigan yoshlar orasida ism-familiyasini to‘g‘ri yoza olmaydiganlar ham uchraydi. Bu gapda *chet el* va xorijiy so‘zлari sinnenim. Biroq ikkalasining davri orasida farq bor. *Ko‘z-ko‘z qilib, varanglatib* so‘zlashuv uslubiga xos. Lekin jumla to‘g‘ri, so‘zlar o‘z o‘rnida ishlatilgan.

Vaqt o‘tishi bilan so‘zlarning bir qismi eskirib, nofaol qatlamga o‘tadi. Lekin bu o‘sha so‘zlar bিrato‘la qo‘llanishdan chiqib ketdi degan gap emas. Agar o‘rinli bo‘lsa, nutq sharoitiga qarab ulardan unumli foydalish mumkin. Masalan: 1. Rassomlar ishlab chiqarish mavzusiga qo‘l urganlarida ko‘pincha konstruksiyalar va shakllarni *qalashadirib tashlaydilar*. Yorqin taqdirlar, o‘tmish va hozirgi zamonning qahramonliklari rassomlar o‘z iste‘dodlarini to‘la-to‘kis ochishlariga imkon beruvchi *badastir* materiallar emasmi? 2. Korxonada ishchilarning kayfiyati zo‘r. 3. Kanar orollari ustidan o‘tgan bo‘ron dastlabki chamalarga ko‘ra 12 kishining *yostig‘ini quritdi*. 4. Bu yerlarda o‘nlab qishloqlar tom ma’noda yer yuzidan *supurilib ketdi*”...

### **11-mashq. Noo‘rin qo‘llangan so‘zlarni aniqlang.**

1. Orttirilgan sarmoyasini bir oyda chaynab, yana avvaliga qaytdi. (M.M. Do‘st. “Lolazor”)

2. Jo‘raqulov yomon yaxshi odam-u, ammo qiziqroqda, – dedi.  
(Mirmuhsin. “Ildizlar va yaproqlar”)

**12-mashq.** Quyidagilarni neytral, kitobiy, og‘zaki so‘zlar guruhlariga ajrating.

Chiroyli, go‘zal, zebo, ketvorgan; yolg‘onchi, kazzob, aldoqchi; chidam, sabr, to‘zim, matonat; loyiq, monand, munosib, bop; yemoq, tanovul qilmoq, oshamoq, iste’mol qilmoq; jahl, qahr, g‘azab, achchiq, zarda; suhbatlashmoq, gaplashmoq, fikrlashmoq; oz, kam, jichcha, picha, qittay, andak.

## **7-mavzu. YOZMA NUTQDA ATAMA QO'LLASH ME'YORLARI**

**11-topshiriq.** Berilgan gaplardagi yuridik atamalarni aniqlang va izohlang.

1. Qonunga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga oid me'yorlar belgilangan. 2. Sudyalar oliy kengashi Sudylar hamjamiyati organi sifatida sud hokimiyatining mustaqilligi haqidagi konstitutsiyaviy prinsipga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. 3. Qonun ustuvorligi ta'minlangan mamlakatimizda inson manfaatlari eng oliy qadriyat sanaladi. 4. Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishdir.



Ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va san'atga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir ma'noli so'z va birikmalar *atamalar* deyiladi.

So'z ko'p ma'noga, ya'ni qo'shimcha ma'nolarga ega bo'ladi, lekin atama bunday xususiyatga ega emas. U odatdagи so'zlardan ma'nosи aniqligi, bir ma'noliligi bilan farqlanadi. Atama ma'lum sohada, shu soha vakillari nutqida qo'llaniladi. Masalan: **da'vo, ayblanuvchi, bosqinchilik, retsidiv jinoyat, genotsid, terrorizm, vasiylik, senat, spiker** kabi atamalar yurisprudensiya tarmoqlarida uchraydi.

Atamalar yig'indisi va ularni o'rganuvchi soha atamashunoslik (terminologiya) deyiladi. Termin grekcha "*terminus*" so'zidan olingan bo'lib, "*chek, chegara*" ma'nolarini anglatadi.

Qonun tili leksikasini, asosan, atamalar tashkil qiladi.

Atamalarning umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlash o'rnlidir:



1. So'zlar fan va texnikaning ma'lum tarmog'ida qo'llanilib, iste'mol doirasi chegaralangan ma'noda ishlatilsa, atamalarga aylanadi. Masalan, **suv**, **tuz**, **aylana**, **guvoh**, **zarar**, **tuhmat**, **qo'rqtish** kabi so'zlar hozirgi kunda fan sohalarida ilmiy-rasmiy ma'nolarni ifodalab, atamalar tizimiga kirgan.



*Guvoh* so'zi umumxalq tilida biror voqeа-hodisa ro'y bergan paytda shaxsan bo'lgan, uni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi, yuridik atama sifatida esa jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar haqida qonunda belgilangan tartibda so'roq qilinadigan shaxs ma'nosini anglatadi. *Tuhmat* so'zi umumiste'molda birovni nohaq ayblash yoki qoralash, nomini yomonga chiqarish maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo; bo'hton. Masalan: *Tuhmat tosh yoradi, tosh yormasa, bosh yoradi.* (Maqol) Bu so'z yurisprudensiyada shaxs qadr-qimmati va or-nomusiga qilinadigan tajovuz ma'nosini anglatadigan jinoyat nomi. (Jinoyat kodeksining 139-moddasi)

Bundan tashqari, **jazo**, **jarima**, **ko'zdan kechirish**, **mulk**, **omonat**, **topshiriq**, **qarzdor**, **hadya**, **shikoyat**, **da'vo** kabi umumiste'moldagi so'zlar ham yurisprudensiyada yuridik atamalar hisoblanadi.

2. Atama ma'nosi adabiy til me'yorlari doirasidagi bir ma'noli (monosemantik) tushunchaga teng. Ko'p ma'noli birgina so'z esa bir necha (polise-mantik) tushunchani ifodalaydi. Masalan, **ko'z** –

**kishi a'zosi; uzukdagи bezak; yog'ochdagi belgi; buлоqning suv chiqadigan joyi.**

3. Atama aniq tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xoli.

4. Bir so'z bir necha soha atamasi bo'lishi mumkin. Bunda so'zlar fanning har bir sohasida alohida tushunchalar nomi bo'lib keladi. Masalan, *topshiriq* atamasi pedagogikada o'quvchilar yoki talabalarga beriladigan vazifa ma'nosini anglatса, yuridik sohada *topshiriq* huquq-tartibot tizimida faoliyat ko'rsatuvchi xodimga yuklatiladigan muhim vazifa ma'nosini anglatadi. *Operatsiya* atamasi tibbiyotda jarrohlik bilan bog'liq tushuncha, yuridik terminologiyada biror maqsad yoki maxsus, maxfiy topshiriq yuzasidan o'tkaziladigan tadbir nomini bildiradi.

Ba'zan bir tarmoq terminologiyasida ham omonimlik uchraydi. Masalan, yurisprudensiyada *sanksiya* atamasi ikki ma'noni anglatadi: 1) prokuror ruxsati; 2) jazo chorasi.

5. Huquqiy atamalar rasmiylashgan so'zlar bo'lganligi sababli respublika, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Xalqaro atamalar fikrimizga misol bo'la oladi: **impichment, demokratiya, respublika, president, parlament, amnistiya, deputat, konstitutsiya, kriminologiya** va h.k.

6. Bir tarmoq atamalari tizimida sinonimiya yoki dublet qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, **huquq, burch, shaxs, subyekt, yuridik shaxs, kriminalistika, demokrat, tergovchi, modda, jinoyat** kabi atamalarga muqobil variantlar izlash nojoizdir. Ba'zan boshqa terminologiya sohalarida



bo‘lgani kabi yuridik atamalar tizimida ham sinonimik holatlar ko‘zga tashlanadi: **sud – qozi, prokuror – qoralovchi, aybdor – ayblanuvchi, respublika – jumhuriyat, gumondor – gumon qilinuvchi, advokat – himoyachi – oqlovchi** kabi. Biroq bunday holat terminologiyada nuqson hisoblanadi. U xalqaro atamalarning o‘zbek tilidagi muqobilini tanlash asosida yuzaga keladi. Agar qo‘llanilish doirasasi chegaralangan va xalqaro so‘zlarga e’tibor qaratilsa, bunday holatning oldi olinadi.

7. Soha atamalari tizimining bir elementi har doim bir tizim doirasida qo‘llaniladi: **vasiylik, oila, nikohni qayd qilish, farzandlikka olish, homiylik, aliment, soxta nikoh** kabilar bog‘langan holda yuridik terminologiya zanjirining alohida halqasi hisoblanib, oila munosabatlarini ifodalovchi tizimni tashkil etadi.

### **13-mashq. Quyidagi yuridik atamalar ishtirokida gaplar tuzing.**

Odam savdosi, qonun ustuvorligi, Senat, sud-huquq tizimi, prezident, fuqarolik, huquqbazarlik, sud amaliyoti, inson manfaatlari, deputat, kansler, demokratiya, parlament, davlat siyosati, farmon, tahdid, respublika.

### **14-mashq. Berilgan atamalardan xalqaro va milliylarini alohida ustunlarga ajratib yozing.**

Tarafkashlik, ayblanuvchi, prokuror, advokat, dalil, vakolat, daxlsizlik, yurisprudensiya, agressiya, talonchilik, impichment, burch, kafolat, preamble, konstitutsiya, senzura, ombudsman, tazyiq, jamiyat, mansabdar shaxs, mulkdor, mafkura, javobgarlik,

tintuv, da'vogar, cassatsiya, yollanish, spiker, tergovchi, hukm, genotsid, senator.

**12-topshiriq. Yuridik atama va yuridik tushuncha o'rtaсидаги farqlar bo'yicha bahs yuriting.**

**13-topshiriq. "Yuridik ensiklopediya"dan olingan quyidagi so'zlar ma'nolarini bilib oling, ularning qanday yozilishini eslab qoling.**

**Yurist.** Yuridik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis; huquq sohasidagi amaliyotchi arbob.

**Yuristkonsultant.** Tashkiliy-huquqiy xizmat xodimi.

**Yurisprudensiya.** Huquqshunoslik va yuridik fanlar majmui, shuningdek, yuristlarning amaliy faoliyati.

**Yuridik shaxs.** O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan xo'jalik yurituvida alohida mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları bo'yicha ushbu mulki bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalgalash oshira oladigan, da'vogar va javobgar sifatida sudda qatnasha oladigan tashkilot.

**Qonun.** Oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to'g'ridan to'g'ri referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilingan va o'zida qonunning amal qilish hududi, muddatini mujassamlashtirgan huquqiy-normativ hujjat.

## 8-mavzu. TIL VA HUQUQ

### 12-topshiriq. Til va huquqning bog‘liqlik tomonlari haqida o‘z fikrlaringizni og‘zaki bayon qiling.



Har qanday ijtimoiy aloqa, fikrlashuv va muloqot, jumladan, barcha huquqiy munosabatlar ham til orqali namoyon bo‘ladi. Tilsiz fikrni ifodalash mumkin bo‘lmaganidek til ham o‘z ifodasini fikrsiz shakllantira olmaydi. Binobarin, huquq insonlarning asosiy ehtiyojlari va manfaatlarini ta‘minlaydigan, kafolatlaydigan vosita bo‘lsa, til ana shu huquqning voqe bo‘lishi va reallashuvida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqqa oid har qanday fikr, tushuncha, belgi, harakat-hodisa va munosabat so‘zlarda o‘z ifodasini topadi. Fikr, xususan, yuridik fikr voqeligi va mavjudligi tilda namoyon bo‘ladi. Tilsiz, so‘zsiz hech qanday aniq va tayyor holdagi yuridik fikr bo‘lmaydi. Til huquqning “yashash” shartidir. Shuning uchun ham til va huquq jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy va ruhiy hodisalar hisoblanadi, til huquqqa ruh baxsh etadi.

Darhaqiqat, til yuristning tafakkur yuritish quroli bo‘libgina qolmasdan, balki huquqqa oid o‘tmish bilimlarni hozirgi avlodga yetkazish, huquqiy meyorlar bilan fuqarolarni tanishtirish quroli ham. Bugungi boy ma’naviy merosimiz bo‘lgan huquqqa oid barcha bilim va ta’limotlar mavjudligi va “tirikligi” ham til tufayli.

Davlatimizda huquqiy islohotlar o‘tkazilayotgan hozirgi sharoitda qonunlar tili va uslubi, huquq terminologiyasi muammolari hamda zamонавиј yuristning nutq madaniyatni masalalari muhim

ahamiyatga ega. Har qanday islohotlar qonunlarni o‘zgartirmasdan amalga oshirilmaydi, bu esa o‘z-o‘zidan, yangi-yangi til birliklari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) rivoj topishi uchun zamin hozirlaydi.

**15-mashq. Quyidagi so‘zlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga asosan keltirilgan. Mazkur so‘zlarni “Yuridik ensiklopediya”dagi izohi bilan qiyoslang va har ikkala izohni daftaringizga ko‘chiring.**

**Adliya** – sudlov muassasalari tizimi, sud idoralari faoliyati.

**Appelatsiya** – 1) biron-bir qaror, fikr, olingan natija yuzasidan yuqori tashkilot yoki idoraga shikoyat arizasi bilan murojaat etish; 2) sud hukmi yuzasidan norozilik bildirilib, uning mohiyatiga ko‘ra qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan yuqori sudga shikoyat qilish shakllaridan biri; 3) maslahat berish, qo‘llash uchun murojaat.

**Ratifikatsiya** – xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning oliv davlat hokimiyati organi tomonidan tasdiqlanishi.

**13-topshiriq. “Til va nutq – yuristning tafakkur yuritish quroli” mavzusida erkin insho yozing.**



## **9-mavzu. YURIDIK TIL – O‘ZBEK ADABIY TILINING TARKIBIY QISMI**

**14-topshiriq. Milliy til, adabiy til va yuridik til tushunchalarning o‘zaro farqlari bo‘yicha bahs yuriting.**



Yuridik til adabiy tilning tarkibiy qismi, o‘ziga xos ko‘rinishga ega til bo‘lib, asosan, qonunchilik va rasmiy doirada qo‘llanadi. Ya’ni yuridik til o‘ziga xos lug‘aviy birliklari, gap qurilishi, uslubiy jihatlari va huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi atamalari bilan ajralib turadi. Barcha huquq manbalari yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida o‘z in’ikosini topadi. Yuridik til har xil beo‘rin qaytariqlar, so‘z takrorlari, tushunilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko‘chma ma’noli so‘zlardan xoli bo‘lishi lozim.

Taniqli huquqshunos olim professor A.X. Saidova’kidlaganidek, “Yuridik til – ko‘p ming yillik taraqqiyot va ko‘p avlodlar tajribasi mahsuli”<sup>1</sup>. Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o‘zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo‘limgan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir”<sup>2</sup>.

Yuridik til o‘z mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga, ya’ni **qonun tili, ilmiy yurisprudensiya tili, sud tili, huquqshunos-pedagog tili, huquqshunos-publisist tili, prokuror tili, advokat tili** kabi guruhlarga bo‘linadi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. – T.: Adolat, 1994. – B.5.

<sup>2</sup> Saidov A., Yuridik til xususiyatlari. // Qonun va til. –1997. – 64.

<sup>3</sup> Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. – T.:Adolat, 1994.



Yurisprudensiya tarmoqlariga oid leksik-grammatik xususiyatlar umumiyligi bilan bir-biriga yaqin tursada, lekin o‘ziga xos xususiyliklarga ham ega. Masalan, fuqarolik huquqida qo‘llaniladigan (taraf, taraflarning tortishuvi, da’vo qo‘zg‘atish, hal qiluv qarori, da’voni ta’minalash) atamalar jinoyat huquqida qo‘llaniluvchi atamalar (firibgarlik, genotsid, nomusga tegish, terrorizm)dan tubdan farq qiladi.

Badiiy uslub va so‘zlashuv uslubida badiiy obrazli so‘z, tasviriy vosita, frazeologik birliklar keng qo‘llanilsa-da, biroq yuridik til rasmiy xususiyatga ega bo‘lganligi uchun unda bunday til vositalarini qo‘llashga ehtiyoj tug‘ilmaydi. Chunki yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy uslubga egaligidir. Qat’iylik, mantiqiylik, qisqalik, aniqlik kabi xususiyatlar yuridik til nufuzini belgilovchi me’yorlar.

Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo‘lgan qonun tili gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan, talablarga javob beradigan bo‘lishi shart.

Ma’lumki, qonun – jamiyatni tartibga solib turuvchi vosita, u inson manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladi. Qonun mazmuni, mohiyati, sifati, nufuzi til qoidalariga qanchalik rioya etilishiga ham bog‘liq. Adabiy til me’yorlariga to‘liq javob bermaydigan qonun mazmunan va mantiqan tushunarsiz. Shuning uchun qonun ustuvorligi uning adabiy til me’yorlari asosida tuzilishi bilan belgilanadi. Qonun tili davlatning rasmiy yuridik tili

bo‘lib, davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi muomala va muloqot vositasidir.

Qonun faqat yuristlar yoki huquq sohasidagi mutaxassislar uchun qabul qilinmaydi, balki u davlatning barcha fuqarolari uchun tegishli. Shu bois qabul qilinayotgan qonunlar tuzilishi imkon qadar sodda, g‘alizlik va noaniqliklardan xoli bo‘lishi lozim.

Qonun mantiqan izchil bo‘lmas ekan, uning amaliyotga tatbiq etilishi ham qiyin kechadi. Ular mantiqan izchil bo‘lishi uchun adabiy til me’yorlari asosida tuzilishi shart. Biz har kuni qonun qabul qilmaymiz. Sifatli ishlangan va tayyorlangan qonunlar parlament tasdig‘idan o‘tgach, bir necha yillarga xizmat qiladi. Qonunning ustuvorlik darajasi ham uning sifatidadir. Sifat esa yuridik tilga qat’iy rioya qilish mahsulidir.

**16-mashq. Quyida berilgan atamalarni daftaringizga ko‘chiring va ularga berilgan izohlarning adabiy til me’yorlariga muvofiqligini tahlil qiling.**

**Ayblov** – jinoyat protsessida vakolatlari organlar va shaxslarning jinoi javobgarlikka tortilgan shaxs aybdorligini isbotlashdan iborat faoliyati.

**Alibi** – ayblanuvchi yoki aybdor deb gumon qilingan shaxsning jinoyat sodir etilgan paytda boshqa joyda bo‘lish holati.

**Afv** – jazodan ozod qilishning bir turi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan afv etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga berilgan.

**Da’vo** – buzilgan yoki cheklangan huquqni yoxud qonun tomonidan muhofaza qilinadigan manfaatni sud orqali himoya qilish vositasi.



**Xabeas korpus** – erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini konstitutsiyaviy kafolatlovchi institut.

**Ultimatum** – bir mamlakat hukumatining boshqa mamlakat hukumatiga qo‘yadigan qat’iy, hech qanday bahs va e’tirozlarga yo‘l qo‘ymaydigan talabi.

**Fraksiya** – 1) muayyan siyosiy partiya qarashlarini parlamentda ifoda etuvchi, mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruvda, jamoat tashkilotlarida o‘z organlariga ega bo‘lgan ayni partiya a’zolaridan iborat tashkiliy guruh; 2) o‘z platformasiga ega bo‘lgan siyosiy partianing alohida qismi.

## II BO‘LIM

### IMLOVIY ME’YORLAR

#### **10-mavzu. O‘ZBEK ORFOGRAFIYASINING ASOSIY QOIDALARI**

**1-topshiriq. Har bir o‘z yozuviga ega xalq uchun imlo qoidalari ishlab chiqilishi zarurligi borasida o‘z fikrlaringizni bayon qiling.**



O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘zbek tilining tovushlar tizimi, ohangdorligi va jilosini to‘la ifodalay oladigan yozuv (alifbo)ga o‘tish zaruriyati tug‘ildi.

1993-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va 1 tutuq belgisidan iborat edi. Yangi alifbodagi ba’zi harflar jahon aloqa-aratashuv (kommunikatsiya) tizimiga kirish uchun ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkinligi hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Qarorga binoan lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi 26 harf va 3 ta harfiy birikmadan iborat. Yangi alifbo asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlanib, unda harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo‘sishchalar imlosi, qo‘shib yozish, chiziqcha

bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko‘chirish qoidalari o‘z ifodasini topgan.

Bu imlo qoidalari 1956-yil 4-apreldagi “O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari”dan tubdan farq qiladi. Jumladan, tovush – harf munosabatiga bag‘ishlangan qism qayta yozilgan, morfologik tamoyilga asoslanish nisbatan ortgan: -gin, -gina qo‘shimchalari uch xil yozilishi qoidalashtirilgan; juft so‘z qismlari orasida -u

(-yu) bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladigan bo‘lgan; tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi(-inchii) qo‘shimchasi o‘rniga chiziqcha (- ) qo‘yilishi yil va oylarni ko‘rsatuvchi arab raqamlariga ham tatbiq etilgan va boshqalar. Ikkinchchi qismi turdosh ot bo‘lgan geografik nomlar (Qoratog‘), sifat va atoqli otlardan tuzilgan geografik nomlar (Shimoliy Kavkaz) yozilishi kabi ayrim qoidalalar ancha ixchamlashgan. Parvo, obro‘, mavqe, mavzu, avzo so‘zlariga egalik qo‘shimchalari qo‘shilishidagi holat alohida izohlangan; men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo‘shimchalari qo‘shilganda qo‘shimchadagi **n** tovushi aytimasligi va yozilmasligi aniq qilib tushuntirilgan.

**“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” quyidagi bo‘limlardan tashkil topgan:**

- *harflar imlosi (unlilar va undoshlar);*
- *asos va qo‘shimchalar imlosi;*
- *qo‘shib yozish;*
- *chiziqcha bilan yozish;*
- *ajratib yozish;*
- *bosh harflar imlosi;*
- *ko‘chirish qoidalari.*

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi” 26 harf, 3 ta harfiy birikma va tutuq belgisidan iborat.



**1-mashq** Quyidagi so‘zlarni ustunlarga mos holda ajratib yozing.

Jabrlanuvchi, xavf, aybdor, mazkur, aliment, afv, hukm, daromad, daxldor, dastlabki, izquvar, ijtimoiy, adl, akkreditatsiya, protest, retsidivist, sud, tartib, kodeks, protsess, qism, daxlsizlik, kassatsiya, appellatsiya, bojxona, kongress, qarzdor, ajrim, ozodlik, mansabdor, muassasa, talabgor, mol-mulk, parlament, yarog‘-aslaha.

Talaffuzda unli tovush ortadigan so‘zlar	Talaffuzda undosh tovush tushadigan so‘zlar	Jarangli undosh jarangsiz talaffuz qilinadigan so‘zlar
Jabrlanuvchi	Xavf	Mazkur

**2-mashq.** Birinchi bo‘g‘ini o‘, ikkinchi bo‘g‘ini i ishtirok etgan so‘zlar topib, ular yordamida bir nechta gap tuzing.



### UNLILAR IMLOSI

Yangi alifbomizda 6 ta unli harf bo‘lib, ular ba’zi so‘zlarda aynan, ba’zan o‘zgargan holda talaffuz qilinadi, lekin doim o‘sha unlining o‘zi yoziladi.

1. *A a* harfi aka, alanga, aloqa kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalaydi savol, zamon, bahor kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida o aytilsa ham, har vaqt a yoziladi.

2. *O o* harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so‘zlarda a singari talaffuz qilinadi, biroq hamisha o yoziladi: kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist va h.k.

Shuningdek, o ba’zan o ‘kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir o yozilaveradi: tonna, noyabr, boks, tort va h.k.

**3.** *I i* harfi *bilim, bilim, til, tilak, har xil, qism* kabi so‘zlarda qisqa aytildi va *i* yoziladi, *badiiy, omma-viy, Lutfiy singari* so‘zlarda *i cho‘ziq* aytildi, lekin doimo *iy* yoziladi.

**4.** *U u* harfi *yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun* kabi so‘zlarda *i* tovushiga monand talaffuz qilinsada, qoidaga binoan *u* yoziladi.

**5.** *O‘ o‘* harfi *o‘zbek, o‘lka, o‘simplik* kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

**6.** *E e* harfi *e’lon, ehtirom, fe’l, bermoq, meros, mone, tole, kofe* kabi so‘zlarda old qator, o‘rta-keng, unli tovushni ifodalash uchun yoziladi:

**7.** *Milliard, material, million, radio, ukrain, doim, shoir, teatr, okean* singari so‘zlar talaffuzida unlilar orasida y undoshi qo‘shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi. *Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muammo, aorta, inshoot* kabi yonma-yon kelgan unlilar aynan aytildi va yoziladi.

**3-mashq. Quyidagi so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring va yozilishini bilib oling.**

Butun, bujur, buzuvchi, guruch, guruh, durust, zuhur, kunjut, kunkun, kunduz, nufuz, suruv, tutun, tuturiq, tushuncha, tumshuq, uzum, umum, uchun, tuzum, chumchuq, quduq, g‘urur, g‘ulu, huzur, hukumat, xushnud.

**4-mashq. Yuridik amaliyotda uchraydigan so‘zlar imlosiga e’tibor bering. Unli tovushlar talaffuzi va imlosidagi farqlarni tushuntiring. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

Advokat, notarius, prokuror, surishtiruv, qutulish, direktor, muhim, muomala, munosabat, kodeks, protsessual, jinoyat, huquq, shug‘ullanish, fuqaro, retsidivist, taqozo, javobgarlik, talafot, kafolat, sug‘urta, undirish.



## UNDOSHLAR IMLOSI

1. B tovushi *borib, javob, hisob, bob, xitob* kabi so‘zlarda *p, qibla, tobla* so‘zlarida v tarzida aytilsa ham, *b* yoziladi.
2. *Avtomat, avtobus, avtomobil* kabi so‘zlarda v tovushi *f* tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo v yoziladi.
3. *Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl* singari so‘zlarda *f* tovushi *p* kabi aytildi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim *f* yoziladi.
4. *Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot* kabi so‘zlarda *d* tovushi *t* tarzida aytilsa-da, har vaqt *d* yoziladi.
5. *Iztirob, tuzsiz, bo‘zchi* so‘zlarida *z* tovushi *s* kabi aytildi, biroq hamisha asliga mos ravishda *z* yoziladi.
6. *Jj* harfi *jon, jahon, juma, g‘ijjak, vaj* so‘zlarida til oldi, jarangli, portlovchi *j, jurnal, ajdar, garaj, tiraj* so‘zlarida esa til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi *j [dj]* undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.
7. *Sh sh* harfi *shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh* kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, sirg‘aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. *Sh* harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo‘yiladi: *Is ‘hq, as ‘hob* kabi.
8. *Ch ch* harfi *chumoli, choy, achchiq, soch* kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.
9. *R r* harfi *rahmat, rahm, diyor; L l* harfi *lola, bol, olmoq; N n* harfi *non, ona, osmon; G g* harfi *gul, ega, eg; Kk* harfi *kam, ikki, tok; Y y* harfi *yetti, yuz, dunyo, toy; Ng ng* harfi *ko‘ngil, tong, ong; Q q* harfi



*qizil, oq, aql; G‘ g‘ harfi g‘oz, og‘a, tog‘; X x harfi xalq, axborot, baxt; H h harfi hamma, hosil, ehson, isloh* kabi so‘zlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. *Farzand, band, poyezd* so‘zlaridagi *d* undoshi, *go‘sht, past, artist* so‘zlaridagi *t* undoshi talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda doimo ifodalanadi.

11. *Shuningdek, metall, kilovatt, kongress* kabi so‘zlar oxiridagi *qo‘sht* undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. *Tutuq belgisi a‘lo, ta‘lim, e‘lon, she‘r, fe‘l* kabi so‘zlarda unlidan keyin kelib, uning cho‘ziqroq aytishini ta‘minlaydi.

13. *Mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar* kabi so‘zlarda *o‘* unlisi cho‘ziqroq aytildi, lekin tutuq belgisi *qo‘yilmaydi*.

14. *San‘at, in‘om, mas‘ul* kabi so‘zlarda tutuq belgisi unlidan oldin *qo‘yilib*, uning undosh tovushdan ajratib aytishini ta‘minlaydi.

**5-mashq So‘zlarni o‘qing. Undosh harflar talaffuzi va yozilishiga diqqat qiling. Mazkur so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

Ombudsman, javob, ta’sis, xitob, mulk, huquq, hukm, ajrim, noyob, qaror, tub, ozod, yod, mablag‘, xohlamоq, xohish, tergov, maslahatxona, jumboq, namuna, tuzoq, nomzod, tatbiq, tadqiq, tajriba, ruxsat, jurnal, surishtiruv, zaxira, salomat, da’vo, sergak, tavoze, tahsil, tarozi, voqeа, veksel, zarar, undirmоq, zarur, javobgarlik, mahrumlik, tasarruf, favqulodda.

**6-mashq. Qo‘sh va qator undoshlar yozilishiga e’tibor qiling va berilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.**

Samarqand, baland, do'st, go'sht, to'rt, artist, poyezd, kilogramm, gripp, metall, kilovatt, progress, protsess, kongress, xursand, tuzsiz, ketdi, taxt, appellatsiya, million, milliard, artilleriya, kazzob, jiddiy, marra, chinni, zukko, katta, jannat.

**7-mashq. Nuqtalar o'rniga s yoki ts harflaridan mosini qo'shib, ko'chirib yozing.**

Kon...ep...iya, avia...iya, fran...uz, kollek...iya, konstitu...iya, asso...ia...iya, shpri..., kon...ern, publi...istika, ...ement, Shve...iya, ...elluloza, li...ey, s...enariy, farma...evtika, ...irk, de...imetr, korpora...iya, ...ilindr, Shvey...ariya, federa...iya, gidrostan...iya, kan...ler, moderniza...iya, poten...ial, punktua...iya, so...iologiya, ...itrus, kvitan...iya.

**2-topshiriq. Yuridik matnlarda uchraydigan yonma-yon kelgan unlilar imlosiga mos keluvchi so'zlar qatorini davom ettiring. Mazkur so'zlar ma'nosini "O'zbek tilining izohli lug'ati" yoki "Yuridik atamalar lug'ati"dan bilib oling.**

Namuna: *manfaat, muomala, maishiy, suiste'mol, fofja, tibbiy...*

*Manfaat* – moddiy yoki ma'naviy, jismoniy yoki ruhiy foyda, naf. (O'TIL)

## 11-mavzu. BOSH HARFLAR VA QISQARTMALAR IMLOSI

**3-topshiriq.** Matnning istalgan joyida bosh harf bilan yoziluvchi so‘zlarga misollar aytинг. Bosh harf bilan yozilish sabablarini izohlashga harakat qiling.



1. Kishilar ismi, otasining ismi, familiyasi, taxalusi bosh harf bilan yoziladi: *Sobirov Zokirjon Shukurjonovich, Abdurauf Fitrat* kabi.
2. Mamlakat, shahar, qishloq, shaharcha, daryo, dengiz, tog‘, tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: *Hindiston, Muborak, Urgut, Tentaksoy, Qo‘ng‘irtog‘, Qashqadaryo, Qora dengiz* va hokazo.
3. Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san‘at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari nomlari bosh harf bilan yoziladi: “*Malika*” firmasi, “*Sharq*” nashriyot-matbaa konserni, “*O‘zqishloqxo ‘jmashxolding*” kompaniyasi, “*Damas*” avtomobili, Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, *Qizilqum fosforit kombinati*, “*Amudaryo*” jurnali, “*Shaytanat*” asari va hokazo.
4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi: *Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, Xotira kuni*.
5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi bosh harf bilan yoziladi: *O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi, Yevropa Ittifoqi Kengashi* kabi.
6. *Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi* kabi tashkilotlar nominining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.



7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so‘zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi: “*O‘zbekiston Qahramoni*” unvoni, “*Oltin Yulduz*” medali.

Shuningdek, “*Sog‘lom avlod uchun*” ordeni, “*Shuhrat*” medali singari mukofotlarning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: *Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariga xizmat qilsagina, u qadrlidir.* (A. Oripov)

9. Qisqartma otlar tarkibidagi har bir harf bosh harf bilan yoziladi: *BMT, JPK, TDYU.* Shuningdek, qisqartma tarkibidagi bo‘g‘inga teng qismning birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi: *O‘zLiDeP, O‘zMU.*

#### **8-mashq. Bosh harflarning ishlatalish sabablarini tushuntirib bering.**

Alisher Navoiy, Mashrab, Xadicha Sulaymonova, Abdullayev; Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Mirzacho‘l, Sirdaryo, Norin, Baxmalsoy; Nurato, Bobotog‘, Pomir; Markaziy Osiyo, G‘arbiy Evropa, Janubiy Koreya; Mars, Merkuriy, Yer; “Umid” jamg‘armasi, “Malibu” avtomobili, “Malika” ishlab chiqarish birlashmasi; “O‘zbekiston Respublikasi Xalq maorifi a’lochisi” ko‘krak nishoni, “Sog‘lom avlod uchun” orden, Mustaqillik bayrami; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, “O‘zdonmahsulot”, BMT, DXX.

#### **9-mashq. Gaplarni o‘qing. Bosh harflar imlosi xato berilgan so‘zlarni toping va ularni tuzatib, gaplarni ko‘chiring.**

Prezident O‘zbekiston respublikasi Oliy majlisi yig‘ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi. (O‘z K) 2. O‘zbekiston respublikasi prezidenti egallab

turgan vazirlar mahkamasi raisi lavozimi tugatildi. 3. Bugungi kunda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik shartnomasi imzolandı.

4. Rossiya federatsiyasi davlat dumasi ma'muriy kodeksning jamoat joylarida sodir etilgan tartibbuzarlik uchun javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi ba'zi moddalariga tuzatishlar kiritdi.

5. Advokatlik faoliyatining huquqiy asoslari va kafolatlari O'zbekiston respublikasining "advokatura to'g'risida"gi, "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi qonunlarida mustahkamlangan. 6. Yuqori yuz mahalla ahlinig da'vo arizasi quyi Chirchiq tumanlararo sudida ko'rib chiqildi. 7. Jinoiy jazo turlari jinoyat kodeksining 43-moddasida ko'rsatib o'tilgan. 8. Kecha milliy tiklanish partiyasi nomzodi saylovchilarga o'zining saylovoldi dasturini o'qib eshittirdi.

**10-mashq. Bosh harflar imlosiga hamda qisqartma otlar yozilishiga e'tiboringizni qarating. Qisqartma otlarni kengaytirib yozing.**

BMT, MDH, SHHT, IIV, TIV, JK, JPK, FK, FPK, AQSH, TDYU, ToshFarmI.

**4-topshiriq. Markaziy Osiyo hududida joylashgan tog', ko'l va daryo nomlarini yozing. Ularning bosh harf bilan yozilish o'rinalarini izohlang.**

## 12-mavzu. ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI

**5-topshiriq.** Quyidagi fe’llardan qo‘shimchalar yordamida ot yoki sifat yasang va so‘z o‘zagidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib bering.

So‘ra, sovi, to‘xta, buyur, aybla, o‘qi, qama, yumsha, tin, to‘qi.



1. *a* unlisi bilan tugagan fe’llarga -v, -q, -qi qo‘shimchalari qo‘shilganda *a* unlisi *o* aytildi va shunday yoziladi: sayla – saylov, qayna – qaynoq, sayra – sayroqi.

Shuningdek, *o‘qi* – *o‘quvchi*, *sovi* – *sovuj*, *to‘qi* – *to‘quvchi* so‘zlarida *i* unlisi *u* ga aylanadi.

2. *K* *k* harfi bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilsa, ular *g* va *g’* tovushiga aylanadi: *yurak* – *yuragi*, *bilak* – *bilagim*, *tilak* – *tilagim*; *buloq* – *bulog‘im*, *quloq* – *qulog‘ing*, *qishloq* – *qishlog‘i* kabi. *Erk*, *ishtirok*, *huquq*, *ravnaq* singari so‘zlarda bunday holat kuzatilmaydi.

3. *Singil*, *o‘rin*, *ko‘ngil*, *og‘il*, *shahar* kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi, *qayir*, *ayir* so‘zlariga nisbat yasovchi qo‘shimcha, *ikki*, *olti*, *yetti* so‘zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo‘shimcha qo‘shilsa, asosda tovush tushishi hodisasi ro‘y beradi.

4. *U*, *shu*, *o‘sha* kabi olmoshlarga -da, -dan, -day, -dagi, -dosh, -cha qo‘shimchalari qo‘shilsa, bitta n orttiriladi, aksincha, *men*, *sen* olmoshlariga -ni va -ning qo‘shimchalari qo‘shilsa, bitta n tushirib qoldiriladi: *bunda*, *shundan*, *o‘shancha*, *meni*, *sening* kabi.



5. *Parvo, obro* ', *mavqe* so‘zlariga egalik qo‘shimchalari (I va II shaxsda) qo‘shilsa, bitta y tovushi ortiriladi va shunday yoziladi: *parvoying, obro‘yim, mavqeyim* kabi.

6. -*boz*, -*bon* qo‘shimchalari -*voz*, -*von* kabi aytilda-da, doimo asl shakli bo‘yicha yoziladi: *dorboz, bog‘bon* kabi.

7. -*dir* nisbat yasovchi qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shiladi: *yondir, bordir, quvdir* kabi (kel so‘zi bundan mustasno), qolgan o‘rinlarda -*tir* shaklida aytildi va shunday yoziladi: *ektir, quyultir, kestir* kabi.

8. -*ga*, -*gacha*, -*gach*, -*guncha*, -*gani*, -*gudek*, -*gan*, -*gin*, -*gina* qo‘shimchalari uch xil aytildi va yoziladi *ertaga, ertagacha, borgach, borguncha, borgudek, borgan; eshikka, eshikkacha, chiqqach, chiqquncha, chiqqani* kabi.

*Eslatma:* *bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha* so‘zlari bunga kirmaydi.

**11-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi tovush o‘zgarishlari qanday qo‘shimchalar ta’sirida sodir bo‘lganini izohlang.**

1. **So‘roq** qilinuvchi shaxsi aniqlangandan keyin uning huquq va majburiyatli tushuntiriladi. 2. Olib qo‘yish yoki **tintuv** o‘tkazishda xolislar zarurat bo‘lsa, mutaxassis va tarjimon ham ishtirok etadi. 3. Shaxs **obro‘yi** va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar sodir etish taqiqlanadi. 4. Aybini **bo‘yniga** olish to‘g‘risidagi arz **og‘zaki** yoki yozma bo‘lishi mumkin. 5. **So‘roqqa** o‘z advokati bilan hozir bo‘lgan guvoh yoki jabrlanuvchini **so‘roq** qilish advokat ishtirokida amalga oshiriladi. 6. **Bunday** hollarda agar ijara muddati shartnomada belgilangan bo‘lmasa, shartnomaga bekor bo‘ladi. 7. Tashna yashadik biz **erkka, huquqqa**. 8. **Mening**

orzum – huquqiy demokratik davlatimizni yuksaltirishga munosib hissa qo'shish.

**6-topshiriq.** Mazkur jadvalda berilgan tovush o'zgarishlarini tahlil qiling. Bu o'zgarishlarni og'zaki nutqda uchraydigan, adabiy me'yor sanalmaydigan holatlar bilan qiyoslang.

Qo'shimchalar		Misollar	Tovush o'zgarishi
Turi	Shakli		
So'z yasovchi	-la, -a	<i>ong+la=angla,</i> <i>son+a=sana</i>	a>o tovushiga o'zgaradi
	-q, -uq	a) <i>qiyna+q=qiynoq,</i> <i>yumsha+q=yumshoq;</i> b) <i>buyur+uq=buyruq</i>	a) a>o tovushiga o'zgaradi; b) u tushadi
	-v	<i>maqta+v=maqtov,</i> <i>sayla+v=saylov</i>	a>o tovushiga o'zgaradi
	-ki (-qi)	a) <i>shart(a)+ki=</i> <i>shartaki;</i> b) <i>sayra+qi=sayroqi</i>	a) a ortadi; b) a>o tovushiga o'zgaradi
	-ay	<i>Past+ay=pasay,</i> <i>sust+ay=susay</i>	t tushadi
Shakl yasovchi	-(i)m, -(i)ng, -i, -(i)miz, -(i)ngiz egalik qo'shimchala ri	a) <i>burun+i=burni,</i> <i>o'r'in+ing=o'rning,</i> <i>singil+imiz=singlimiz;</i> b) <i>bilak+i=bilagi,</i> <i>soliq+ing=solig'ing;</i>	a) i va u tushadi; b) k>g, q>g tovushiga o'zgaradi; d) y ortadi

		<i>d) parvo+im=</i> <i>parvoyim, mavqe+ing=</i> <i>mavqeying</i>	
-ov, -ala		<i>olti+ov=oltov,</i> <i>ikki+ala=ikkala,</i> <i>yetti+ovlon=yettovlon</i>	<i>i tushadi</i>

**12-mashq** So‘zlarni o‘qing. Qo‘sishimcha qo‘shilishi natijasida asosda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni belgilang. Tovush o‘zgarishlarining turi bo‘yicha so‘zlarni guruhlab ko‘chiring.

Tergov, buyruq, angla, sanoqsiz, yashovchan, pasaymoq, susaymoq, dumaloq, qaynoq, so‘roqsiz, o‘rnatmoq, qulog‘i, burni, tomog‘i, bilagi, shahrimiz, singlisi, mening, undan, bunda, eshikka, bog‘ga, boqquncha, so‘roqqa, chohga, saylov, ayblov, sovuq, issiq, mavqeyi, huquqqa, mustaqilligimiz, qamoq, jazosi.

## 13-mavzu. KO‘CHIRISH QOIDALARI

**7-topshiriq.** *Abadiyat, abstraksiya, adliya, aeroflot, alanga, banknot, bil’aks, dasturulamal, demokratiya, ekspert, erksevar, fotograf, geografiya, huquq, idora, ijroiya, jangovar so‘zlarini bo‘g‘inga ajratting. Bo‘g‘inga ajratish va bo‘g‘in ko‘chirishning o‘zaro farqli jihatlari borasida bahs yuriting.*



Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi. Mazkur qoidalar majmui ko‘chirish qoidalari deyiladi. Masalan: *mak-tab, ba-hor* kabi.

**8-topshiriq.** Jadvalda berilgan bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari tahlil qiling va mazkur qoidalarga mos misollar toping.

Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari		Misollar
1.	So‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi.	A-badiy emas, <i>aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan</i>
2.	So‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrda ko‘chirilmaydi.	Mudofa-a emas, <i>mudofaa, matba-a emas, mat-baa</i>
3.	Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi.	Va’-da, ma’-rifat, mash’-al, in’-om
4.	Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chiriladi.	Pe-shona, mai-shat, pi-choq, si-ngil, de-ngiz
5.	Bosh harfdan yoki bo‘g‘inga teng qism va boshqa harflardan iborat qisqartma, shuningdek, ko‘p xonali	AQSH, BMT, O‘zLiDeP, 16, 245, 1994, XIX

	raqam satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi.	
6.	Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi.	5-“A” sinf, 110-guruh, 15 ga, 10 t, 25 sm, 90 mm
7.	Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqamlar atoqli otdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi.	“Nihol – 2012”, “Tashabbus – 98”, “Boing – 767”
8.	Ism va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan va taxallus so‘zlari esa bir-biridan ajratib ko‘chirilmaydi.	I.A. Karimov, G.Saidova, Alisher Navoiy, Rauf Parfi
9.	Harfiy qisqartmalar oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.	V. b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar)
10.	Asosan o‘zlashma so‘zlarda ikki undosh qator kelsa, ular keyingi satrga bирgalikda ko‘chiriladi, uchta bo‘lsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldiriladi.	Dia-gramma, monografiya, silin-drik

**13-mashq. Berilgan gaplardagi so‘zlarni bo‘g‘inga ajratib ko‘chiring, bunda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga ahamiyat bering.**

1. Toshkent yuridik kolleji 2-kurs talabasi Alisher Aliyevni shaxsiy a’zolikdan o‘chirishingizni so‘raymiz. 2. A. Aliyev o‘qishni bitirgan taqdirda hisob bo‘limiga kutubxona ma’lumotnomasini topshirmagani unga shahodatnomha bermaslik uchun kafolat beradi. 3. Yerdan foydalanuvchilar manfaatlari va mas’uliyatlarini uyg‘unlashtirish, ularni amalga oshirishning samarali

mekanizmlarini topish va amaliyotga tatbiq qilish muhim vazifa hisoblanadi.

**14-mashq. Quyidagi so‘zlarni ko‘chirish qoidalariga muvofiq ajratib yozing.**

Kinostudiya, kodeks, kompleks, krossvord, kriminalist, ko‘ngil, leytenant, majmua, mehr-oqibat, melodrama, mikroskop, militsioner, muomala, mutafakkir, obuna, osoyishta, ocherk, radioshettirish, siferblat, taajjub, tog‘olcha, ustuvor, voqeа, xushovoz, o‘zboshimchalik, o‘zaro.

**15-mashq. Ko‘chirish qoidalariga zid ravishda qismlarga ajratilgan so‘zlarni belgilang va ularni to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chirib oling.**

Ayb-dor, den-giz, ta-a-lluq-li, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, oi-la, O‘z-MU, ko‘n-gil, tran-sport, mesh-chan, sa-o-dat, ma-’lu-mot, B-MT, Er-on, kont-ra-ban-da, hu-km, mu-do-fa-a, ij-ro-iy, su-iis-te`-mol, ta-so-dif-an, o‘q-o-tar, mo-li-ya, san-ksi-ya, ma-osh, mu-ro-jaat, ta-bi-iy, tib-biy, u-kam, ton-ggi, sa-noq-li, iz-qu-var, a-lo-mat-lar, kong-ress, ba-hs.

## 14-mavzu. QO‘SHIB YOZISH, AJRATIB YOZISH VA CHIZIQCHA BILAN YOZISH QOIDALARI

**9-topshiriq.** Uch guruhga bo‘lingan holda birinchi guruh qo‘shib yoziladigan so‘zlarga, ikkinchi guruh ajratib yoziladigan so‘zlarga va uchinchi guruh chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlarga misollar toping. Bu so‘zlarning o‘zaro farqlarini muhokama qiling.



### QO‘SHIB YOZISH

1. *Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo‘ymijoz, maymunsifat, kamhosil, umum davlat, bug‘doyrang* va h.k.
2. *-r, -ar, -mas* qo‘shimchasi bilan yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, ertapishar, ishyoqmas* kabi.
3. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo‘shma otlar va sifatlar qo‘shib yoziladi: *toshbaqa, oybolta, qo‘yko‘z, otquloq* singari.
4. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo‘ljallanganligi kabi ma’nolarni bildiruvchi qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *ko‘ksulton, oqbosh, achchiqtosh, ko‘zoynak, suvilon* kabi.
5. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki *obod* so‘zi bilan yasalgan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Oqtepa, Uchqo‘rg‘on, Davlatobod, Xo‘jaobod* singari, lekin *Markaziy Osiyo, Ko‘hna Urganch, G‘arbiy Yevropa*



kabi ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi.

6. Ruscha, baynalmilal yoki tarjima qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *telestudiya, radio-to‘lqin, etektrarra* kabi.

7. Qisqartma so‘zlar har doim qo‘shib yoziladi: O‘zMU, ToshDTU.

### AJRATIB YOZISH

1. Qo‘shma fe’l, shuningdek, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari doimo ajratib yoziladi: *kirib chiqdi, olib keldi, oshkor etdi, aytib qo‘ya qoldi, o‘qib chiqdi* kabi.

2. *Har, kech, bir, u, shu, o’sha, hamma* kabi so‘zlar o‘zi birikib kelgan so‘zdan ajratib yoziladi: *har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o’sha joyda, hamma vaqt* kabi.

3. Ko‘makchilar o‘zi bog‘langan so‘zdan ajratib yoziladi: *Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon*.

*Eslatma:* *bilan va uchun* ko‘makchilarining qisqargan -la va -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: *onam-la, sen-chun* singari.

4. Sifatning orttirma darajasini yasovchi *to‘q, och, tim, tang, jiqlqa* kabi so‘zlar ajratib yoziladi: *tim qora, och ko‘k, to‘q sariq* kabi.

5. Qo‘shma sonlar ajratib yoziladi: *o’n to‘qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi* va hokazo.

6. *Yildan yilga, kundan kunga* kabi ko‘rinishdagi birliklar ham ajratib yoziladi.

7. *Nuqtayi nazar, tarjimayi hol, dardi bedavo* kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

**16-mashq Quyidagi so‘zlarning qo‘shib yoki ajratib yozilish sababini izohlang.**

*Adolatparvar, izquvar, haqtalab, huquqbuzar, kamchiqim, xalqaro, bayonnomma, maslahatxona, umumxalq, ommabop, fotoapparat, Shimoliy Amerika, Markaziy Osiyo, Yangiyo'l, g‘ayriqonuniy, umume'tirof, ishonchnoma, ilova qilmoq, ishtirok etuvchi, o'n sakkiz, tinchliksevar, oshpichoq, yarimavtomat, bayromoldi, radiosignal, tasdiq etmoq, rad qilmoq, o'qib bermoq, sud hukmi, bir muddat, qonun bilan, nuqtayi nazar.*

**17-mashq. Konstitutsiya matnidan *har, hech, bir, hamma, shu* so‘zlari ishtirokidagi gaplarni ko‘chiring.** Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa bo‘lishsizlik olmoshlarining yozilishiga va bu so‘zlar ishtirok etgan gaplar kesimiga diqqat qiling.

**18-mashq. So‘zlarni qo‘shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhgaga bo‘lib ko‘chiring.**

Taqdim//noma, o‘rin//bosar, bayon//etmoq, hal//qilmoq, ko‘z//oynak, sotib//olmoq, qirra//burun, alla//qachon, shu//yer, baland//parvoz, xalq//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so‘z, jigar//rang, g‘ayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qo‘rg‘on, sotib//oldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanolov, kino//tasma, so‘z//boshi, g‘ayri//odatiy, jazo//chorasi, boj//xona, huquq//buzarlik.



### **CHIZIQCHA BILAN YOZISH**

1. Juft yoki takror so‘zlar o‘rtasida chiziqcha ishlatiladi: *ota-oná, orzu-umid, kecha-kunduz, qing‘ir-qiyshiq; tog -tog’, asta-sekin* kabi.
2. Juft so‘zlar orasida *-u, -yu* yuklamalari ishlatilsa, ular birinchi so‘zdan chiziqcha bilan ajratib

yoziladi: *erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa* kabi.

3. *Qop-qora, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri* kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.

4. *Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam* singari o'rtasida -ma yoki -ba qo'shimchalari kelgan so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.

5. -mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq) yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi?, biz-a?, keldi-da, ukasi-ku* kabi.

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha ishlatiladi: *26-uy, 6-xona, 2001-yil, 8-mart*.

Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha ishlatilmaydi: *XXI asr, X bob*.

### **19-mashq. So'zlarni o'qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing, so'ng daftaringizga ko'chirib yozing.**

Mol-mulk, sud-huquq, xohish-istik, talon-taroj, bilib-bilmay, o'g'il-qiz, issiq-sovuq, kecha-kunduz, el-yurt, asta-sekin; baxt-u

saodat, ota-yu ona, qop-qora, ko'm-ko'k, rang-barang, men-a?, bor-e, bolam-ey, biz-chi?, 8-modda, 3-band.

### **20-mashq. Gaplarni o'qing, chiziqchaning ishlatilish sabablarini ayting.**

1. 1998-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Uy-joy kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. 2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida

farzandlarning ota-onalari nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi kafolatlangan. 3. Chaqiruv qog'ozи fuqaro A. Valiyevga o'z vaqtida yetkazilgan edi-ku! 4. Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'rilmoxda. 5. Qotmadan kelgan, ko'zları ma'noli

boquvchi, o‘zi yosh, biroq qop-qora quyuq soqol-mo‘ylovi ulug‘roq ko‘rsatayotgan imom – Sobitxon qori nomi bilan shaharda e’tibor qozongan edi.

(*T. Malik*) 6. Axir bu anov-manov daraxt emas, bog‘bonlarni boqib turadigan, soyasidan bahramand etadigan daraxt-a! – Soliyev shunday deb Zohidga qaradi. (*T. Malik*)

## 15-mavzu. YOZUV TAMOYILLARI

**10-topshiriq.** Sof turkiy so‘zlar va o‘zlashgan so‘zlarga o‘ntadan misol toping va quyidagi namunaga muvofiq ikki guruhga ajrating.

Aytlishi va yozilishi bir xil bo‘lgan so‘zlar	Aytlishi va yozilishi har xil bo‘lgan so‘zlar
Huquq	Konstitutsiya



### Lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuvni tamoyillari

#### Fonetik yozuv

So‘z va uning tarkibiy qismlari og‘zaki nutqqa, talaffuzga mos ravishda yozish qoidasiga amal qilinadi. Masalan, *saylov*, *tintuv*, *shunga*, *og‘zaki*, *ikkovi*, *huquqbazarligi*, *o‘rnatilgan*, *parvoyim*, *avzoyi*, *idrokka*, *huquqqa*.

#### Morfologik yozuv

So‘z va uning tarkibiy qismlari (asos va qo‘shimcha) qanday talaffuz qilinishidan qat’i nazar, asliga muvofiq yozilishi talab qilinadi. Masalan, *ishga*, *qasddan*, *surishtiruv*, *tug‘ilgan*, *rad etildi*, *qasdmasqasd*.

#### Shakliy yozuv

O‘zlashgan so‘z shakli, o‘sha til tovush va grafik belgilari saqlanadi. Masalan, *sudya*, *advokat*, *kodeks*, *ekspertiza*, *prokuror*, *ma’muriy*, *organ*.

#### Differensial yozuv

Bir so‘zning ikkinchisidan tutuq belgisi, unli yoki undosh tovushlar bilan farqlanib yozilishi Masalan,

*da'vo-davo, ta'na-tana, sud-sut, yot-yod, asir-asr,  
pretsident-prezident*

**21-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni guruhlarga ajratib,  
jadvalni to‘ldiring.**

Tintuv, me’yor, buyruqbozlik, yutug‘i, tomosha, trolleybus, bog‘ga, Toshkent, ketdi, yozibdi, qamoq, borayotgan, tergovchi, aybdor, burun, so‘roq, filologiya, monografiya, ko‘m-ko‘k, qip-qizil, eshittir, huquqqa, o‘g‘rilik, amnistiya, protsessual, hujjat, surishtiruv, jazo.

Fonetik tamoyil	Morfologik tamoyil	Shakliy tamoyil

### **III BO'LIM** **PUNKTUATSION ME'YORLAR**

---

#### **16-mavzu. O'ZBEK TILINING PUNKTUATSION ME'YORLARI**

**1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Tinish belgilarining qo'yilish o'rinalarini izohlashga harakat qiling va guruhi bilan fikr almashing.**

1. Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda, viloyatda, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaro imzosi bo'lishi talab etiladi.

(“*O'zbekiston Respublikasi Siyosiy partiyalar to 'g'risida "gi qonunning 6-moddasi*”)

2. – Zohidni bitta osh bilan qo'rqita olmaysan, – dedi Soliyev.  
– Qotilni topgan bo'lsang, qo'y so'yadi.

– Bunisi ham bo'ladi, – dedi Hamdam kaftlarini bir-biriga ishqab.

– Bugungisi bitta oshga arziyidigan gap. Zohid akangning tagi qimirlab qolganga o'xshaydi.

– Qaysi akamning? (*T. Malik*)

3. Sudda kimlar vakil bo'la olmaydi?

Sudda quyidagilarning vakil bo'lishiga ijozat etilmaydi:

- voyaga yetmagan shaxslar;
- vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar;
- sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchilar.

(*N. Ismoilov*)

4. Jamiat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyl ovoz (referendum)ga qo'yiladi. (*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*)

5. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar. (*O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*)



Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiya – tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Ular yozuvning boshqa vositalari hamda til birliklari bilan ko‘rsatish mumkin bo‘limgan turlicha fikriy munosabatlar, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda muhim. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq, u yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilish, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta’minlashda benihoya zaruriy vositadir.

**Hozirgi yozma adabiy tilda quyidagi tinish belgilari qo‘llaniladi:**

- 1) nuqta ( . );
- 2) vergul ( , );
- 3) so‘roq belgisi ( ? );
- 4) undov belgisi ( ! );
- 5) qavs ( );
- 6) ko‘p nuqta ( ... );
- 7) tire ( - );
- 8) qo‘shtirnoq ( “ ” );
- 9) ikki nuqta ( : );
- 10) nuqtali vergul ( ; ).

**2-topshiriq. Matnda ishtirok etgan tinish belgilarini tahlil qiling.**

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUT-

## SIYASINING

### 26-MODDASI

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligesiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.



#### NUQTA VA UNING QO'LLANILISHI

Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rnlarda ishlataladi.

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so'ng:

*Dunyo saodatinining kaliti bilim va tafakkurda. Inson ilm va tafakkurda qancha ilgarilasa, unga shuncha komillik eshiklari ochiladi. Shuning uchun ko'p o'qing, izlaning, tafakkur yuriting.*

2. Atov gaplardan keyin:

*Bolalik. Inson umrining eng beg'ubor onlari.*

3. Ismi, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda ularning birinchi harfidan so'ng:

*Masala "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunning 19-moddasiga muvofiq sudyalar U. Bozorov, G. Pirjanov, S. Hakimovaning tashabbusi bilan kiritildi.*

4. Nashriyot ishlarida, lug‘at va ma’lumotnomalarida shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng:

*va sh.k. (va shu kabilar), va h.k. (va hokazo); A.Qod. (Abdulla Qodiriy); T. (Toshkent); “Xalq so‘zi” gaz. (“Xalq so‘zi” gazetasi); 2018-y.*

*Qabul (a.) – taklif, iltimosga bildirilgan rozilik, ma’qullah.*

5. Ba’zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng ham nuqta qo‘yilishi kuzatiladi: 17.12.2018.

6. Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin:

*Qaror qilindi:*

1. *“Chet ellik investorlar huquqlari to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasiga sharh berilsin.*

2. *Ushbu qaror “Xalq so‘zi” va “Народное слово” gazetalarida e’lon qilinsin.*

**3-topshiriq. Huquqiy manbalardan nuqta tinish belgisi ishlatiladigan o‘rinlarga mos keluvchi misollar topib daftaringizga ko‘chiring va ularning ishlatilish sabablarini izohlang.**



### VERGUL VA UNING QO‘LLANILISHI

Vergul o‘zbek tilida quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi.

1. Uyushiq bo‘laklar orasida:

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

2.Undalma vergul bilan ajratiladi:

*Guvoҳ Sobirov, marhamat, sud zaliga kiring.*

3. Kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng:

1. *Shubhasiz, Konstitutsiya mamlakatning bosh qomusidir. 2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a‘zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy Sudi, Oliy xo‘jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin.*

4. Tasdiq, ta’kid, inkor va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi *ha*, *yo‘q*, *rahmat*, *xo‘sheets*, *qani*, *xayr*, *ofarin*, *salom* kabi so‘z-gaplardan keyin kelgan bo‘laklarni ulardan ajratish uchun:

1. *Ha, ogoh bo‘lish davr talabidir.* 2. *Xayr, men endi ortga qaytmayman.* 3. *Xo‘sheets, biz xalq uchun, el-ulus uchun nima qila oldik?*

5. Ajratilgan bo‘laklar orasida:

*Bosh huquqiy hujjatimiz, ya’ni Konstitutsiya-mizda fuqarolar, jamoat birlashmalari, siyosiy tashkilotlar o‘z faoliyatini qonunga muvofiq olib borishi belgilangan. O‘zbekistonda, jahon hamjamiyati tan olib borayotgan erkin va hur mamlakatda, iqtisodiy va ma’naviy hayot kundan kunga yuksalmoqda.*

6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga:

*Siyosiy partiyani ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko‘rib chiqiladi, ko‘rib chiqish natijalariga binoan siyosiy partiyani ro‘yxatga olish yoki ro‘yxatga olishni rad etish to‘g‘risida qaror*



*qabul qilinadi. (“O‘zbekiston Respublikasi Siyosiy partiylar to‘g‘risida”gi qonundan)*

7. Bog‘langan qo‘shma gaplarda:

*Davlat va huquq masalalarini faqat yuridik fanlar o‘rganmaydi, balki boshqa ijtimoiy fanlar ham bu borada izlanish olib boradi.*

8. Undov so‘zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so‘ng:

*Ey prokuror, ko‘zingni och! Vinzavod Asadbekning tasarrufida-ku?! Buni ko‘chadagi mishiqi bola ham biladi, sen bilmaysanmi, qishloqi? (T.Malik)*

9. Ko‘chirma gap darak, buyruq gap bo‘lsa, undan so‘ng:

*“Inson qalbi bilan hazillashmang siz”, – deb yozgan edi sevimli shoirimiz Abdulla Oripov.*

### **1-mashq. Vergulning qo‘yilish sabablarini izohlang.**

1. Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligiga ega. 2. Davlat – majbur qilish kuchiga, ya’ni hokimiyatga ega bo‘lgan o‘z fuqarolari, shuningdek, hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlar manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilotdir. 3. Demak, davlat o‘ziga xos belgilarga ega. Agar ularning birortasi mavjud bo‘lmasa, biz bunday tashkilotni davlat deya olmaymiz. 4. Xo‘sh, davlat belgilariga nimalar kiradi? 5. Hurmatli sud hay’ati, mening himoyamda bo‘lgan fuqaro Qobilov Javlon Shokirovichning o‘z qilmishidan chin dildan pushaymonligi, muqaddam sudlanmagani, oilada yolg‘iz boquvchi ekani, 3 nafar voyaga yetmagan bolasi borligini inobatga olishingizni so‘rayman. 6. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod

etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi.



## SO‘ROQ BELGISI VA UNING QO‘LLANILISHI

So‘roq belgisi quyidagi o‘rinlarda ishlataladi.

1. So‘roq gaplar oxirida:

– *Yo uyingga olib borib qo‘yaymi?*

– *O‘zim, – dedi Rahim Saidov. (O‘.Umarbekov)*

2. *Kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, qaysi?* kabi so‘roq olmoshlaridan so‘ng:

*Siz bu harakatni amalgaga oshirmaganingizni kim tasdiqlaydi? Guvohingiz bormi?*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla noaniq, tushunarsiz bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichiga qo‘yiladi:

*Ayting-chi, fuqarolik sudiga murojaat qilgan shaxsnинг davo(?) arizasi bir oy muddatda ko‘rib chiqiladimi?*

4. Ba’zan “Toping!” ma’nosida qo‘llanadi.

*65 • 5 = ? (matematikada)*

**4-topshiriq. So‘roq so‘zlari ishtirok etmaydigan va ohang yordamida so‘roq mazmuni anglashiladigan so‘roq gaplarga misollar ayting.**

**2-mashq. Matnni o‘qing. So‘roq gaplarning hosil bo‘lish usullariga e’tibor qiling. O‘zingiz ham dialog tuzing va so‘roq gaplardan foydalaning.**

- Xolidiyni taniysizmi, qanaqa olim u?
- Xolidiyimi? – deputat piching qildi. – Olim ekanmi?
- Qanaqa olim deyapman?
- Olim emas u, lo‘ttiboz.

- Qanaqa ishlar qilgan?
- O‘zbekni bosmachiga chiqargan shu-da. Ishlarini yaxshi bilmayman. O‘tgan yili mukofot olgan bitta kitobini ko‘rganman. “Turkistonda buyuk O‘ktabr g‘alabasi” deganmidi...xullas, nomi shunga o‘xshash. Ikki bet o‘qib ko‘nglim aynib ketgan.
- Shogirdlari kim? Dushmani kim?
- Dushmani men.
- Kitobini o‘qimay turib, dushmanman deysizmi?
- Uning kitobini o‘qish shartmas.
- Shogirdlari-chi?
- Institutning hammasi shogirdi.
- Institutda uni yomon ko‘radiganlar bormi?
- Kim biladi, balki bordir. Bo‘lsayam, maydaroq odamlar orasidan chiqadi. Yiriklarini taniyman, unga paxta qo‘yib yuradi hammasi. (*T. Malik*)



## UNDOV BELGISI VA UNING QO‘LLANILISHI

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi.

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng:

*Rahim Saidov xursand bo‘lib ketdi va Munisxonga qo‘silib kuldi. Shu kulgi uning xayolini olislarga olib ketdi, o‘zini o‘zga bir olamda oila olamida ko‘rdi. Shunday odam bilan birga bo‘lish qanday yaxshi!*  
(*O‘. Umarbekov*)

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma’nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida:

*Menga imkoniyat bering! O‘z xatolarimni tuzataman!*

3. So‘z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng:

*Yo Rabbiy! Bir hafta azob chekibdi-da! (“Sherlok Xolms haqida hikoyalar”dan)*

4. *Ha, yo‘q, xo‘p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so‘z-gaplar hayajon bilan aytilda, ulardan so‘ng:

– *Vey, menga qara, prokuror. Sen ishingni o‘zgartir. Sen jensovetga rais bo‘lib bor. Sening joying o‘sha yerda, ha!* (T. Malik)

5. Aytilishi lozim bo‘lgan fikr o‘ta kuchli his-hayajon bilan aytilda, ketma-ket uchta undov belgisi qo‘yiladi.

*O‘lim yovga!!! Olg‘a!!!*

**3-mashq. “Go‘ro‘g‘li” dostonidan olingan parchalardagi undov belgisining qo‘yilish sabablarini tushuntiring.**

1. Buning bilan Go‘ro‘g‘lining kuni o‘ta berdi. Go‘ro‘g‘li uch yasharida go‘rlarning ustida o‘ynab, u yoqdan chiqa, bu yoqdan chiqa, “Os！”, “Bos！” deb go‘rlarni tayoq bilan sanchib, o‘ynab yura berdi.

2. Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,

Ko‘p yilgacha uzoq yasha, o‘lماgin!

Meni desang, ketgin kelgan yo‘lingga,

Rayhon podsho ko‘rib, o‘zing o‘lماgin!

3. – Voy enam! – deb G‘irdan o‘zin tashladi.

4. Omonatga, qaynim, qilma xiyonat!

Yovmit elga boring sog‘-u salomat!

**4-mashq. Matnni o‘qing. Undov va so‘roq belgisining qo‘yilish o‘rinlarini izohlab bering.**

1. Alloh taolo oyati karimasida: “Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘aysen, deb ayt!” – deyilgan. 2. Abu Hurayra rivoyat qiladilar: “Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: “Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog‘imga kim

haqliroqdir?” – deb so‘radi. Janob Rasululloh: “Onang!” – deb aytdilar. U: “Yana kim?” – deb so‘radi. Janob Rasululloh: “Onang!” – dedilar. U “Yana kim?” – dedi. Janob Rasululloh: “Onang!” – dedilar. U: “Yana kim?” – deb so‘radi. Janob Rasululloh (bu safar): “Otang!” – deb javob qildilar”. (*Hadisdan*) 3. Ey vatandoshlarim! Qachong‘acha bu g‘aflat? Nimaga buncha xushyoqmassizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko‘z oldingizga kelub turg‘on ilm va ma’rifat mevasidan foydalananmasdan nimaga og‘izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqidan ko‘z ochinglar! (A. Cho‘lpon) 4. Uf-f! – dedi bosh vazir va yana zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz yugura boshladi; saroy amaldorlarining ko‘pchiligi uning orqasidan ergashib, yugura boshlashibdi. Axir hech kim qorniga kaltak yeyishni xohlamas edida! (*Andersen*)



## QAVS VA UNING QO‘LLANILISHI

Qavs o‘zbek tilida quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi.

1. Kiritma gaplarda: *Davlatimiz mustaqilligi* (1991-yil 31-avgustda e’lon qilingan edining 28 yilligini munosib kutib olaylik).

2. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda:

*Harbiy hisob hujjatlarini (harbiy biletni, muqobil xizmat xizmatchisining guvohnomasini hamda*

*chaqiruv uchastkasida qayd etilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani) qasddan yaroqsizlan-*  
*tirish yoki beparvolik bilan saqlash ularning yo‘qoli-*  
*shiga olib kelsa, eng kam ish haqining o‘ndan bir*  
*qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima*



*solisthga sabab bo‘ladi. (Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks)*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbasini ko‘rsatishda:

*Jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini boshqarish yoxud ulardan foydalanish qoidalarini buzish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yet-kazilishiga sabab bo‘lsa, ikki yilgacha xizmat bo‘yicha cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (O‘zbekiston Respublikasi-ning Jinoyat kodeksi)*

4. Izoh ma’nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalarida:

*Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyyati (“demos” – “xalq”, “kratos”– “hokimiyat”) ma’nosini bildiradi.*

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi.

*Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovoz (referendum)ga qo‘yiladi.*

**5-topshiriq. Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?”** pyesasini o‘qing va undagi qavs ishlatalgan o‘rnlarni tahlil qiling.

**6-mashq. Gaplarni o‘qing. Qavsning qo‘yilish o‘rinlarini izohlang.**

1. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga buysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. (*O‘zR Konstitutsiyasi*) 2. Omonat

muddati tugaganidan so‘ng mijoz pulni talab qilmasa, omonat muddati 3 oyga uzaytirilgan (prolongatsiya qilingan) deb hisoblanadi. (*E'londan*) 3. Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) dostonini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) dostoni ta’sirida yaratgan. 4. Abdulla Avloniy (Hijron) she’rlari ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. 5. Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari” pyesasida oila (maishiy) muhitdagiadolatsizliklar tufayli otalar va bolalar o‘rtasida jiddiy konfliktlarning yuzaga kelishi tasvirlangan. (*U. Jo‘raqulov*)



## KO‘P NUQTA VA UNING QO‘LLANILISHI

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatalidi.

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida:

*Namozov boshini egib, xuddi o‘zi bilan o‘zi gaplashayotganday dedi: “Men ajal bilan o‘ynashgan ekanman... – u boshini ko‘tarib Zohidga qaradi, – mening bo‘larim bo‘pti. Bola-chaqam omonmi? Faqat to‘g‘risini ayting”. (T.Malik)*

2. So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini ifoda-lash uchun:

*Qo‘shiq ayt, quvna, yayra, dard chek va yig‘la, o‘ynab qol bu tiriklik ayvonida... (Ch. Aytmatov)*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa:

*Mana shunda o‘scha Sharq shoiri aytgan g‘alati so‘zlarning asl ma’nosi birdan unga ayon bo‘ldi: “Juda qattiq seva olgan chin sevgiga yeta olmas...” (Ch. Aytmatov)*

4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa:

– *Men Zohid Sharipovman Shahar proku-raturasining tergovchisiman. Aybingizni bilasizmi?*  
– *dedi Zohid unga tikilib.*

– Yo ‘-o ‘q... Sharif Namozov o‘zining ovozini o‘zi bazo ‘r eshitdi.

– Siz qoradorifurushlikda ayblanyapsiz. Uyingizdan katta miqdorda qoradori kukuni topilgan. Portfelingizdan ham. Xaltachalarda barmoq izlaringiz bor.

– Nima dedingiz? Qoradori...furushlik? Mening uyimdan... Portfelimdan... Namozov Zohiddan adashibman, gunohingiz boshqa degan gapni kutib, ilinj bilan tikildi. (T. Malik)

5. Suhbatdosh gapi javobsiz qoldirilsa yoki tu-shirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida:

– Ota-onang qadriga endi yetarsan?

– ... U o‘ychan nigohlar bilan osmonga qarab qoldi.



Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni topib, gaplarni ko‘chiring.

O‘zbekiston Respublikasi ... ning 6-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining ... – Toshkent shahri” deb yozilgan.

## 7-mashq. Gaplarni o‘qing. Tinish belgilarining ishlatalish sabablarini tushuntiring.

1. Biz, o‘zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko‘rganimizda “Assalomu alaykum” deya qo‘l olishib ko‘ri-shamiz. Assalomu alaykum arabcha “Sizga tinchlik tilayman” degan ma’noni bildiradi. Va alaykum assalom esa “Sizga ham tinchlik tilayman” javob salomi sanaladi. (Darslikdan)

2. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga oliy davlat vakil-lik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil. (*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasi*)

3. Avdiy esa bunga xuddi borliqning qonuniday ishonadi. Lekin u hali bir narsani bilmaydi: yaxshilik yomonlik yo‘liga kirganlarga yordam bermoqchi bo‘lganda ham, yomonlik baribir yaxshilikka qarshi turaveradi. (*Ch. Aytmatov*)

4. Eng muhimi, mutafakkir shoir butun ijodiyoti mobaynida “So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil!” degan talab va da‘vatdan hech chekinmay qalam tebratdi. Bu – ijod tajribasida bag‘oyat siyrak uchraydigan holat. (*I. Haqqul*)

4. “Venetsiyalik savdogar”da huquq haqidagi bahs-munozaralar soni behisob: antisemizm, qarz foizi, jarimaviy jazo, ovozasi ketgan ishlar va hokazo. (*A.Saidov*)



## TIRE VA UNING QO‘LLANILISHI

Tire quyidagi o‘rinlarda ishlataladi.

1. *Dialoglardagi har bir gapning boshida:*

- Xo‘sh-xo‘sh, sizga ruxsat, Qodirov. Yana biron ishini eslay olmaysizmi, aka?
- Esa-chi, shu gaplarni choyxonachiyam ko‘rdi.
- Choyxona-chi? Yana?
- Keyin, baliqpaz ham biladi.
- Xo‘sh-xo‘sh, baliqpaz. Buguncha bo‘ldi, aka, qolganini boshqa kun gaplashamiz. (*T. Murod*)

2. Bog‘lamasiz qo‘llangan ot kesim bilan ega orasida:

Xurofot – inson aqlining eng dahshatli dushmani. (*Volter*)



3. Uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin:

*Na qor, na yomg‘ir, na bo‘ron – hech narsa bizni qo‘rqita olmas edi. (T.Malik.)*

4. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida:

*“Hech bir tuyg‘u inson mulohazasini nafratcha-lik toraytirmaydi”, – deb yozgan edi Mishel Monten.*

5. Ma’lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng tarib bilan sanalgan har bir gap boshida:

*1994-yil 5-mayda ta’sis etildi:*

– “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin Yulduz” medali;

– “Mustaqillik” ordeni;

– “Do‘slik” ordeni;

– “Jasorat” medali;

– “Shuhrat” medali.

6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa:

*Maqtanganning uyini ko‘r, kerilganning – to‘yini.*

7. Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida:

*Jamiyat – tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlар mahsuli. (X. Odilqoriyev)*

8. Shart, zidlash, qiyoslash mazmunidagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida:

*Qor yog‘di – don yog‘di.*

*Vataning tinch – sen tinch.*

9. Kirishlar va ajratilgan bo‘laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo‘laklardan ajratiladi:

*Biz – o‘g‘rilar – senlarning nazarlariningda eng pastkash odamlarmiz. (T. Malik)*



10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:

*Yo 'lovchilar "Sharq. Toshkent – Buxoro"  
poyezdiga uchinchi yo 'ldan chiqishlari mumkin.*

11. Nashr, kitobot ishlarida:

*O'zbekiston Respublikasi kodekslari. – T.:  
"Adolat" nashriyoti, 2014.*

### **8-mashq. Matnlarni ko'chirib yozing. Tirening qo'yilish sabablarini tushuntirib bering.**

1. Kampir O'rinoyning hurpayib olganini ko'rib, muqarrar dahanaki jangning oldini olishga shoshildi:

– Mayli, bolam, sen og'ir bo'l, jahl kelganda aql ketar...

– Ho'y, menga qara, qancha axir?! – dedi Islomboy bo'g'ilib.

O'rinoyning gavdasiga sinchiklab razm soldi, tomoq qirdi va ikki barmog'ini ko'rsatdi.

– Qancha buning?

– Yigirma ming.

Islomboyning qulog'i shang'illab ketdi:

– Eski pulgami?

Ukasi kulgisini yashirishga urinib iljaydi:

– Eski pul qolganmi shu zamonda? Islomboy O'rinoystan ko'z uzolmay qoldi. Ukasining naqadar dahshatli ahvolga tushganini birdan yaqqol angladi va uning nochor, asabiy kulgusini ko'rib yuragiga shafqat uys'ondi. (X. Sultonov)

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston – suveren demokratik respublika deb e'tirof etilgan va 6-moddada "O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri" deb belgilab qo'yilgan. 3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137-moddasiga muvofiq 9-may – Xotira va qadrlash kuni.



## QO‘SHTIRNOQ VA UNING QO‘LLANILISH O‘RINLARI

Qo‘shtirnoq quyidagi o‘rinlarda ishlataladi.

1. Ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi:

*Viktor Gyugo: “Qonunlar urf-odatlarning davomidir”, – deb yozgan edi.*

2. Sitatalar qo‘shtirnoq ichida yoziladi:

*Nabiy sollallohu alayhi vasallam qarindoshlarga zakot bermoq haqida shunday deganlar: “Qarindoshlariga zakot bergen odamga ikkita savob tekkaydir. Biri – qarindoshlariga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi – zakot bergani uchun”. (Hadis-dan)*

3. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, ishlatalishi odad tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo‘llanayotgan, kesatiq, piching, do‘q-po‘pisa va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shtirnoq ichida yoziladi:

*Bunday “azamat”larni ko‘rganda har gal xalqning buzoqning yugurgani somonxonagacha degan naqli yodimga keladi.*

3. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo‘shtirnoq ichida beriladi:

*“Farhod va Shirin” dostoni, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, “Jahon adabiyoti” jurnali, “Otello” tragediyasi, “Ona” portreti.*

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo‘shtirnoq ichida yoziladi:

*“Yulduz” tikuv fabrikasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Turkiston” san’at saroyi, “Yoshlik” tennis sport majmuasi, “Zarqaynar” savdo*

*majmuasi, “Toshkent” mehmonxonasi, “Ekosan” xalqaro jamg‘armasi.*

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.)larning markasini bildirgan so‘zlar, o‘simgilklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliliklar qo‘shtirnoqqa olinadi:

*“Spark” avtomashinasи, “Fanta” ichimligи, “Afrosiyob” tezyurar poyezdi, “Jerda” oyoq kiyimi, “Buxoro – 6” navi, “Atlant” muzlatgichi, “Samsung” qo‘l telefoni, “Artel” kir yuvish mashinasи.*

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo‘shtirnoq ichida beriladi:

*Onam Saidova Marziya ta’lim sohasidagi mehnatlari bois “Xalq maorifi a’lochisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlangan.*

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo‘shtirnoq ichida beriladi:

*2017-yil 7-fevralda “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-son farmon e’lon qilindi.*

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo‘shtirnoq ichida beriladi:

*10-“A” sinfi o‘quvchisi G. Po‘lotjonova “Biz korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida bo‘lib o’tgan insholar tanlovida g‘olib chiqdi. Komissiya a’zolari uning ishini “yuz” balga loyiq deb topishdi.*

**9-mashq. Quyidagi gaplarga qanday tinish belgilari ishlataladi va ularni qo‘yilish sabablarini tushuntiring. Daftaringizga ko‘chiring.**



1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari // agar ular ishida barcha deputatlar// senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa// vakolatli hisoblanadi. (*Fuqarolik kodeksi*)
2. Tovarning yaroqlilik muddati qonun hujjatlarida// jumladan// davlat standartlarida tovar o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qoladi deb hisoblanadigan vaqt //yaroqlilik muddat// belgilanishi mumkin. Sotuvchi yaroqlilik muddati belgilangan tovarni sotib oluvchiga shunday mo‘jal bilan topshirishi kerakki// toki undan yaroqlilik muddati tugagunga qadar o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lsin. (*Fuqarolik kodeksi*)
3. Yuristlar uchun // qonun himoyachilari uchun yuristning yozma nutqi fani juda zarur.
4. Donishmand// Hech kim o‘z-o‘zidan jinoyatchi bo‘lib qolmaydi //degan edi.
5. Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi// bu himoya davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.
6. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari tuzishning asosiy prinsiplari quyidagilardir//
  - qonun hujjatlari normalariga amal qilish//
    - taraflar vakillarining vakolatliligi//
    - taraflarning teng huquqliligi//
    - majburiyatlar olishning ixtiyoriyligi//
    - javobgarlikning muqarrarligi//

**6-topshiriq. “Davlat ramzlari – davlat suverenitetining muhim belgisi” mavzusida insho yozing. Unda tinish belgilarining ishlatalish o‘rinlariga ahamiyat bering.**

## **17-mavzu. QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARIN- ING ISHLATILISHI**

**7-topshiriq. Quyidagi qo‘shma gaplarni o‘qing. Ular orasida ishtirok etgan tinish belgilarining qo‘yilish sabablarini izohlashga harakat qiling.**

1. Do‘slikdan o‘tadigan hech narsa yo‘q, shuning uchun do‘srt orttirish imkoniyatini sira qo‘ldan boy berma. (“Hikmatnama”)
2. Shuni bilki, odamlar do‘slik tufayli baxtiyordir. (“Qobusnama”)
3. Dilimizda orzu balandroq edi, lekin ko‘klam bir oz noqulay keldi. (Oybek)
4. Termometr hamshiraning qo‘lidan tushib ketdi-yu, bir tomchi simob yaltirab polga dumaladi. (Said Ahmad)
5. Xona ichida goh pashshanening g‘o‘ng‘illagani eshitiladi, goh xonadon sohibining ohista yo‘talgani qulqoqqa chalinadi. (Sh. Xolmirzayev)
6. Aybingiz shuki, juda ko‘ngilchansiz. (Z. Saidnosirova)
7. “So‘z san’atining qudrati shundaki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo‘lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi”.
8. “Tilga ixtiyororsiz – elga e’tiborsiz”, – deydi Alisher Navoiy.



### **Qo‘shma gaplarda tinish belgilaridan quyidagi qoidalarga asosan foydalaniladi.**

1. Qo‘shma gap komponentlarining har ikkisida ham so‘roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so‘roq belgisi faqat yaxlit qo‘shma gapning oxiriga qo‘yiladi: *Bu o‘zingning fikringmi yo biror ko‘rsatma bormi?*

2. Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘rtasida alohida mazmuniy munosabatlар mayjud bo‘lmay, bu gaplar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo‘ladigan hodisalarni ifodalasa, ular o‘rtasiga vergul qo‘yiladi: *Sidiqjon to‘xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi.* (A. Qahhor)

3. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro zidlov bog‘lovchilari bilan bog‘lansa, bu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi: *Shunda ham yo jasurlik, yo qaysarlik qilib teatrga ketsa, qaytganda yana eshik ochiq bo‘lardi-yu, ammo yo ‘lak boshidayoq darg‘azab otaga duch kelardi.* (L. Qayumov).



4. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro -u (-yu), -da yuklamalari vositasida bog‘langanda, bu yuklamalardan keyin vergul qo‘yiladi: *U kafeda navbatda turib ovqat olayotganlarni yonlab o‘tdi-da, ikki stakan kofe bilan ikkita bulochka oldi.* (R. Rahmonov. “Qutlug‘ qadam”)

5. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro takrorlangan ayiruvchi hamda inkor bo‘g‘lovchilar bilan bog‘lansa, takrorlanayotgan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi: *Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi.* (Oybek)

6. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gap bilan chunki, negaki, shuning uchun, go‘yo kabi bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vositalar bilan bog‘lansa, ulardan oldin vergul qo‘yiladi: *Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman.* (E. A’zam)

7. Ergash gap bosh gapga -ki bog‘lovchisi yordamida bog‘lansa, undan keyin vergul qo‘yiladi: *Ma‘lum bo‘ldiki, yangi dastgohlar korxona hisob-kitobida qayd etilmagan.*

8. Kesimi shart maylidagi fe‘l bilan ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazkur kesimdan keyin vergul qo‘yiladi: *Agar ular o‘tiz yoshlarda bo‘lsa, savol sal boshqacharoq beriladi.*

9. Ergash gaplar kesimi -sa ham shaklida ifodalangandan keyin vergul qo‘yiladi: *U o‘g‘lining tirishib o‘qiyotganini bilsa ham, talabni yanada qattiqroq qo‘yaverardi.* (T. Malik)

10. Ergash gap bosh gapga deb vositasida bog‘lansa, undan keyin vergul qo‘yiladi: *Vatan uchun jangga bor deb, qurol berdim qo‘lingga.* (H. Olimjon)

11. Bog‘lovchisiz yoki murakkab qo‘shma gap tarkibidagi gaplar bir nechta bo‘lsa, ularning mazmunan bir-biriga yaqinlari vergul bilan ajratilib, qolgan bir yoki bir nechta nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Unsin ko‘kragiga og‘ir bir narsa bilan urilganday ko‘ngli ozib ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib hushidan ketdi; oradan qancha vaqt o‘tganini bilmadi, ko‘zini ochib qarasa, jonivor emaklab orqaga o‘tib ketdi.* (A. Qahhor)

12. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida o‘xhatish munosabati ifodalansa, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Dangasaga ish buyur – ketidan o‘zing yugur.* (Maqol)

13. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida savol-javob, zidlash, shart, sabab-oqibat, asos-xulosa, payt munosabatlari ifodalansa, ular orasiga tire qo‘yiladi:

1. *Qo‘shning tinch – sen tinch.* (Maqol) 2. *Uyda qadam bosgani joy yo‘q – hamma yoq o‘yinchoq.* (Sh. Boshbekov)

14. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh bilan ifodalangan yoki ifodalanganmagan ega, kesim, to‘ldiruvchi mazmunini aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Muovinimga aytинг: о‘rningizга босхга бирорни тайинласин!* (O. Yoqubov)



## **10-mashq. Gaplarni o‘qing. Ular orasiga mos keluvchi tinish belgilarini qo‘yib, daftaringizga ko‘chiring.**

1. Bir ko‘rmasam ko‘nglim allanechuk bo‘lib ketadi. (*S. Ahmad*)
2. Shunday berilib ishladiki go‘yo Bo‘tako‘zda uning o‘zidan boshqa kimsa uning cho‘tidan boshqa hayot yo‘qday. (*I. Rahim*)
3. U

shunday og‘ir xayollar bilan charchoq qadam tashlab vokzaldan eski shaharga jo‘narkan, kimdir uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.

(*S. Ahmad*) 4. Hayotda baraka rohat mo‘l chunki ishchi bilan dehqon qondosh-qarindosh. (*S. Zunnunova*) 5. G‘o‘za chopig‘iga ketgan kishilar qaytib kelgandan keyin hamma yerda ish juda qizib ketdi. (*A. Qahhor*) 6. Agar shisha siniq bo‘lsa ham u birovniki bo‘lsa xiyonat qilma. (*A. Qahhor*) 7. Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi. 8. Oxiri u shunchalikka bordiki nechun kurashayotganini nechun o‘z hayotini tahlika ostiga solayotganini nechun qon to‘kilayotganini ham bilmay qoldi. (*S. Ahmad*)

## **11-mashq. Matnni o‘qing. Unda ishtirok etgan qo‘shma gaplarni toping va foydalanilgan tinish belgilarini izohlang.**

### **YAXSHI SO‘Z – MUXTASAR**

Bir donishmanddan shogirdlari:

- Nima qilsak, tinch va rohatda umr kechiramiz? – deb so‘radi-
- lar.

Donishmand:

- Hech qayerda hech kimga birorta so‘z so‘zlamang, sukut eting,
- deb javob berdi.

Shunda shogirdlari:

- Axir doim sukut etib yuraveramizmi, bu mumkinmi? Boshqa-cha yo‘l ko‘rsating! – dedilar.

Donishmand shunday maslahat berdi:

– Sukut eta olmasangiz, so‘zlang, lekin qisqa va ma’noli so‘zlang, og‘zingizdan sira ham nojo‘ya so‘z chiqmasin. Yomon so‘z tinglovchining ko‘nglini xira qiladi, bundan saqlaning.

Bayt:

Yaxshi so‘zdan ko‘rasan mehr-u vafo,

Nomunosib so‘zlasang, yetgay jafo.

Ha, til bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham – boshga balo.

Shuning uchun donishmandlar so‘zni doriga o‘xshatadilar. “Ortiqchasi zarar keltiradi”, – deydilar. Bu fikrni ulug‘ bobokaloni  
miz Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” nomli ilk turkiy badiiy asarida shunday bayon etgan:

Tilingni avayla – omondir boshing,

So‘zingni avayla – uzayar yoshing.

Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malik,

Ortiq so‘z qiladi boshingni egik.

Bu fikrlar bundan o‘n asr ilgari aytilgan. Shundan buyon bu mavzuda yana qanchadan qancha durdona fikrlar dunyoga keldi, ammo odamlarning SO‘Zga bo‘lgan munosabati hamon turliligicha qolmoqda. Buning boisini XX asr shoiri Tolib Yo‘ldosh shunday izohlaydi:

Bir so‘z bilan har kishi

O‘zligini ko‘rsatar,

So‘z gavharin ko‘pincha

Dono olar, ko‘r sotar.

Afsuski, o‘zlarining bo‘lar-bo‘lmas gaplari, mahmadonaliklari bilan kishilarning asabiga tegadigan va ularning sog‘lig‘ini, qimmatli vaqtlarini o‘g‘irlaydiganlar hali ham kam emas. Duchi kelgan kishiga qalbini ochiq maktubday yoyib yuradigan bunday kimsalarga ko‘cha-ko‘yda ham, oshxonada va majlislarda ham, bazm-u jamshidlarda ham tez-tez duchi kelib turamiz.

Alisher Navoiy bunday kishilarni kechalari tong otguncha tinxmay huradigan itga o‘xshatadi va davom etib yozadi: “Oz gapirmoq hikmatga sabab, oz yemoq – sog‘liqqa sabab. Og‘ziga kelganni

demoq – nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq – hayvonning ishi”.

Bayt:

“Ko‘p demak birla bo‘limgil nodon,  
Ko‘p yemak birla bo‘limgil hayvon”.

Demak, inson har qanday sharoitda ham kerakli so‘zlarnigina aytishi, tiliga ortiqcha erk bermasligi lozim.

(S. Mo ‘minov)

**8-topshiriq. “Men huquqshunos bo‘laman” mavzusida insho yozing. Unda qo‘shma gaplardan unumli foydalaning.**

## IV BO'LIM

### YOZMA YURIDIK MATNDA SO'Z BIRIKMASI VA GAP

#### 18-mavzu. SO'Z BIRIKMASI VA SINTAGMA

**1-topshiriq.** *Jinoyatchi jazolandи va jinoyatchining jazolanishi o'rtasidagi o'xhashlik va farqli tomonlarini aytинг.*

**2-topshiriq.** *Quyidagi so'zlarni namunaga muvofiq uch guruhga ajrating.*

Aybdorni ushlamoq, bahor ayyomi, yangi g'oya, anketa savolari, mashg'ulotga tayyorlanmoq, tarixiy shaxs, ovqat bermoq, qalam bilan yozmoq, bog'da ishlamoq, do'stlik haqida so'zlamoq, o'quvchining kundaligi, kitobdan ko'chirmoq, Vatan uchun qayg'urmoq, yosh ijodkorlar, serg'ayrat o'quvchi, yurakdan o'qimoq, ota-onani ardoqlamoq

Kelishik vositasida bog'langan so'zlar	Ko'makchi vositasida bog'langan so'zlar	Ohang yordamida bog'langan so'zlar
bog'da ishlamoq	qalam bilan yozmoq	yangi g'oya



So'z birikmasi doimo ikkita qismdan iborat. Ularning bittasi tobe, ikkinchisi esa hokim. Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi.

**Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi.**

**3-topshiriq.** Jadvalda berilgan birliklarni tahlil qiling va har biriga beshtadan misol topping.

## So‘z birikmasi

- So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvি orqali ifodalaydi. **Masalan:** *Ahmadning kitobi, olmani yemoq, yaxshi xabar, daftarga yozmoq*

## So‘z

- So‘z leksik hodisa bo‘lib, muayyan ma’noga ega boshqa so‘zlar bilan o‘z holicha aloqaga kirishmagan bo‘ladi. **Masalan:** *osmon, sadaf, yashil, olg‘a, zo‘r, astoydil, kutmoq, lip-lip*

## Qo‘shma so‘z

- Qo‘shma so‘zlar xuddi so‘z birikmasiga o‘xshash usul bilan yasaladi, ammo qo‘shma so‘z tarkibidagi qismalarning ma’nosи saqlanmagan bo‘lib, qo‘shma so‘zning umumiy ma’nosи orqali anglashiladi. **Masalan:** *toshko‘mir, asalari, gulbeor, belkurak, bodomqovoq, bir nima, olib kelmoq, kirib chiqmoq.*

## So‘z qo‘shilmasi

- So‘z qo‘shilmasida so‘zlar o‘zarо teng bog‘lanadi va qo‘shilma tarkibidagi har bir so‘z ma’no mustaqilligini, alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi. **Masalan:** *uy va tom, keldi-yu indamadi, pista bilan bodom, o‘g‘il-u qiz.*

## Ibora (turg‘un bog‘lanma)

- Turg‘un bog‘lanmalarda so‘zlar ma’noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma’no anglatadi. Shuning uchun turg‘un bog‘lanmaga bir so‘z sifatida qaraladi. **Masalan:** *qo‘li ochiq, qulog‘iga quymoq, to‘nini teskari kiymoq, kapalagi uchmoq.*

## Gap

- Gap ham so‘zlarning grammatik birikuvidan hosil bo‘ladi va ma’lum bir fikrni, tasdiq va inkor hukmni ifodalaydi. **Masalan:** *Sinovdan o‘tdim. Sizga omad yor bo‘lsin.*



Nutqdagi har qanday butunlik (grammatik va semantik) so‘z birikmasi bo‘lavermaydi, bu bog‘lanishning boshqacha ko‘rinishlari ham bor. Dastlab so‘z birikmasi bilan sintagmani chog‘ishtiraylik.

Gapning struktura va mazmun jihatdan bir butun bo‘lgan guruhlari, parchalari jonli til – og‘zaki nutqda tovush bilan ham ajralib turadi. Bular sintagma deyiladi. Masalan: *Haybatli samolyot yashil bog‘lar ustidan tez uchib o‘tdi* gapida uchta sintagma bor: 1) haybatli samolyot; 2) yashil bog‘lar ustidan; 3) tez uchib o‘tdi.

Har bir sintagma bir havo chiqarish – bir nafas kuchi bilan aytildi, so‘ng orada qisqa pauza bo‘lib, boshqa sintagma boshlanadi. Sintagmaning eng so‘nggi elementining so‘nggi bo‘g‘ini kuchli aytildi va urg‘uli bo‘ladi. Lekin darak gapning oxirgi sintagma odadta bunday xususiyatga ega bo‘lmaydi. Gapdagi sintagmalarning hammasi, bir-biridan qisqa pauza bilan ajralib turishiga qaramay intonatsiya jihatdan bir butun bo‘ladi. Demak, fonetik jihatdan sintagma gapning intonatsiya bilan birikkan, odadta, bir-biridan qisqa pauza orqali ajralib turadigan yaxlit parchalaridir. Sintagma grammatik-semantik yaxlitlikni ko‘rsatuvchi fonetik butunlikdir.

Sintagma ikki pauza orasidagi nutqiy elementdir. U eng sodda sintaktik parcha. Sintagmalarga bo‘lishning o‘zgarishi odadta grammatik holatning ham, fikrning ham boshqaligini ko‘rsatadi. Bir gap o‘rniga qarab turlicha sintagmalar oladi. Masalan: *Bu haydovchi Karimning otasi* (bu o‘rinda kerakli tinish belgisi qo‘yilmay ko‘rsatilgan, u belgi qanday sintagmalanishga qarab qo‘yiladi.) 1. *Bu haydovchi – Karimning otasi* (otasi haydovchi). 2. *Bu –*



*haydovchi Karimning otasi* (Karimning o‘zi haydovchi). Anglashiladiki, sintagmalanish hodisasi omonimik gaplarni farqlashga ham xizmat qilishi mumkin.<sup>4</sup>

**1-mashq.** Nuqtalar o‘rniga *-ning yoki -ni* qo‘srimchalaridan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring. Kelishik qo‘srimchasini olgan so‘z qaysi so‘z bilan bog‘langanligini aniqlang.

1. U ko‘ylagi... tugmalarini qadadi.
2. Shahar... ikkiga bo‘lgan yo‘l katta yo‘l chetiga o‘tdi.
3. Hayot... butun maqsadi bolalar... baxtiga qaratilgandir.
4. Institutimiz... binosi chiroyli.
5. Professor Navoiy merosi... chuqur o‘rgangan.
6. Ko‘p o‘tmay Odilov... vazirlikka ishga olishdi.
7. U eshik... zarb bilan ochib, xonadan o‘qday otolib chiqdi.
8. Kabina... ikkala oynasi ham ochiq, g‘ir-g‘ir shabada yuzga uriladi.
9. Dadasi... bu gapi hamisha qulog‘ida.
10. Oradan biror yillar o‘tgach, dadam u... chaqirtiribdi.

**2-mashq.** Quyidagi matndan 20 ta so‘z birikmasini daftaringizga ko‘chirib yozing.

### KONSTITUTSIYA VA QONUNLARGA RIOYA QILISH

“Har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir”.

(I. Karimov)

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida bajarilishi shart bo‘lgan talablar aniq ko‘rsatilgan. Ushbu talablarning o‘z vaqtida, vijdonan bajarilishi, vatan tinchligi, millatlar totuvligi, xavfsizligi, osoyishtaligi taraqqiyoti uchun

---

<sup>1</sup> Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1965.

g‘oyat zarurdir. Mana shu burchlar bajarilishi O‘zbekistonda qonuniylik va huquqiy tartiblarni ta’minlash imkonini beradi. O‘zbekiston hududida yashayotgan har bir fuqaro tomonidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan burchlarining bajarilishi vatanimiz istiqbolini belgilab beradi. “Demokratik jamiyat qurish uchun, demokratik tamoyillarni to‘la qaror toptirish uchun, eng avvalo, mo‘tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o‘zini aynan shu yurt farzandi deb biluvchi inson o‘z davlati, o‘z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya qilgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etish kerak.

Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan burchlarni bajarish fuqarolarning shu davlat konstitutsiyasi va qonunlarini tan olishini anglatadi. Mazkur konstitutsiyaviy talab mamlakatimizda qat’iy qonuniylik tartibini ta’minlash imkonini beradi.

Qonuniylik – davlatda, jamiyatda mustahkam huquqiy tartib, barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikning asosidir. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari uchun umumiy talabdir. Uning ma’nosi shuki, har bir fuqaro hayoti, faoliyatining barcha sohalarida Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq xatti-harakat qilishdek e’tiqodga ega bo‘lish zarur. Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish faqat ularning qoidalari buzmaslik emas, fuqarolarning o‘z faoliyati hayotini Konstitutsiya va qonunlarga mustahkamlangan tamoyil va asoslarni, qonun me’yorlarini real voqelikka aylantirishga yordam berish ham demakdir.

Konstitutsiya va qonunlarda jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy asoslari, mamlakatdagi huquqiy targ‘ibot, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi o‘z ifodasini topgan.

**4-topshiriq.** *Advokat, amnistiya, vasiyatnoma, javobgar, nota, senzura, yurist, qonun atamalarini “Yuridik ensiklopediya”dan toping va qanday huquqiy mazmun ifodalashini o‘rganing. Ular ishtirokida so‘z birikmasi hosil qiling.*

## **19-mavzu. YURIDIK MATNDA QO‘SHMA GAP TUZISH TALABLARI**

**5-topshiriq.** Sodda gaplardan bog‘lovchi vositalar yordamida qo‘shma gaplar tuzing.

**6-topshiriq.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi moddalarini tahlil qiling. Undagi jumlalarni alohida ajratgan holda guruh bilan muhokama qiling. O‘zingiz tuzgan qo‘shma gaplar bilan qiyoslang.

### **21-modda.**

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatalidi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat‘i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

### **24-modda.**

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

### **40-modda.**

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

### **41-modda.**

Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

### **64-modda.**

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.



Matnlarda, birinchi navbatda, ularning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati va mavzu rang-barangligiga e’tibor beriladi. Ular turli badiiy asarlar, publisistik, ilmiy va ilmiy-ommabop materiallardan tanlab olinadi hamda uning mazmuni, kompozitsiyasi va tili obrazli, tushunarli bo‘lishi, o‘quvchi bilim darajasiga mos kelishi, dolzarbli hisobga olinadi. Yuridik matn esa asosan rasmiy uslubdagi materiallardan olinadi. Yuridik matn ham rivoya, ham tasvir, ham dialog xarakterida bo‘lishi mumkin, ya’ni voqeа-hodisa tafsiloti, portret tasviri, ma’lum bir syujet, mehnat jarayoni ifodasi bo‘lishi ham maqsadga muvofiqdir. Yuridik matn tuzishni o‘rganishda yozma nutqni o‘stirish bilan birga matnning g‘oyaviy-siyosiy, ta’limiy-tarbiyaviy tomoniga jiddiy ahamiyat beriladi.

Yuridik matn tili iloji boricha sodda, aniq, ravon, tushunarli bo‘lishi bilan ajralib turishi kerak. Mu-rakkab va aralash qo‘shma gaplarni yuridik matnda ko‘p qo‘llash ommaning tushunishini qiyinlashtiradi, mazmun g‘alizligiga olib keladi. Bunday gaplardan, ayniqsa, qonun hujjatlarini yozishda kamroq foydalanish kerak.

### **3-mashq. Quyidagi gaplardan sodda gaplarni hosil qiling.**

Elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning takomillashtirilishi sud faoliyatining samaradorligiga, shuningdek, “Elektron

hukumat to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish doirasida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy bosqich talablariga to‘liq asoslangan odil sudlovning jamoatchilik uchun ochiqligi, shaffofligi va erkinligi kabi demokratik prinsiplarini hayotga izchil tatbiq etishga xizmat qiladi (“Inson va qonun” gazetasi) 2. Xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyalari raislari, huquq-tartibot organlari, moliya muassasalari, boshqa davlat va jamoat tahlilotlari vakillari ishtirok etgan yig‘ilishda ta’kidlanganidek, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi ortib borayotgan hozirgi vaqtda aholini tadbirkorlikka jalb qilish, kasb-hunar kolleji bitiruvchilarli biznes loyihibarini moliyalashtirish banklar oldiga muayyan vazifalarni qo‘ymoqda. (“Xalq so‘zi” gazetasi)

#### **4-mashq. Matnni o‘qing, qo‘shma gap qismlarini aniqlab, ularni izohlang.**

O‘qishli kitob go‘zallikdir, lekin go‘zallikda ham go‘zallik bor. Qorong‘i kechada otilgan mushak ham go‘zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go‘zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go‘zalligi ko‘zni qamashtirsa ham, puch go‘zallik, shuning uchun bebaqodir. Gulning go‘zalligi esa to‘q go‘zallik, chunki uning bag‘rida hayot bor, shuning uchun abadiy go‘zallikdir. G‘uncha guldan ham go‘zalroq, chunki uning bag‘rida ikki hayot –o‘z hayoti va yana gul hayoti bor. (*Abdulla Qahhor*)

#### **7-topshiriq. “Konstitutsiya – bosh qomusimiz” mavzusida insho yozing. So‘z birikmasi va qo‘shma gaplardan unumli foydalananing.**

## V BO‘LIM

### YURIDIK MATN OLDIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

#### 20-mavzu. MATN VA UNING TURLARI

**1-topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asar qahramoni yoki san’atkor qiyofasi va tabiatini tasvirlab matn tuzing.**



Ma’lum voqelik haqida tasavvur (ma’lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topish, tarkibiy qismlar orasidagi mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitlik va tugallanganlik, bir umumi y mavzuga egalik – matnning o‘ziga xos belgilari sanaladi.

Matn og‘zaki yoki yozma nutqqa xos bo‘lishidan qat’i nazar, ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: **dialogik** va **monologik**. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat.

Ikki kishi o‘rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e’tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo‘lmay, o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da’vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llanadi. Bunday

matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlataladi.

Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.



Monologik matn so‘zlovchining o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi bo‘lib, o‘z ruhiy kechinmalari, voqelikka munosabatini o‘ziga xos ohang bilan ifodalashga xizmat qiladi. Bunday matn tavsifiy matn tarkibiga kirsa-da, badiiy uslub xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi, hissiy ifoda tarzi va ijtimoiy-estetik maqsadi bilan ajralib turadi.

Monologik matnda tilning barcha tasviriy vositalari, so‘z-gaplar, kiritma, undov va undalmalar, sodda uyushiq bo‘lakli va ritorik so‘roq gaplar faol ishlataladi. So‘zlovchining fikr-mulohaza va shaxsiy kechinmalari I shaxs nomidan bayon qilinadi. Og‘zaki nutqda monologik matn ohang, urg‘u, to‘xtam, ritm, tovush sur’ati kabi fonetik hodisalarini kuchli ifodalovchi nutq ko‘rinishi sanaladi.

Yuridik amaliyotda ilmiy, rasmiy, publisistik matn turlaridan keng foydalaniladi.

**1-mashq. Monologik matnga diqqat qiling. Yuqorida bayon etilgan ma‘lumotlar asosida matnni tahlil eting. Tahlilda matnda ifodalangan fikr, uni shakllantirgan leksik vositalar va gaplar tuzilishiga e’tibor qarating. O‘zingiz ham monologik matn tuzing.**

... Nevara ko‘rsam, ismini Samandar qo‘yaman deb yuruvdim. Jalil ilib ketibdi. Kitob ko‘rib qo‘yganmish... Jalil o‘zini haqgo‘y deydi. Men uni noshud deyman. Baxt noshudlarga kulib boqarkan-da? Shu noshud qizini kuyovga uzatib, nevara ko‘rib, xursandchilik qilib o‘tirsa... Men shunday ham bo‘lolmasam... Na akam, na ukam

bor. Faqat... pulim bor. Bu noshudning puli yo‘q. Ammo ukalari, kuyovi, Samandari bor... Men hashamdar uyda yashayman, uyimni dev yigitlar poylashadi. Bu noshud oyog‘i siniq divanda yonboshlab yotib, o‘laman deb turgan televizorni tomosha qiladi. Eshigi hamisha ochiq... ko‘ngli ham ochiq... Yangi divanni, rangli televizorni orzu ham qilmaydi...

(Tohir Malik)

**2-mashq. Matnni o‘qing.** Matnda faol qo‘llangan leksik vositalarga diqqat qiling. Gaplar tuzilishi va ularning uslubiy xususiyati haqida fikringizni bildiring. O‘zingiz o‘qigan asarlardan dialogik matnga misol toping. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga ma’nodosh so‘zlar toping.

- Men Zohid Sharipovman. Shahar prokururasi tergovchisiman. **Aybingizni bilasizmi?** – dedi Zohid unga tikilib.
- Yo‘-o‘q...Sharif Namozov o‘zining ovozini o‘zi bazo‘r eshitdi.
- Siz **qoradorifurushlikda** ayblanasiz. Uyingizdan katta miqdorda qoradori kukuni topilgan. Portfelingizdan ham. Xaltachalarda barmoq izlaringiz bor.
- Nima dedingiz? Qoradori...furushlik? Mening uyimdan... Portfelimdan...
- Namozov Zohiddan adashibman, gunohingiz boshqa degan gapni kutib, **ilinj** bilan tikildi. – Siz... adashmayapsizmi? **Gunohim** boshqadir?
- Yana qanday gunohingiz bo‘lishi mumkin?
- Gunohimmi? – Namozov **daf’atan** javob berolmay chaynaldi. – Masalan... birovni urgandirman... Kayfda bo‘ladi-ku?
- Birovni urgan bo‘lsangiz, bu ish bilan shahar prokururasi shug‘ullanmas edi. Adashganimiz yo‘q.

(Tohir Malik)

**2-topshiriq.** Yurisprudensiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar – turli qonun, qaror, farmon, nizom, axborotlardan namunalar toping va daftaringizga ko‘chiring.

## 21-mavzu. YURIDIK MATN TUZISH TALABLARI

**3-topshiriq.** Quyida berilgan yuridik matn haqidagi ma'lumotlarni o'qing va guruh bilan tahlil qiling. Mazkur talablar asosida matn tuzing.

Yuridik matn keng tushunchani ifodalaydi. Yurisprudensiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjat – turli qonun, qaror, farmon, nizom, axborotlar yuridik matn sanaladi. Bunday matnlar maxsus talablarga muvofiq tuziladi va huquq sohasidagi ilmiy axborotlarni yetkazish bilan bir qatorda jamiyatda huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat yuksalishiga xizmat qiladi.

Yuridik matn tuzish talablari bir qator qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, “Normativ-huquqiy hujjatning matni lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etiladi. Normativ-huquqiy hujjatda foydalilaniladigan tushunchalar va atamalar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etadigan, ularning qonun hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda qo'llaniladi. Eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi”. (“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4-bobi 24-moddasi) Shunga ko‘ra yuridik matnlar mazmunan tushunarli, ommabop bo‘ladi. Bunday matnlarda badiiy bo‘yoqdor va ko‘chma ma'nodagi so‘zlar ishlatalmay, huquqqa doir so‘z va atamalar qo'llaniladi. Qisqalik va ixchamlik yuridik matnning birinchi belgisi. Bunday matnlar shaklan siqiq bo‘lsa-da, mazmunan keng ma'noni ifodalaydi va sharhlashni taqozo etadi. Shu bois yurisprudensiyada sharh-matnlar ham keng tarqalgan.



Yuridik matnlar uslubiy mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

*ilmiy matn* – huquqiy masalaga doir tezis, maqola, ma’ruza, annotatsiya, taqriz);



**rasmiy matn** – a) ish yuritish hujjatlari; b) protsessual hujjatlar;

**ommabop matn** – ommabop maqola, suhbat, axborot.

Mazkur matnlar ham o‘ziga xos belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Yuridik ilmiy matnlarda huquqshunoslikka doir atamalar, ilmiy iste’moldagi birliklar qo‘llansa, yuridik rasmiy matnlarda qolip yetakchilik qiladi. Ommabop matnlarda esa huquqiy muammolar va jamiyat hayoti bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

### **3-mashq. Yuridik matnga xos til birliklaridan foydalanib quyidagi matnni mazmunga mos holda davom ettiring.**

O‘z huquq va majburiyatlarini bilish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun juda muhimdir. Agar o‘z huquqlarimizni bilsak, ulardan to‘g‘ri foydalana olsak, ayni paytda, ularni himoya qila olsak, bu bizning huquqiy jihatdan madaniyatli bo‘lishimizni ta’minlaydi. Shuningdek, bu boshqa fuqarolar huquqlarini buzmaslikka ham xizmat qiladi. Chunki ular ham biz kabi Konstitutsiyamiz va qonunlarga muvofiq bir xil huquq va erkinliklardan foydalanadilar...

### **4-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmuniga diqqat qiling. O‘zbekistonda advokatlikning shakllanish tarixi bilan bog‘liq yana qanday ma’lumotlarni bilasiz? Advokatlik faoliyatiga doir qonun hujjatlari asosida o‘zingiz “O‘zbekistonda advokatura” mavzusida kichik ilmiy ma’ruza tayyorlang.**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida quyidagicha qayd etilgan: “Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’milanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida yuridik yordam olish huquqi bilan kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam

berish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi”.

Advokatura juda qadimiy huquq institutlaridan biri bo‘lib, asrlar davomida insoniyat uning ko‘magiga ehtiyoj sezgan. Yurtimizda ilk advokatlik idorasi Sankt-Peterburgda tahsil olgan Abdunabi Qurolboy tomonidan 1879-yilda “Himoyachilar filiali” nomi bilan tashkil etilgan. Shu bois u birinchi o‘zbek advokati sifatida e’tirof etiladi. Filialda o‘ndan ortiq advokat ishlagan. Bundan oldin ham vatanimiz hududida himoya instituti shakllangan bo‘lib, fiqh ilmidan xabari bor shaxslar qozilar oldida taraflar vakili sifatida ishtirok etgan. (“Inson va qonun”gazetasi)

## **22-mavzu. RASMIY USLUB VA UNING YURIST FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI**

**5-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasini daftaringizga ko'chiring. Mazkur modda matni qaysi xususiyatlari bilan rasmiylik bo'yog'iga egaligini tahlil qiling.**



Rasmiy uslub tilning boshqa uslublaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va vazifasi jihatdan yuridik, diplomatik va ma'muriy faoliyatga xizmat qiladigan nutq ko'rinishidir. Bu uslub, asosan, hujjatlilik belgisi bilan boshqa funksional uslublarga nisbatan tarixiydir. Rasmiy uslubning dastlabki ko'rinishlari eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Qadimgi xoqonlik, davlat va xonliklarning qonun, yorliq amr va farmonlari, shuningdek, har xil arznama, rasmiy xat, vaqfnoma, vasiqa va boshqa turli xil hujjatlar; hokimliklar, bekliklar va tumanlar o'rtaсидagi o'zaro har xil yozishmalar rasmiy uslubning ancha ilgari paydo bo'lganligidan dalolat beradi. O'sha davrdagi hujjatlar tilida faol qo'llangan **xoqon, budun, tuzukot, chopovul, dorug'a, qushbegi, qozi, qozikalon, qozixona, a'lam, munshiy, mirzo, devonbegi, amir, xon, vazir** kabi davlatchilik va huquqqa oid leksik birlik atama)lar ishtirok etgan matn va dastxatlar o'z davri yozma nutqining dastlabki namunalardir.

Bu uslubning ijtimoiy vazifasi hozirgi kunda ham juda keng bo'lib, barcha rasmiy hujjatlar mana shu uslubda yoziladi.

Jumladan, bu uslubda **qonun, qaror, farmon, buyruq, rezolutsiya, turli diplomatik bitim,**

**shartnama, deklaratsiya, konvensiya va maxsus rasmiy axborotlar, xullas, turli mavzudagi arizalar, tarjimayi hol, tavsifnomalar, tilxat, turli xil bayonnomalar yetakchi o‘rin tutadi.**

**6-topshiriq. Buyuk bobomiz Amir Temur tuzgan davlatda qanday lavozimlar borligini eslang va mazkur lavozim nomlarini guruh bilan tahlil qiling.**



Rasmiy uslub asosan **yozma**, ba’zan **og‘zaki** shaklda voqe bo‘ladi. Bu uslubning asosiy xususiyatlari:

**1. Aniqlik.** Odatda, bunday hujjatlar tilida hech qanday noaniqlik, g‘alizlik, ortiqcha izohtalab o‘rinlar bo‘lmaydi. Fikr, mazmun sodda, lo‘nda, tushunarli ifodalananadi: *Moliya yilida soliq solinadigan daromad (foyda)ga ega bo‘lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i to‘lovchilar hisoblanadi.*

*Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar, yuridik shaxs birlashmalari budget bilan hisob-kitoblarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin. (O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 13-moddasi)*

**2. Qolip.** Fikr tayyor holdagi nutqiy shtamp – qoliplashgan birikmalar yordamida bayon etiladi.

Masalan: *O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi ...moddasining birinchi qismiga muvofiq..., Fuqarolik kodeksining ...moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi, ...orden bilan mukofotlanadi, ... “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilib, olyi*

*nishon – “Oltin Yulduz” medali topshirilsin; ...rasmiy vizit bilan tashrif buyurdi, ...ozodlikdan mahrum etildi, ...amnistiya e’lon qilinsin* kabi qoliplashgan ifodalar rasmiy uslubga xosligi bilan ajralib turadi. Rasmiy uslubga xos bo’lgan bunday qoliplashgan nutqiy ifodalar qo’llanilishi ijobiy holdir. Chunki rasmiy uslubni ma’lum bir qurilmalar asosida shakllantirish va takomillashtirish huquq, diplomatiyaga oid tushunchalarning tez va yengil tushunilishi, fuqarolar tomonidan oson o’zlashtirilishiga yordam beradi, ularning ongiga qonun va qonunosti hujjatlari mazmun va mohiyati tez yetib borishiga ko’maklashadi. Shu sababdan rasmiy uslub yoki qonunlar tilini ma’lum bir qurilmalar asosida qoliplashtirish zarur. Huquqiy me’yorlarni ifodalashda mumkin qadar shunday tayyor holdagi qoliplashgan ifodalardan foydalanish lozim. Lekin bunday qoliplashgan ifodalarni adabiy til hamda uning tarkibiy qismi bo’lgan yuridik til me’yorlariga muvofiq qisqa va aniq tarzda tuzish kerakki, oddiy fuqaro ham tez o’zlashtirib olishga erishsin. Ayniqsa, qonunlar va ularning moddalarini tayyorlashda bunday birikmalarni qo’llash tartibini qat’iylashtirish zarur.

**4-mashq. Matnni daftaringizga ko‘chiring. Mazkur matndagi rasmiy uslubga xos xususiyatlarning boshqa uslublardan farqli jihatlariga e’tibor qarating.**

№ 100

20\_\_-yil 30-aprel

## **MA’LUMOTNOMA**

Rasulmat Abdusobirovich Xolmurodov, haqiqatan ham,  
Chilonzor tumanidagi 1-maktabning 9-sinfida o‘qiydi.

Ma’lumotnoma so‘ralgan joyga ko‘rsatish uchun berildi.

Maktab direktori: (imzo) S. Hakimov

**7-topshiriq. Tarjimayi holingizni yozing. O‘ziga xos uslubiy  
vositalarni aniqlang.**

## **23-mavzu. RASMIY USLUBDA YURIDIK MATN TUZISH**

**8-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazkur talablarga rioya qilgan holda rasmiy uslubga xos matn tuzing.**

Rasmiy uslubga xos hujjatlar xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi.

Yuridik munosabatlar doirasidagi hujjatlar: *qonun, kodeks, hukm, farmon, farmoyish, qaror, nizom v. b.*

Ma’muriy-idoraviy doiradagi hujjatlar: *buyruqlar, ariza, tavsifnama, tarjimayi hol, ma ’lumotnama, tilxat v. b.*

Diplomatik munosabatlarga oid hujjatlar: *bitim, bayonot, nota, kommyuniqe, memorandum, konvensiya, deklaratsiya v. b.*

Bu hujjatlarning barchasi o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularda til ikki xil vazifani bajaradi: 1) informativ (axborot berish); 2) voluntativ (buyurish). Jumladan, *ma ’lumotnama* rasmiy guvohlik belgisiga ega va unda xabar berish vazifasi amalga oshadi. *Buyruq, qaror va farmonda* buyurish vazifasi amal qiladi. *Bayonnomalarda* esa buyurish (*zimmasiga yuklansin, bajarilsin, tasdiqlansin*) ma’nosidan tashqari, axborot berish (*eshitildi, tinglandi, muhokama etildi*) vazifasi ham o‘z in’ikosini topadi. *Arizada* iltimos, shikoyat ma’nolari aks etadi.

Rasmiy uslub dialektizm, jargon, kichraytirish-erkalash qo’shimchalarini olgan so‘z va jonli so‘zlashuv nutqi elementlaridan xoli bo‘ladi. Tasviriy vositalar, obrazli so‘zlar bu uslubda qo’llanilmaydi. So‘roq, undov, modal so‘zlar nihoyatda kam qo’llaniladi.

Rasmiy uslubda har doim rasmiylik ma’nosи ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo‘lgan so‘zlar va qoliplashgan barqaror iboralar, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllar hujjat tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlar hisoblanadi. Masalan, *muhokama qilindi, qaroriga muvofiq, ma ’lumot uchun qabul qilinsin, ruxsat berishingizni so ’rayman, ishonch bildiraman, tadbirlar ishlab chiqilsin, zimmasiga yuklansin* kabi.

Rasmiy uslubda yoziladigan hujjatlar turli-tuman bo'lsa, ularning lingvistik xususiyatlari ham bir-biridan farq qiladi.



Rasmiy uslubda qo'llaniladigan lug'aviy birliklar, atamalar boshqa uslublarda uchramaydi. Ayniqsa, yuridik hujjat tiliga nazar tashlasak, mazkur hujjat matnlari tarkibida qo'llaniladigan so'z va atamalar katta bir leksik qatlamni tashkil etadi: *ma'muriy javobgarlik, bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, aybdor, retsidiiv jinoyat, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh* va hokazo.

Rasmiy uslub leksikasini quyidagicha tasniflash mumkin:



1. Diplomatiyaga oid atamalar: *elchi, konsul, delegatsiya, bayonot, deklaratsiya, vakil, ultimatum, bitim, shartnama, nota, konsulxona, elchixona, dekret, doktrina, ahdnama, kommyunike, konvensiya, ratifikatsiya, memorandum, diplomat, protest, muzokara, uchrashuv, rasmiy vizit, murojaat, simpozium, rezolutsiya, parlament, kongress* va h.k.

2. Huquq, qonunga oid atamalar: *huquq, qonun, konstitutsiya, qonun loyihasi, modda, jinoyat, jazo, bosqinchilik, firibgarlik, notarius, kriminalistika, yengil jazo, og'ir jazo, ayblov hukmi, jinoyat obyekti, mahkum, o'ta xavfli retsidiivist, huquqiy ong, da'vo* va h.k.

3. Davlat qurilishi va boshqaruvi bilan bog'liq atamalar: *davlat, suveren davlat, unitar davlat, totalitarizm, respublika, davlat gerbi, davlat bayrog'i, davlat madhiyasi, konstitutsiya, prezident, parlament, Vazirlar Mahkamasi, prezident devoni, tuman, viloyat, hokim v. b.*

4. Rasmiy uslub hujjatlarida eskirgan so‘z va iboralar ma‘lum maqsadda qo‘llanadi: *janob, janobi oliylari, shoh, shahzoda, malika* va h.k. Bunday so‘z va iboralar, asosan, hukumatlararo tabrik xatlarida qo‘llanadi.

Rasmiy uslub o‘ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi:

a) shaxs otlari ko‘p qo‘llaniladi: *guvoh, da’vogar, tergovchi, prokuror, ijrochi, javobgar, jinoyatchi, er, xotin, Davlat maslahatchisi, vazir, Vazirlar Mahkamasi raisi;*

b) fe’lning buyruq maylidagi lug‘aviy birlik (so‘z)lar faol ishlatalidi: *yuklansin, topshirilsin, aniqlansin, tayinlansin, ozod qilinsin, bajarilsin;*

d) fe’lning majhul nisbatdagi shakllari ham rasmiy uslubga xosdir: *ko‘riladi, tayinlanadi, saylanadi, bajariladi;*

e) qisqartma otlar ham qo‘llaniladi: *MDH, BMT, JK, JPK, FK, FPK, IIV, YNESKO v. b.*

### **5-mashq. Aniqlik nisbatini majhullik nisbati bilan almashtiring. Daftaringizga yozing.**

1. Meni “Adolat” partiyasiga qabul qildi. 2. 2012-yilda akamni harbiy xizmatga chaqirdi. 3. Meni harbiy xizmatga chaqirdi. 4. Anvarni Turkiyaga xizmat safariga yubordi. 5. O‘rta maktab bitiruvchilarini o‘qishga jo‘natdilar. 6. Fakultet qisqarganligi tufayli o‘qishimni Toshkentga ko‘chirdim.

Rasmiy uslub sintaktik qurilishi qat’iy va odadagi so‘z tartibiga rioya qiladi, ya’ni ega gap boshida kelsa, kesim gap oxirida keladi. Shuningdek, aniqlovchi bo‘laklar aniqlanmishdan oldin qo‘llansa,



to‘ldiruvchi fe‘l kesimga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi.

Rasmiy hujjatlar matni uchun asosan ikki bosh bo‘lakli sodda gaplar va murakkablashgan sintaktik butunliklar xos, bunday gaplarning aksariyati darak hamda buyruq mazmunida bo‘ladi. Kesim, asosan, majhul nisbatdagi fe’llar bilan buyruq maylida ifodalanadi. Uyushiq bo‘lakli va turli murakkablashgan qurilmalar, olmosh va bog‘lovchili sintaktik aloqalar, rasmiy-yuridik matnlarga xos (yoqiq aniqlovchilar, uyushiq bo‘laklar bilan kengayib keladigan) -ga *muvofiq*, -ga *asosan*, -ga *binoan* kabi yuklamali qoliqlar rasmiy uslub sintaksisining asosiy lisoniy belgilari.

**9-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan qaror va farmonlar matnini tahlil qiling. Rasmiy uslubga xos so‘z va birikmalarни daftaringizga ko‘chiring.**

## VI BO'LIM

### YOZMA ISH TURLARI

#### 24-mavzu. IJODIY-TAVSIFIY MATN

**1-topshiriq.** Ota-onangiz, aka-ukangiz yoki do'stingiz qiyofasi va tabiatini tasvirlab matn tuzing. Matningizda belgi xususiyat bildiruvchi so'zlardan keng foydalaning.



Yuridik amaliyotda ijodiy-tavsifiy matn ko‘p uchraydi. Ommaviy axborot vositalari – gazeta va jurnallardagi huquqiy targ‘ibot maqsadida yozilgan maqolalar bu matn turiga misol bo‘ladi. Jamiyat a’zolari huquqiy ongi va huquqiy madaniyati rivojiga hissa qo’shuvchi bunday maqolalarda muallifning shaxsiy qarashlari bevosita ijodiylik asosida bayon qilingani kuzatiladi. Bunday matnda voqeа-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma’lumot bayoni yetakchilik qiladi, muallif qarashlarida individual yondashish kuzatiladi. Bu matnning yana bir xususiyati unda voqelik, narsa-hodisa mohiyati batafsil, ko‘zga tashlanadigan belgilaridan tortib eng mayda, yashirin qirralarigacha atroflicha tahlil qilinishidir.

**1-mashq.** Berilgan parchani o‘qing. Unda kim haqida fikr yuritilayotganini toping. Bu shaxsni siz yana qanday tavsiflay olasiz? Fikringizni yozma bayon eting.

... baland qadli, uzun bo‘yli, tik qomatli, go‘yo u qadimiy pahlavonlar avlodidan bo‘lib, keng peshanali, katta boshli, g‘oyatda kuchli va salobatli, rangi oq-u qizil yuzlik, lekin dog‘siz, bug‘doyrang emas, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng,

barmoqlari yo‘g‘on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o‘ng oyoq-qo‘li cho‘loq va shol, ikki ko‘zi bamisolik ikki sham bo‘lsa-da, shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi. U o‘limdan qo‘rmas, yoshi saksonga yetgan bo‘lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to‘la va pishiq, xuddi zikh (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yin-kulgi-yu ko‘ngilxushlikka maylsiz, garchi (so‘zda) o‘ziga ozor yetadigan biror narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi. U bo‘lib o‘tgan ishga aziyat chekmas va o‘ziga hosil bo‘ladigan yutuqdan shodlanmas edi.

Tamg‘asining naqshi “Rosti rasti” bo‘lib, bu “Haqgo‘y bo‘lsang, najot toparsan” demakdir. Uning otlaridagi tamg‘a, tanga-yu til-lolarigacha zarb beriladigan (asosiy) belgi ham mana shunday uch halqadan iborat edi. Ko‘pincha uning majlisida uyatsiz so‘zlar, qon to‘kish, asir olish, nahbu g‘orat qilish va haram (haqi)ga haqorat gaplar bo‘lmasdi.

(Ibn Arabshoh)



Ma’lum voqeа-hodisa, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta’riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardan. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar, atamalar, modal so‘zlar, fe’lning funksional shakllari, ravishlar faol qo‘llanadi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan keng foydalilanadi.

Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xos.

**2-mashq. Matnni o‘qing va obrazlar tasviriga e’tibor qiling.**  
**Muallif tasviri asosida qahramonlar ichki olami, dunyoqarashi xususida bahs yuriting. Qahramonlar belgisini ifodalovchi so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.**

Bir paytlar halol ishchi bo‘lgan, endilikda o‘g‘ri hisoblangan Klod Gyoning qiyofasidan salobat va ulug‘vorlik ufurib turardi. U yosh bo‘lishiga qaramay halitdan peshanasi ajinlardan burishgan, tim qora sochlari orasida bir necha oq tolalar paydo bo‘lgan edi. Chiroyli qayrilma qoshlari ostidagi chuqur joylashgan ko‘zları muteona, ammo dadil boqardi. Burun kataklari keng, iyagi baquvvat, og‘zi nafratona chirt yumilgan... U kamsuxan, harakatlari kamtarona edi. Uning harakatlarida qandaydir dohiliy quvvat mavjud ediki, bu narsa atrofdagi odamlarni unga itoat etishga undardi...

Klod Gyo hibs etilgan qamoqxona bosh noziri bu yerning mansabdar shaxsi bo‘lib, ayni paytda u ham nozir, ham ishboshi hisoblanardi. U mahbuslarga xuddi ishboshidek ish buyurar, qo‘llariga asbob-uskunalar tutqazar va bosh nozir sifatida ularning oyoqlariga kishan urib, nazorat qilardi. Klervo qamoqxonasining bu bosh noziri qahri qattiq, zolimtabiat va kaltabin odamlar toifasidan bo‘lib, mahbuslarga o‘z hukmini o‘tkazishni yaxshi ko‘rar edi. Lekin zarurat tug‘ilgan paytlarda, u o‘zini do‘lvor, oqko‘ngil odam qilib ko‘rsata olar, hatto hazil-huzulga, o‘yin-kulgiga moyillik bildirardi. Qattiqqo‘l bo‘lishdan ham ko‘ra ko‘proq qaysartabiat bo‘lgan bu odam hech kimning fikr-mulohaza yuritishiga yo‘l qo‘ymas, mulohaza qilishni xush ko‘rmasdi.

(*Viktor Gyugo*)

**2-topshiriq. Berilgan so‘zlarni so‘z birikmali, uyushiq yoki ajratilgan bo‘laklar hisobiga kengaytirib, ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Namuna:

*Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, inson hayotining asl mazmunini o‘zida mujassam etadi.*

Davlat, konstitutsiya, qonun, jinoyat, burch, sudy, advokat, prokuror, huquqshunos, vakolat, hokimiyat, fuqaro, vasiy, partiya, kengash, saylov.

## 25-mavzu. DIKTANT VA UNING TURLARI

**3-topshiriq.** Tarkibida x va h harflari mavjud bo‘lgan so‘zlarga o‘ntadan misol yozing.

**4-topshiriq.** Matnni o‘qing. Mazmunini guruh bilan muhokama qiling.

Har bir til o‘zining leksik, grammatik, orfoepik, orfografik, sintaktik va stilistik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Muayyan tilni belgilangan me’yorlar asosida o‘rganish va o‘rgatish o‘sha til mutaxassislari, ko‘proq o‘qituvchilar zimmasiga tushadi. Filolog o‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda nutq tinglash va tinglash asosida savodli yozish hamda fikrni og‘zaki va yozma shaklda bayon etish malakalarini takomillashtirishdir.

Metodik qo‘llanmalarda qayd etilganidek, til ta’limi natijasida o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar uch xil mezon asosida tekshiriladi va aniqlanadi:

1. O‘qish texnikasi.
2. Nutqni anglash va matn mazmunini tushunish malakasi.
3. Tinglab tushunilgan mazmun asosidagi fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Ushbu malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun ona tili darslarida diktant, bayon, insho kabi yozma mashqlar olinadi. Buning natijasida o‘quvchilarning savodxonligi, xotira quvvati, mantiqiy tafakkuri, ijodkorlik va erkin fikrlash salohiyati osha boradi.

Yozma nutq me’yorlariga amal qilish va yozuv qoidalarini puxta egallah maqsadida dastlab diktantga murojaat qilinadi.



**Diktant** (lot. “dicto” – “aytib turib yozdiraman”)

– o‘quvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarni o‘rgatishga hamda bu qoidalalar yuzasidan

hosil qilingan malakani tekshirishda qo‘llaniladigan yozma ish turi.



O‘rtta umumta’limda ta’limiy va nazorat diktantlari asosan o‘quvchilar savodxonligini oshirish, bilimlarini mustahkamlash, imlo me’yorlarini o‘zlashtirish maqsadida olinadi. Ma’lum sohaga yo‘naltirilgan ta’limda, xususan, kollejlarda esa diktant bevosita shu mutaxassislik tiliga asoslangan bo‘lishi muhim. Birinchidan, o‘quvchilar o‘z mutaxassisliklari doirasida ko‘p qo‘llanadigan atamalarni to‘g‘ri yozish va uning mohiyatini chuqurroq o‘rganishi, ikkinchidan, shu sohaning leksik-stistik, sintaktik xususiyatlarini yaxshiroq o‘zlashtirishi, uchinchidan, maxsus fanlar bilan bog‘liqlikda yozma nutq malakalarini mukammallashtirishi mumkin.

Ma’lum bir sohani o‘rganish bevosita shu sohada ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlarni shaklan va mazmunan bilishdan boshlanadi. Shaklan bilish bevosita so‘zning to‘g‘ri yozilishi, mazmunan bilish esa uning mohiyatini anglatadi. Masalan, yuridik faoliyatda *da’vo*, *ta’qib*, *pretsident*, *fakt* kabi so‘zlar borki, ularni *davo*, *taqib*, *prezident*, *pakt* shaklida yozish noto‘g‘ri mazmunni keltirib chiqaradi. Shu bois yuridik kollej o‘quvchilarining mutaxassislik fanlarini tezroq va osonroq o‘zlashtirishida diktantning quyidagi turlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq.

### **1. Lug‘at diktant:**

a) yozilishi va tushunilishi oson bo‘lgan huquqshunoslikda keng qo‘llaniladigan so‘zlar

(huquq, axloq, jamiyat, davlat, qonun, qaror, ajrim kabi);

b) talaffuz va imloda farqlanadigan yuridik atamalar (prezident, ta'qib, ta'na, da'vo, protest, modda, dalil kabi );

d) imlosi va mazmuni qiyin o'zlashtiriladigan yuridik terminlar (amnistiya, korrupsiya, retsidivist, ombudsman, kodeks, ekspertiza, eksgumatsiya kabi).

#### **5-topshiriq. Quyidagi so‘zlar asosida lug‘at diktant yozing.**

Daromad, daf'atan, suverenitet, konstitutsiya, suiiste'mol, suiqasd, favqulodda, appellatsiya, axloq, afv, mudofaa, surishtiruv, taalluqli, ta'qib, federatsiya, deklaratsiya, qat'iy, qasddan, aybsizlik, prezumpsiya, qutulish, tartibbuzar, tintuv, kassatsiya, retsidivist, mansabdar shaxs, tahdid, iste'molchi, manfaat, taqozo, protsessual, taassurot, muttasil, ekspert.



**2. Qo‘shma va juft so‘zlar diktanti** yuridik amaliyotda uchraydigan qo‘shma so‘z va birikmalar asosida tayyorlanadi. Bunda so‘zlarning yozilish shakli e’tiborga olinadi.

– bosh harflar bilan yoziladigan so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi, Vazirlar Mahkamasi;*

– qo‘shib yoziladigan so‘zlar: *maslahatxona, tartibbuzar, g‘ayriqonuniy;*

– ajratib yoziladigan so‘zlar: *hal qiluv qarori, rad etish, ehtiyyot chorasi;*

– chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar: *sud-huquq, xatti-harakat, qadr-qimmat.*

**3-mashq.** Berilgan so‘zlarni quyidagi jadvalga muvofiq shaklda uch ustunga ajratib yozing. Mazkur so‘zlar ishtirokida 6 ta gap tuzing. So‘zlar yozilishiga diqqat qiling.

Qo‘shib yoziladigan so‘zlar	Ajratib yoziladigan so‘zlar	Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar

Bayon/noma, tovon/puli, umum/xalq, shart/sharoit, til/xat, qonun/buzar, boj/xona, haq/talab, talon/taroj, bayon/etish, sud/ekspertiza, taqdim/noma, so‘roq/qilish, mol/mulk, hisob/varaq, ota/onalik, g‘ayri/axloqiy, video/yozuv, mahrum/etish, omma/bop, iz/quvar, o‘q/otar.



**3. Matn diktant.** Ona tili darslaridan farqli ravishda yuristning yozma nutqi fanidan olinadigan nazorat diktanti uchun matn huquqiy manbalar, shu yo‘nalishga mos keluvchi badiiy asarlardan olinishi va ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi, shuningdek, o‘quvchilarning huquqqa oid bilimlari mustahkamlanishiga xizmat qilishi lozim.

**4-mashq.** Diktant matnida foydalanilgan tinish belgilari hamda chiziqcha imloviy belgisini izohlang. Matnni daftaringizga ko‘chiring.

#### VATAN MADHI

Vatandan shirinroq hech narsa yo‘q. Axir, odamlar nimaniki muqaddas deb hisoblasa, nimaniki teran mazmun bilan sug‘orilgan deb bilsa, bularning barini ularga Vatan o‘rgatgan emasmi? Mayli,

ko‘pgina odamlar o‘zga yurtlar qudrati-yu ajoyibotidan zavqlansin, imoratlar dabdaba-yu as’asasiga qoyil qolsin, lekin hamma Vatanini sevadi. O‘zga yurtlarning behisob mo‘jizalarini ko‘pchilik ko‘rgan, ammo hech kim ularga mahliyo bo‘lib, o‘z yurtini unutib qo‘ygan emas-ku?!

Barcha odamlar Ollohdan Vatanini farovonlikda boshqa shaharlarga teng qilishni so‘raydi-yu, lekin tanlashga kelganda har qancha faqir-u ko‘rimsiz bo‘lsa-da, faqat o‘z Vatanini tanlaydi.

Vatan hamma odamlar uchun shu qadar azizki, qonun chiqaruvchilar hamma joyda eng katta jinoyatlar uchun oliy jazo sifatida Vatandan badarg‘a qilishni belgilab qo‘yishgan. Axir, janglarda safda turganlar uchun eng oliy, eng ulug‘ xitob – Vatan uchun jangga undaydigan xitobdir. Bu xitobni eshitgan hech bir odam undan bo‘yin tovslashni o‘ziga munosib bilmaydi-da. Negaki Vatan so‘zi hurkak odamga ham jasorat bag‘ishlaydi.

(*Lukian*)

## 26-mavzu. BAYON VA UNING TURLARI

**6-topshiriq.** O‘zingiz yoqtirgan biror hikoyani qisqacha so‘zlab bering. Sizningcha, bu hikoya qaysi jihatni bilan ajralib turadi?



O‘quvchining ijodiylik, mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishga boshlang‘ich sinflardanoq e’tibor qaratiladi. Yuqori sinf ona tili darslarida esa bu malakaning takomillashuviga erishish bosh maqsad sanaladi. Diktant va insho oralig‘idagi yozma ish turi bo‘lgan bayon aynan o‘quvchining ijodiy va mustaqil fikrlashiga xizmat qiladi.

**Bayon arabcha “aniqlik, ravshanlik, tavsiflash, ifodalash” ma’nolarini bildirib, o‘qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozilgan yozma ishdir. Unda asar yoki undan olingan parcha mazmuni izchil, savodli qayta bayon qilinadi. Bayon asosan og‘zaki va yozma shaklda olinadi.**

Bo‘lajak yuristlar kasbiy malakasini oshirishda bayonning har ikkala turidan ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy, siyosiy, huquqiy mavzudagi xabarni tinglash va ularni qayta og‘zaki yoki yozma bayon qilish orqali o‘quvchilarning notiqlik malakasi, shuningdek, yozma nutq mahoratlari rivojlanadi. Bayon yozish orqali o‘quvchida mantiqiy izchillik, voqeа-hodisani ijtimoiy hayat bilan bog‘lash yoki taqqoslash, matnni adabiy jihatdan aniq va ravon, o‘z so‘zi, o‘z mulohazalari bilan ifodalash yuksaladi. Qolaversa, ular matnning asosiy mazmunini anglash, uni

qisqartirish yoki kengaytirish malakalariga ham ega bo‘ladi.

**5-mashq Berilgan adabiy parchani diqqat bilan o‘qing va ushbu hikoyani yozma bayon eting.**

“AMIR TEMUR SABOQLARI”DAN

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Mironshoh keyingi paytda aysh-u ishratga berilib ketib, davlat ishlariga qaramay qo‘yadi. Sohibqiron kelinidan bu xabarni eshitgach, ertasi kuni hazrat eng nufuzli kishilarini kengashga to‘plab, Mironshoh masalasini o‘rtaga tashlaydi. Amir Temurning o‘zi Mironshoh va uning arkoni davlatiga o‘lim jazosi berilishini aytadi. Temurning piri Said Baraka va ayrim amaldorlar bu hukmga qat’iyan qarshi chiqadilar, lekin Temur o‘z so‘zida mahkam turib olgach, Amir Shoh Malik o‘rnidan turib: “O‘g‘lingiz-ku, davlatpanoh”, – deydi. Amir Shoh Malikka g‘azab bilan tikiladi. Shoh Malik esa yana: “Shahzoda sizning farzandi arjumandingiz erur, davlatpanoh, qatl qildirsangiz, islom qilichiga farzandkushlik isnodi dog‘ bo‘lib tushmog‘i muqarrardur”, – deydi. Amir Temurning yanada g‘azabi avjga chiqib: “Men ahkomi shariatda emas, o‘z saltanatimda tartib o‘rnatmog‘im lozim!” – deydi.

Shunda Said Baraka o‘rnidan turib: “Baribir, har bir ishdan Olloh taolo voqifdur, hukmdor!” – deya ogohlantiradi. Shundan so‘ng Temur o‘zicha bir qarorga keladi-da, g‘azabdan tushib kengash tugaganligini ma’lum qiladi.

Ertasi shahar xalqini katta maydonga yig‘ib, Mironshoh boshliq uning barcha amir va amaldorlarini qo‘llari bog‘liq holda zindondan olib chiqib, shahar maydoniga olib keladilar. Maydon o‘rtasida turgan jallod hazrat Sohibqironning so‘nggi buyrug‘ini kutardi.

Said Baraka boshliq barcha amirlar, beklar va shahzodalar o‘rtaga tushib, Mironshohning gunohidan o‘tishni Sohibqirondan iltijo qilib yolboradi. Shundan so‘nggina Mironshoh banddan ozod etilib, haramidagi xotinlari va kanizaklaridan faqat farzandi borlarigina unga qoldiriladi.

(T. Fayziyev)

**6-mashq Matnni o‘qing. Unda qadim turk xalqiga xos bo‘lgan qanday sifatlar haqida so‘z yuritilgan. Rivoyatni og‘zaki bayon qiling.**

## BAXT KALITI

Bir savdogar o‘g‘lini eng katta donishmand huzuriga baxt kaliti – sirini bilib kelish uchun jo‘natibdi. Yigit sahroda qirq kun yo‘l yuribdi. Nihoyat ulkan tog‘ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko‘ribdi. U qidirgan donishmand shu qasrda yashar ekan. Kutganiga zid o‘laroq qasr avliyo odamning xilvat go‘shasiga o‘xshamasdi. Uning ichi odamga to‘la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to‘p-to‘p bo‘lib gurunglashar, sozandalarning kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o‘rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va tansiq taomlari, bag‘oyat xushta’m noz-ne’matlariga to‘la edi. Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko‘rishib chiqdi. Yigit navbat kelishini ikki soatcha kutib qoldi. Nihoyat donishmand yigitning nima maqsadda kelganini bildi, lekin hozir unga baxt kaliti – siri nimada ekanini tushuntirib berishga vaqt yo‘q ekanini aytdi. Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga, zalga, qaytib kelishni buyurdi. “Sendan yana bir iltimosim bor, – dedi u yigitga ichiga ikki tomchi yog‘ solingen choy qoshig‘ini uzatib, – bu qoshiqni o‘zing bilan olib yur, faqat ehtiyyot bo‘l, ichidagi yog‘i to‘kilib ketmasin”. Yigit qoshiqdan ko‘zini uzmagan holda qasrni aylandi, uning zinalaridan

tepaga ko‘tarildi, pastga tushdi va ikki soat o‘tgach, donishmandning ro‘parasida yana namoyon bo‘ldi. “Xo‘s, qalay, – deb so‘z qotdi donishmand. – Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo‘ldimi? Mirishkor bog‘bonlar o‘n yildan beri ko‘zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog‘dagi gullar va daraxtlar yoqdimi? Kutubxonadagi qadimiy kitoblar va nodir qo‘lyozmalar-chi?” Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko‘rmaganini tan oldi, negaki uning butun diqqat-e’tibori donishmand unga ishonib topshirgan ikki tomchi yog‘da bo‘lgan ekan. “Bor, orqangga qayt, mening uyimdagи hamma mo‘jizalarni ko‘rib kel, – debdi donishmand. – Odam qayerda va qanday yashashini bilmay turib, unga ishonib bo‘lmaydi”. Qo‘lida qoshiqcha bilan yigit yana zal va yo‘laklar bo‘ylab aylana boshlabdi. Bu gal u o‘zini ancha erkin his qilibdi va xonalarni bezab turgan hamma noyob va g‘aroyib narsalarni ko‘ribdi. U bog‘larni va qasr tevaragidagi tog‘larni tomosha qilibdi, gullar jozibasidan va mohirlik bilan joylashtirilgan haykallar-u rasmlardan bahra olibdi. Donishmandning huzuriga qaytib kelib, ko‘rgan narsalarining hammasini birma-bir sanab beribdi. “Men senga qoshiqchada olib yurib, to‘kmay qaytarib olib kel deb bergen yog‘ qani?” – deb so‘rabdi donishmand. Shu choq yigit qarasaki, yog‘ to‘kilib ketgan ekan. “Senga berishim mumkin bo‘lgan birdan-bir maslahatim ham shu, – debdi donolar donosi. – Baxt kaliti – siri ana shunda: bu dunyoni bezab turgan, unga joziba, ajiblik ato etib turgan nimaiki bo‘lsa, hammasini ko‘ra bilmoq kerak va ayni choqda o‘sha choy qoshiqdagi ikki tomchi yog‘ni ham zinhor-bazinhor unutmaslik zarur”.

(Paulo Koeloning “Alkimyogar” asari)

## 27-mavzu. INSHO VA UNING TURLARI

**7-topshiriq. “Suv – hayot manbai” mavzusida suhbatlashing. Fikrlaringizni aniq faktlar bilan asoslang. Mavzuga mos keluvchi iboralardan misol keltiring.**



**Insho** arabcha so‘z bo‘lib, “yaratish, bino qilish, qurish” ma’nolarini ifodalaydi.

Insho o‘quvchining ma’lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o‘z fikrlarini yozma shaklda to‘g‘ri, ravon, savodli bayon qila olish ko‘nikma va malakalarini, shu mavzu bo‘yicha bilimlarini namoyish etuvchi ijodiy matn – kichik bir asardir.



Yozuvchi va shoir, olim va muxbir o‘zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta mas’uliyat bilan qaragani kabi o‘quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero, insho o‘quvchi ma’naviyati va ma’rifati ko‘zgusidir. Unda o‘quvchining bilimlari, his-tuyg‘ulari, fikrlarini bayon etish ko‘nikma va malakalari o‘z aksini topadi, shuningdek, so‘z qo’llash mahorati, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo‘ladi.

**Insho – ijodiy mehnatning oliv ko‘rinishi, murakkab aqliy mehnat mahsulidir.** U muallifdan o‘z fikrlarini zarur dalillar asosida mantiqan izchil va badiiy tarzda, grammatik va uslubiy jihatdan to‘g‘ri izhor etishni talab qiladi. Shuning uchun ma’lum mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid badiiy yoki hayotiy manbani, unga oid ilmiy adabiyotlarni chuqr

**o‘rganib chiqish, tezis (qisqa ifoda) yaratish, dalillash uchun ko‘chirmalarni yig‘ish, xomaki rejani shakllantirib olish talab qilinadi.**

### **7-mashq. Quyidagi mavzulardan birini tanlab, sodda reja asosida insho yozing.**

1. Konstitutsiya – baxtimiz qomusi.
2. Sud – adolat qo‘rg‘oni.
3. Mahalla – jamiyatimiz tayanchi.



### **Didaktik maqsadlarga ko‘ra insholar ikki xil:**

- a) ta’limiy insholar;
- b) sinov insholari.

Ta’limiy insholar sinfda yoki uyda o‘quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritish va mavzuni to‘g‘ri bayon qilishga qaratiladi.

Sinov insholari o‘rganilgan mavzularga doir bilim, insho yozish ko‘nikma va malakalarni sinash uchun yirik mavzular tugagandan so‘ng choraklar yoki o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi.

### **Insho mazmun-mohiyatiga ko‘ra 3 turli:**

1. Adabiy mavzudagi insholar.
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.
3. Erkin mavzudagi insholar.

Adabiy mavzudagi insholarga adabiyot darsligida qayd qilingan, o‘qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladigan insholar kiradi.

Adabiy-ijodiy mavzulardagi insholarga adabiyot darslarida o‘tilgan ma’lumotlarga o‘quvchining ijodiy munosabati (shaxsiy fikrlari) qo‘shib ifodalanadigan insholar kiradi.

Erkin mavzulardagi insholar adabiyot fani dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Boshqacha

aytganda, o‘quvchining ma’lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi insholar erkin mavzudagi insholardir. Erkin mavzudagi insholarda o‘quvchining bir mavzu bo‘yicha turli fanlardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

O‘quvchilarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy dunyoqarashini oshirish maqsadida erkin mavzudagi insholar yozish maqsadga muvofiqdir.

Insho sodda va murakkab reja asosida yoziladi.



Inshoga epigraf tanlanadi. Insho mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so‘z, maqol, ibora yoki badiiy parcha epigraf deyiladi.

Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o‘ng chekkasida yoziladi. Epigraf matnidan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.

Inshoda epigraf bo‘lishini qat’iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriydir. Lekin mavzuga va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlansa, insho badiiyligiga xizmat qiladi va insho muallifining mahoratini ko‘rsatadi.



#### **9-topshiriq. Quyidagi insho mavzulariga mos keluvchi epigraflar toping.**

1. Biz yurtning kelajagimiz.
2. Yangi asr orzulari.
3. Huquqiy va demokratik davlat taraqqiyoti – bosh maqsadimiz.
4. Odam savdosi – davr muammosi.
5. Korrupsiya – taraqqiyot kushandasasi.

**8-mashq. Quyida berilgan mavzulardan birini tanlang. Shu asosida insho yozing.**

**Inson huquqlari – oliy qadriyat**

Reja:

1. Erk va ozodlik va uning inson hayotidagi o‘rnii.
2. Huquqni anglash – o‘zni anglash.
3. Konstitutsiya – inson huquqlari kafolati.

Tug‘ilgansan ozod mudom, ozod bo‘lib qol.  
(*Nazrul Islom*)

**Ilm o‘rganmoq – fazilat**

Reja:

1. Ilm – hayot yo‘lini yorituvchi nur.
2. Ilmlni ming yashar...
3. Ilm o‘rganmoq va o‘rgatmoq baxti.

**Madhiyam – mening faxrim**

Reja:

- I. Kirish. Madhiya – milliy g‘urur va iftixor ramzi.
- II. Asosiy qism:
  1. Tarixingni o‘ylayman bir zum.
  2. Oltin vodiylar ta’rifi.
3. Biz – Vatanning kelajagi.
- III. Xulosa. Ko‘zim qarog‘idasan, Vatan.

## 28-mavzu. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH QOIDALARI

**10-topshiriq.** Davlat tili deganda nimani tushunasiz? Fikrlaringizni bayon qiling va guruh bilan muhokama qiling.



Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagি ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. Nutq uslublarining badiiy ijod sohiblariga xizmat qiluvchi adabiy til ko'rinishi **badiiy uslub**, ilm-fan ahli faoliyatida qo'llanuvchi adabiy til ko'rinishi **ilmiy uslub**, ommaviy axborot vositalari, ya'ni matbuotga xizmat qiluvchi adabiy til shakli **publitsistik uslub**, ijtimoiy hayotning rasmiy doirasiga xizmat qiluvchi adabiy til ko'rinishi **rasmiy uslub** nomi bilan yuritiladi. Adabiy tilning sanab o'tilgan bu ko'rinishlari o'zining orfografik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlariga ega, ular bir-biridan farqlanadi.

Davlat tilida ish yuritish qoidalari rasmiy uslubga asoslanadi. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ijtimoiy hayotimizda qo'llaniladigan barcha rasmiy hujjatlar va turlituman ish qog'ozlari rasmiy uslub me'yorlari va talablari asosida tayyorlanadi.

**9-mashq.** “O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida”gi qonunidan olingan quyidagi moddalarni daftaringizga ko'chiring. Mazmunini guruh bilan tahlil qiling.

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda:** O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon qilinadi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

**13-modda:** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

**11-topshiriq. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini yana bir bor o‘qing. Mazkur hikoya matnining rasmiy uslubga xos matnlardan farq qiluvchi jihatlarini daftaringizga yozing.**

## **29-mavzu. YURIDIK TILDA ISH QOG‘OZLARINING LUG‘AVIY JIHATLARI – LEKSIKASI**

**12-topshiriq.** Rasmiy uslubga xos bo‘lgan xususiyatlarni sanang. Bu uslub boshqa uslublardan qaysi jihatlari bilan farq qilishini guruh bilan muhokama qiling.



Ma’lumki, yuridik til uchun asos rasmiy uslub sanaladi. Rasmiy uslubda har doim rasmiylik ma’nosи ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo‘lib qolgan so‘zlar va qoliplashgan barqaror iboralar, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllar (qurilmalar) hujjat tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlarni hisoblanadi. Masalan: *muhokama qilindi, zimmasiga yuklansin, qaroriga muvofiq ravishda, ma’lumot uchun qabul qilinsin, ruxsat berishingizni so‘rayman, ishonch bildiraman* kabi. Bunday qoliplashgan birikmalar hujjatlar matniga rasmiylik belgisini kiritadi. Qoliplashgan birikmalarni o‘rganish va yodda saqlash hujjatlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi.

Hujjat tayyorlashda har bir hujjatning o‘ziga xos xususiyatlari, zaruriy qismlari, lisoniy talablari e’tiborga olinishi kerak.

Hujjatlar tilida biron bir shaxsga murojaat etilganda siz olmoshi bosh harf bilan yoziladi. Ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p ishlataladi. Son, odatda, raqam (I, II, X; 1, 2, 10) bilan yoziladi. Pul bilan bog‘liq o‘rinlarda raqamdan so‘ng qavs ichida shu raqam ifodasi so‘zlar bilan qayd etiladi. Fe’lning harakat nomi shakli: **ta’minlashingizni so‘rayman, tashkil etilishi to‘g‘risida, yordam berish maqsadida** kabi qurilmalarga tez-tez murojaat etiladi.

Majhul nisbatdagi fe'llar va o'tgan zamondagi fe'llar (masalan: **belgilab qo'yilsinki, qoniqarli deb topilsin, so'ralsin, eshitildi, qaror qilindi, alohida qayd etilsin, nomzodi ko'rsatilsin** kabilar) serunum qo'llaniladi.



Hujjatlarda, asosan, ikki tarkibli sodda gaplar va murakkablashgan sintaktik butunliklar ko'proq uchraydi. Hujjatlarga oid gaplar tarkibida inversiya (gapda odatdagi so'z tartibi o'zgarishi)ga yo'l qo'yilmaydi. Hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs nomidan yoziladi. Qonun moddalari esa shaxssizlik xususiyatiga ega. Chunki qonunlar davlat amri bo'lib, davlat nomidan ifodalanadi.

Hujjatchilikda imlo qoidalariga va tinish belgilaridan foydalanishga alohida e'tibor berish lozim.

Har bir hujjat nomi matn tarkibida atoqli ot sifatida bosh harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo'yilmaydi. Qolgan o'rirlarda hujjat nomlari kichik harflar bilan yoziladi.

### **10-mashq. Qavs ichidagi so'zlarga tegishli kelishik qo'shimchalarini qo'shing va daftaringizga yozing.**

1. Men 1997-(yil) 10-martida tug'ilganman. 2004-(yil)... 2006-yilgacha Toshkent shahridagi 7-o'rta (maktab) o'qidim.
2. Ukam 5-(sinf) o'qiydi.
3. 2015-(yil) (Toshkent davlat yuridik universiteti) (o'qish) kirdim.
4. Xizmatchi (oilasi) tug'ildim.
5. Jamoat (ishlari) ham qatnashaman.
6. 2016-(yil) harbiy xizmatga chaqirildim.

### **11-mashq. Gaplarni to'liq yozing.**

**Namuna:** Otam institutda ishlaydi.

1. Men ... tug'ilganman.
2. Otam ... ishlaydi.
3. Akam ... o'qiydi.
4. ... o'rta maktabni tamomladim.
5. ....o'qishga kirdim.
6. ... a'zosiman.
7. Hozirgi vaqtda ...
8. Onam ... ishlaydi.
9. ... taqdirlandim (mukofotlandim).



**Hujjatlarni tayyorlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish talab etiladi:**

- 1) har bir hujjatni tuzishda uning zaruriy qismlariga qat'iy rioya qilinishi lozim, ya'ni zaruriy qismlarning o'rin almashinuviga yo'l qo'yilmaydi;
- 2) har kim o'z bilganicha hujjat to'ldirishiga ruxsat etilmaydi;
- 3) hujjatlardan ariza, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, shaxsiy ishonchnoma, ba'zan hisobot, bildirishnoma, bildirgi ham hujjat to'ldiruvchining o'z dastxatida yoziladi. Qolgan hujjatlar esa kompyuterda tayyorlanadi;
- 4) hujjat matnida tuzatish va o'chirishga yo'l qo'yilmaydi, bunday hujjatlar haqiqiyligini yo'qotadi, ya'ni qalbaki deb hisoblanadi;
- 5) alohida ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar to'ldirilganda hujjat to'ldiruvchi imzosi muassasa, xo'jalik yoki notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi shart.

**13-topshiriq. Ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy ahvoli ifodalarining ma'nolarini tushuntirib bering.** Ijtimoiy kelib chiqishingiz va ijtimoiy ahvolingiz haqida daftaringizga yozing.

**12-mashq. Ariza yozishda foydalaniladigan quyidagi qoliplashgan birikmalarни esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

... qabul qilishingizni so‘rayman, ... ta’minlashingizni so‘rayman, ... ozod etishingizni so‘rayman, ... ruxsat berishingizni so‘rayman, ... iqtisod fakultetiga o‘tkazishingizni so‘rayman.



### **Hujjat matnini tuzishda quyidagilarga amal qiling:**

hujjat jo‘natilayotgan (yozilayotgan) tashkilot nomi, mansabdar shaxs ismi, otasining ismi va familiyasini rasmiy nomlanishlariga to‘la muvofiq holda yozish;

hujjat matniga aniq sarlavha qo‘yib, sarlavhani bosh harflar bilan yozish (masalan: XIZMAT SAFARI HAQIDA);

hujjat turiga muvofiq uning zaruriy qismlarini o‘z o‘rniga muvofiq joylashtirish, tartibi, harflar hajmini to‘g‘ri belgilash;

gap qurilishida so‘zlar tartibiga qat’iy rioya qilish;

matnda ko‘chma ma’noli so‘z va iboralar, qochrim yoki kinoyaga ishora qiluvchi birikmalar, mavhum ma’noli so‘zlarni qo‘llamaslik;

murakkab tuzilishdagi jumlalar, ritorik va his-hayjon mazmunidagi gaplardan foydalanmaslik;

norasmiy va asoslanmagan ma’lumot yoki dalil-larni kiritmaslik;

muayyan andazaga solingan, qoliplangan, soha atamasi sifatida qabul qilingan birikmalarini qo‘llash;

qabul qilinmagan qisqartma va belgilarni qo‘llamaslik;

so‘zlar va gaplarda imlo me’yorlariga amal qilish, tinish belgilarni o‘z o‘rniga to‘g‘ri qo‘yish, tuzatish yoki o‘chirishlarga yo‘l qo‘ymaslik;





matnning yozilish sanasi, imzolovchi shaxs lavozimi va ismi, familiyasini aniq ko'rsatish. Masa-lan, 2017-yil 18-yanvar, "Chaqar" shirkati raisi Olimjon Safarov kabi.

Hujjat tayyorlash va ish yuritishda imlo me'yorlariga hamda tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga qat'iy amal qilish lozim. Hujjat matnida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs, tire nisbatan faol ishlataladi.

Unutmang! Hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin nuqta qo'yilmaydi.

### **13-mashq. Qavs ichidagi so'zlarga tegishli kelishik qo'shimchalarini qo'yib ko'chiring.**

(O'z vaqt) bajarildi, (qiyinchiliklar) duch kelmoqdamiz, (ushbu masala) o'rganib chiqdim, (talabalar uyi) tekshirdik, muhokama (qilinishi) so'raymiz.

### **14-mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.**

Prezidium..., yig'ilish haqida..., guruh yetakchisi etib..., guruh yetakchiligiga, mas'ullikni...

**So'zlar:** saylash, axborot berish, o'z zimmasiga, tavsiya etish, tayinlash.

## **MA’MURIY-IDORAVIY HUJJATLAR VA ULARNING NAMUNALARI**

---

### **TARJIMAYI HOL**

Tarjimayi hol so‘zi hozirgi o‘zbek tilida “o‘z hayotini yoritish” ma’nosida qo‘llaniladi. Ya’ni tarjimayi hol ma’lum bir shaxsning o‘z shaxsiy hayoti, mehnat va jamoat ishlaridagi faoliyatining bayonidir. U birinchi shaxs tomonidan mustaqil tuziladigan hujjat hisoblanadi.

U boshqa rasmiy hujjatlarga nisbatan erkin tuziladi. Shuning uchun har bir shaxsning hayot yo‘li singari tarjimayi holi bir-biridan farq qiladi.

Tarjimayi hol quyidagi zaruriy qismlar asosida yoziladi:

- hujjatning nomi (Tarjimayi hol);
- tarjimayi hol matni (men olmoshi bilan boshlanadi). Uning tarkibida quyidagilar qayd etiladi:
  - 1) familiya, ism va ota ismi;
  - 2) tug‘ilgan sanasi (yil, kun, oy);
  - 3) ijtimoiy kelib chiqishi;
  - 4) mustaqil oilali bo‘lsa, faqat ota-onasi haqida qisqacha ma’lumot beriladi (uylanmagan yoki turmushga chiqmagan bo‘lsa, aka-ukalari haqida ham ma’lumot berilishi mumkin);
  - 5) ma’lumoti yoki ma’lumotiga ko‘ra mutaxassisligi (qayerda va qachon o‘qigan yoxud o‘qiydi);
  - 6) qachon, qayerda, qaysi vazifada ishlagan;
  - 7) oxirgi ish joyi va lavozimi;
  - 8) mukofot va rag‘batlantirishlar;
  - 9) jamoat ishlaridagi ishtiroki;
  - 10) siyosiy tashkilotlarga a’zoligi;
  - 11) oilaviy ahvoli va oila a’zolari;
  - 12) turar joyi.
- hujjat yozilgan sana;

– imzo.

Tarjimayi hol oddiy qog‘ozga, ba’zi o‘rinlarda (o‘qishga, ishga kirishda) maxsus bosma ish qog‘ozlariga ruchka bilan yoziladi.

Muallifga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar davriylik asosida qayd etiladi. Tarjimayi hol shunday yozilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo‘li, ishga qobiliyati, mutaxassisligi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

### **Tarjimayi hol**

Men, Nosirova Saodat Qodirovna, 2000-yilning 25-mayida Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ildim. Otam – Nosirov Qodir, Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘qituvchi, onam – Nosirova Sanobar savdo tizimida sotuvchi bo‘lib ishlaydi. Opam – Nosirova Gulnoza mакtabda o‘qituvchi. Akam – Nosirov Shuhrat, Toshkent moliya institutining 2-kurs talabasi. Ukam – Nosirov Firdavs, 7-sinfda va ukam – Nosirov Jahongir, 2-sinfda o‘qiydi.

2006-yildan 2015-yilgacha Toshkent shahridagi 27-maktabda o‘qidim. Maktabda sinf devoriy gazetasi muharriri bo‘ldim. Tarix va biologiya fanlariga juda qiziqaman. Biologiya fani bo‘yicha viloyat olimpiadasida g‘olib chiqib, O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandim.

O‘rta maktabni tamomlagach, 2015-yilda Toshkent yuridik kollejiga o‘qishga kirdim. Hozirda kollejning uchinchi kurs o‘quvchisiman. Kollej jamoat ishlarida faol qatnashaman.

Mening turar joyim: Toshkent shahri Tamaraxonim ko‘chasi 5-uy.

2017-yil 5-sentabr (imzo)

S.Nosirova

## ARIZA

Hujjatlar ichida ariza ijtimoiy hayotimizdagi eng ko‘p qo‘llaniladigan rasmiy hujjatdir U biror muassasa, tashkilot, xo‘jalik yoki rahbar xodim nomiga iltimos, taklif hamda shikoyat mazmunida yoziladi.

Oliy o‘quv yurtlari, kollejlari va litseylarda talabalar uyidan joy olish to‘g‘risida, bir fakultetdan boshqasiga yoki bir institutdan boshqa turdosh institutga o‘tkazish paytida, akademta’til olish jarayonida yoziladigan arizalar keng tarqalgan.

Ishlab chiqarishda esa ishga qabul qilish yoki ishdan bo‘shash haqidagi, boshqa vazifaga o‘tkazish, mehnat yoki o‘quv ta’tillari so‘rash to‘g‘risidagi arizalar ko‘p qo‘llaniladi.

Tuzilishiga ko‘ra arizalar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Oddiy arizalarda iltimoslar izohsiz va ilovasiz taqdim etiladi. Murakkab ariza matni katta bo‘lishi bilan birga iltimos, taklif va shikoyatlarga izohlar bat afsil bayon etiladi va unga ilovalar qilinishi ham mumkin.

Arizalar quyidagi zaruriy qismlar asosida yoziladi:

- ariza taqdim etiladigan muassasa, tashkilot, xo‘jalik nomi yoki rahbar xodim unvoni, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi;
- ariza beruvchi vazifasi, unvoni, ismi, ota ismi va familiyasi (zarur o‘rinda ariza beruvchining turar joyi ko‘rsatilishi mumkin);
- hujjat nomi (Ariza);
- asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat);
- arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (zarur bo‘lganda);
- ariza yozilgan vaqt (yil, kun, oy) qog‘ozning chap tomonida yoziladi;
- ariza yozuvchi imzosi;
- ariza yozuvchi ismi va ota ismining bosh harflari qayd etilib, familiyasi to‘liq keltiriladi;
- ariza bir nusxada va ruchka bilan yoziladi.

## Namuna

Quyida berilgan ariza namunalariga e'tibor bering, zaruriy qismlar joylashishini yodda saqlang.

Toshkent yuridik kolleji  
direktori U.B.Olimovga  
Fuqarolik huquqi  
yo'naliشining 2-kurs talabasi  
Nazirjon Yo'ldoshevdan

### Ariza

Men "Mehr nuri" jamg'armasi e'lon qilgan tanlovda yuqori natijalarga erishib, *imtiyozli o'rinni qo'lga kiritdim*. Shu sababdan "Mehr nuri" jamg'armasi menga Amerika Qo'shma Shtatlariда o'qish uchun *yo'llanma berishga qaror qildi*.

O'qishni Amerika Qo'shma Shtatlari Kaliforniya universitetining yuridik fakultetida davom ettirish uchun *ruxsat berishingizni so'rayman*.

2017-yil 25-sentabr

(imzo)

N.Yo'ldoshev

## **TUSHUNTIRISH XATI**

Tushuntirish xati – xizmatga oid vazifalar bajarilmaganligi, mehnat intizomi yoki o‘qish jarayoni, muassasa ichki tartib-qoidalari va boshqa holatlar buzilganligi sababining bayoni, u muassasa rahbari talabi bilan yoziladigan rasmiy hujjat hisoblanadi. Tushuntirish xati keyinchalik xodim (talaba) haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli ma’muriy jazo chorasi qo‘llash yoki uzrli holda jazo qo‘llamaslik uchun asos vazifasini o‘tashi mumkin.

Tushuntirish xatlari, asosan, ishchi, xizmatchi, talaba tomonidan muassasa, tashkilot, xo‘jalik rahbari nomiga yoziladi Tushuntirish xatida ish (o‘qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan yo‘l qo‘ylgan xato-kamchiliklar, xatti-harakatlar va ularning uzrli-uzrsiz sabablari izohlab beriladi.

Tushuntirish xati oddiy varaqqa xodim (talaba)ning o‘z husnixatida yoziladi.

### **Tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlar asosida yoziladi:**

- hujjat yo‘llanayotgan shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo‘nalish kelishigidagi familiyasi;
- hujjatni yozgan shaxs lavozimi, ismi, ota ismining bosh harflari va chiqish yoki qaratqich kelishigidagi familiyasi;
- hujjat nomi (Tushuntirish xati);
- asosiy matn (zarur holatda tushuntirish xatiga hujjatlar ilova qilinishi mumkin);
- hujjat yozilgan sana;
- imzo;
- hujjatni yozgan shaxs ism-familiyasi.

**Namuna**

Toshkent tibbiyot kolleji  
Hamshiralik bo‘limi boshlig‘i  
dotsent K.Umarovaga  
Fuqarolik huquqi yo‘nalishi  
1-kurs talabasi  
Zarina Nizomovadan

***Tushuntirish xati***

Betob bo‘lib qolganligim tufayli mashg‘ulotlarga qatnasha  
olmadim. Betobligim haqidagi tibbiy ma’lumotnomani ilova  
qilaman.

1999.20.02. imzo Z.Nizomova

## BILDIRISHNOMA

**Bildirishnoma** – idora rahbarlariga xizmat faoliyati bilan aloqador masalalar ahvoli to‘g‘risida axborot beruvchi rasmiy hujjat.

Bildirishnoma quyidagi zaruriy qismlar asosida yoziladi:

- bildirishnoma yo‘llangan muassasa nomi va rahbar lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo‘nalish kelishigidagi familiyasi;
- bildirishnoma tayyorlagan muallifning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda chiqish kelishigidagi familiyasi;
- hujjat nomi (Bildirishnoma);
- matn sarlavhasi;
- bildirishnoma matni;
- zaruriyat tug‘ilsa, ilovalar ro‘yxati;
- bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, imzosi (agar bildirishnoma bir necha shaxs tomonidan tayyorlangan bo‘lsa, ularning lavozimi, imzosi, familiyasi) va familiyasi;
- bildirishnoma yozilgan sana.

## Namuna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori B.Botirovga Boshqaruv fakultetining dekani S.Mamatqulovdan

### Bildirishnomा

Talabalar turar joyining ahvoli haqida

Sizning ko'rsatmangizga binoan iqtisodiy masalalar bo'yicha rektor o'rinnbosari N.Rahimov bilan birgalikda shu yil 5–7-yanvar kunlari Boshqaruv fakulteti talabalari yashaydigan 3-talabalar turar joyini tekshirib chiqdik.

Barcha xonalar, umuman olganda, talab darajasida. Lekin qish kunlari bo'lsa-da, isitish tarmoqlarining yaxshi ishlamayotganligini alohida ta'kidlayman. Birinchi qavatda deraza oynalarini o'rnatish, buzilgan eshiklarni sozlash zarur deb hisoblayman.

Mazkur kamchiliklarni tuzatishda yordam berishingizni so'rayman.

Boshqaruv  
fakultetining dekani:

(imzo)

S.Mamatqulov

## BILDIRGI

**Bildirgi** – ishga tushganlik, muayyan vazifani bajarganlik haqida mansabdor shaxs nomiga yoziladigan qisqa axborot beruvchi rasmiy hujjat.

Ijtimoiy faoliyatda bildirgi keng qo‘llaniladi. Mehnat ta’tili, turli sabablar bilan xizmat safaridan qaytganda, ba’zan betob bo‘lib sog‘aygach, muassasa rahbarlarini xabardor qilish maqsadida yoziladi.

Bildirgi quyidagi zaruriy qismlar asosida yoziladi:

- bildirgi yo‘llangan shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo‘nalish kelishigidagi familiyasi;
- bildirgi muallifi lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda chiqish kelishigidagi familiyasi;
- hujjat nomi (Bildirgi);
- matn;
- sana va bildirgi muallifi imzosi va familiyasi.

### Namuna

“Saxovat” fermer xo‘jaligi  
raisi M.T.Rasulovga  
mazkur fermer xo‘jaligi agronomi  
G‘.B.Alimovdan

#### Bildirgi

Men mehnat ta’tilidan so‘ng 2016-yil 2-sentabrdan boshlab o‘z vazifamni bajarishga kirishganligimni ma’lum qilaman.

02.09.2016

(imzo)

G‘.Alimov

## **DALOLATNOMA**

**Dalolatnomma** – biron bir xo‘jalik, tashkilot, korxona va muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan voqeа, hodisa, ish-harakatni yoxud mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat.

Dalolatnomma, asosan, pul mablag‘lari, moddiy boyliklarga bog‘liq holda tuziladi. Moliya-xo‘jalik faoliyatida muayyan ishni qabul qilish, tekshirish yoki taftish o‘tkazish, xo‘jalik buyumlari va jihozlarini hisobdan o‘tkazish yoki hisobdan chiqarish, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar natijalarini tekshirishda, qonunlar buzilishi va boshqa holatlarda dalolatnomalarga murojaat etiladi.

Dalolatnomalar voqeа-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (muassasa rahbari buyrug‘i bilan komissiya va doimiy komissiyalar) yoki maxsus vakolatli yakka shaxs tomonidan tuziladi.

Dalolatnomma farmoyish yoki buyruq berishda ma’muriyat uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Dalolatnomma quyidagi zaruriy qismlar asosida tuziladi:**

- bosh idora, muassasa va tarkibiy bo‘linma nomi (zarur bo‘lsa);
- hujjat nomi (Dalolatnomma);
- tuzilgan sanasi va joyi;
- tartib raqami va tasdiq belgisi;
- matn sarlavhasi;
- hujjatni tuzish uchun asos (muassasa rahbari buyrug‘i, yuqori idora qarori yoki ko‘rsatmasi kabilar);
- komissiya tarkibi (raisi va a’zolari);
- ishtirok etuvchilar (guvohlar);
- dalolatnomma matni;
- ilovalar (har bir ilovaning necha sahifaligi ko‘rsatiladi);
- dalolatnomma tuzuvchilar va ishtirok etganlarning imzolari.

***Eslatma:*** ba’zi hollarda ushbu zaruriy qismlarga boshqa ma’lumotlar ham qo’shilishi mumkin. Masalan, ishni qabul qilish – o’tkazish dalolatnomalarida topshirilayotgan qimmatbaho buyumlar, hujjatlar ham qayd qilinadi (ko‘pincha ilova tarzida), topshirilayotgan paytdagi ish holatlariga baho beriladi, bajarilmagan ishlar ko’rsatiladi va hokazo.

**Namuna**

**TASDIQLAYMAN**

Yangiobod fermer xo‘jaligi

raisi S.A.Rahmatov

2008-yil 25-may

“Moybuloq” qishlog‘i

YANGIOBOD FERMER XO‘JALIGI BOSH  
HISOBCHISINING ISHNI TOPSHIRISHI HAQIDA

**DALOLATNOMA**

2008-yil 25-may Toshkent  
sh.

**Asos:** fermer xo‘jaligi raisining 2005-yil 17-maydag‘i 116-raqamli buyrug‘i.

Fermer xo‘jalogining sobiq bosh hisobchisi I.Rasulov va yangi tayinlangan bosh hisobchi S.Ikromovlar tomonidan, fermer xo‘jaligi hisobxona xodimi R.Bozorov va ish yurituvchi R.S.Tojiyevlar ishtirokida tuzildi.

Fermer xo‘jalogining bosh hisobchisi bo‘lib ishlagan I.Rasulov ishni topshirdi, S.Ikromov qabul qilib oldi.

Ishni topshirish – qabul qilib olishda quyidagilar aniqlandi:

1. Fermer xo‘jaligi xodimlarining shaxsiy hujjatlari batartib va bus-butun holatda.
2. 2005-yilgacha bo‘lgan hujjatlar fermer xo‘jaligi arxiviga topshirilgan. 2005 – 2008-yillar hujjatlari alohida jiddlarga turibdi.

Qabul qilib olingan narsalar:

- 1) fermer xo‘jaligida ishlovchi barcha a’zolarining shaxsiy hujjatlari (ro‘yxat ilova qilinadi);
- 2) fermer xo‘jaligi a’zolarining mehnat daftarchalari;
- 3) 2005 – 2008-yillar uchun 81 ta hujjat (ro‘yxat ilova qilinadi);
- 4) fermer xo‘jaligining davlat gerbi aks ettirilgan muhr.

Ilova: fermer xo‘jaligida ishlayotgan xodimlarning shaxsiy hujjatlari ro‘yxati (8 bet, 2 nusxa);

2005 – 2008-yillardagi hujjatlar ro‘yxati (4 bet, 2 nusxa).

#### **Dalolatnomalar uch nusxada tuzildi:**

1-nusxa – fermer xo‘jaligi bosh hisobchisiga.

2-nusxa – fermer xo‘jaligi hujjatlar yig‘ma jildiga solib qo‘yish uchun.

3-nusxa – ishni topshirgan xodimga.

Ishni topshirdim	(imzo)	I.Rasulov
Ishni qabul qilib oldim	(imzo)	S.Ikromov
Ishtirok etganlar:	(imzo)	R.Bozorov
	(imzo)	R.Tojiyev

## BAYONNOMA

**Bayonnomma** – turli yig‘ilish, kengash va anjumanlarning borishi, qatnashchilar fikr-mulohazalari va muhokama etilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd etuvchi rasmiy hujjat.

Bayonnomada masalalarni muhokama qilish jarayonida barcha aytilgan fikr-mulohazalar, qarashlar, aytib o‘tilgan tanqid, shikoyat va kamchiliklar o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Bayonnomada o‘z ifodasini topgan axborotlar aniqligi uchun butun mas’uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi, shuning uchun ham bayonnomma oxiriga rais va kotib o‘z imzolarini qo‘yadi.

Yig‘ilishda aytilgan barcha fikr-mulohazalar mazmuni bayonnomalarda o‘zining to‘liq aksini topadi. Bayonnomma yig‘ilishda ko‘rilgan masalalar yuzasidan tashkilot, xo‘jalik yoki muassasa faoliyati to‘g‘risida tasavvur hosil qilish va tegishli xulosa chiqarishga imkon beradi.

### **Bayonnomma quyidagi zaruriy qismlar asosida yoziladi:**

- yig‘ilish o‘tkazuvchi muassasa, tashkilot yoki xo‘jalik nomi;
- yig‘ilishning shartli raqami;
- hujjat nomi (Bayonnomma);
- yig‘ilish sanasi;
- yig‘ilish joyi (shahar, qishloq);
- yig‘ilish raisi va kotibi familiyasi;
- matn:
  - a) qatnashuvchilar ro‘yxati yoki soni;
  - b) kun tartibi (ma’ruzachi yoki axborotchingin familiyasi qayd etilishi mumkin);
  - d) eshitildi;
  - e) so‘zga chiqdilar;
  - f) qaror qilindi.
- rais va kotib imzolari.

## **Namuna**

Fuqarolik huquq fakulteti 1-kurs 1-guruh talabalari

yig‘ilishining 2-raqamli

### **BAYONNOMASI**

2007.15.09.

Toshkent shahri

Rais – A.Ergashev

Kotib – F.A’zamov

Qatnashdilar: guruh talabalari va guruh rahbari

### **KUN TARTIBI:**

1. Guruh yetakchisini saylash.
2. Guruh talabalarining yangi o‘quv yilidagi vazifalari (guruh rahbari A.Zokirov axboroti).

**1. ESHITILDI:** Guruh talabasi E.Sattorov – Alisher Davlatovni guruh yetakchisi etib saylash taklifini kiritaman. Alisher Davlatov harbiy xizmatni o‘tagan, o‘rta mакtabni a’lo baholarga tamomlagan. Yaxshi sportchi.

### **SO‘ZGA CHIQDI:**

L.Ermatov: – Mening fikrimcha, A.Davlatovning intizomli va tarbiyali ekanligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Dastlabki darslardayoq ilmga chanqoq ekanligini ko‘rsatdi. Fakultet jamoat ishlarida faol ishtirok etmoqda. Tashkilotchilik qobiliyatini namoyish etdi. Shuning uchun A.Davlatovni yetakchi etib saylash taklifini ma’qullash va qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

## **QAROR QILINDI:**

1. 1-kurs 1-guruhgaga Alisher Davlatov yetakchi etib saylansin.

**2. ESHITILDI:** Guruh rahbari A.Zokirov axboroti – har oyning oxirgi haftasida bir marta guruh yig‘ilishi rejalashtiriladi. Guruhning har bir yig‘ilishida davomat va mashg‘ulotlarda qatnashish natijalari muhokama qilib boriladi. O‘quv-tarbiyaviy ishlar, siyosiy-tarbiyaviy ishlar, madaniy-ma’rifiy ishlar, talabalar ilmiy tadqiqot ishlari bajarilishi, jamoat ishlariga qatnashish masalalariga alohida e’tibor beriladi. Barcha masalalarda ilg‘orlikni qo‘ldan bermaslik, faollik ko‘rsatib borish lozim.

## **QAROR QILINDI:**

1. Guruh rahbari A.Zokirov axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Talabalarning darsga qatnashishini nazorat qilib borish guruh yetakchisi A.Davlatov zimmasiga yuklatilsin.

Rais (imzo)

A.Ergashev

Kotib (imzo)

F.A’zamova

## **YURIDIK PROTSESSUAL HUJJATLARDAN NAMUNALAR**

---

**Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida**

### **QAROR**

2016-yil 20-sentabr  
Toshkent shahri

Uchtepa tuman prokurori, adliya maslahatchisi R.Bozorov fuqaro D.A.O‘lmasovning 20.09.2011-yildagi arizasi yuzasidan to‘plangan hujjatlar bilan tanishib

#### **ANIQLADIM:**

Dilbar Ahrorovna O‘lmasova 2011-yil 20-sentabr soat taxminan 7:30da Toshkent shahar Uchtepa tumani Guliston ko‘chasidagi 71-uydan chiqib, ishga ketayotgan vaqtida Furqat ko‘chasidagi “Zebo” qahvaxona binosi yonida noma’lum erkak yo‘lini to‘sib, qo‘llarini qayirib, baqirmsaligi uchun og‘zini qo‘li bilan berkitib, sudrab, qahvaxona orqasidagi daraxtzorga olib kirib, uni majburlab nomusiga tekkan va hodisa joyidan qochib ketgan.

Yuqorida bayon qilinganlarni inobatga olgan holda bu hodisada jinoyat belgilari mavjudligini nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 321-, 322-, 330-, 331-moddasi 1-bandi, 336-moddasi 2-bandi, 345-, 382-moddalariga asoslanib

#### **QAROR QILDIM:**

1. D.O‘lmasovaning zo‘rlab nomusiga tegilganligi hodisasi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi JKning 118-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilsin.

2. Ish bo'yicha dastlabki tergovni olib borish tuman prokururasi tergovchisi, 1-darajali yurist A.B.Komilovga topshirilsin.

3. Bu haqida ariza muallifiga ma'lum qilinsin.

Prokuror, adliya maslahatchisi (imzo) R.Bozorov

**Jinoyat ishini qo'zg'atish va ish yurituviga olish to'g'risida**

**QAROR**

2016-yil 20-sentabr

Toshkent shahri

Uchtepa tumani prokururasi tergovchisi, 1-darajali yurist A.B.Komilov Q.Rahimovning jasadi qasddan odam o'ldirish belgilari bilan topilganligi hodisasi yuzasidan to'plangan hujjatlar bilan tanishib

**ANIQLADIM:**

2011-yil 20-sentabr soat taxminan 11da Toshkent shahar Uchtepa tumani Tinchlik ko'chasi 13-uydan, shu yerda yashovchi 1971-yilda tug'ilgan Qadam Abbosovich Rahimovning jasadi o'tkir kesuvchi jism bilan chap ko'krak qismiga jarohat yetkazilgan holda topilgan.

Mazkur hodisada qasddan odam o'ldirish jinoyati alomatlari mavjudligi nazarga olinib, jinoyat ishi qo'zg'atish va tergov harakatlari olib borish lozim.

**QAROR QILDIM:**

1. Q.Rahimovning qasddan o'ldirilganligi hodisasi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilsin.

2. Jinoyat ishini ish yurituvga olib, dastlabki tergov harakatlarini olib borishga kirishilsin.

3. Qaror nusxasi Uchtepa tuman prokuroriga yuborilsin.

Tergovchi, 1-darajali yurist

A.Komilov

RUXSAT BERAMAN  
Tintuv o‘tkazishga  
Uchtepa tuman prokurori,  
adliya maslahatchisi R.Komilov

2011-yil 10-sentabr

### **Tintuv o‘tkazish to‘g‘risida**

#### **QAROR**

2011-yil 10-sentabr Toshkent shahri  
Uchtepa tuman prokururasi tergovchisi, 1-darajali yurist  
B.A.Komilov 14/91-18-sonli jinoyat ishi materiallari bilan tanishib  
ANIQLADIM:

Uchtepa tuman prokururasida 2011-yil 31-avgust kuni soat taxminan 10 da Uchtepa tumani Guliston ko‘chasidagi 122-uydan Gulbahor Tursunovaning murdasi bo‘ynida kesilgan jarohati bo‘lgan holda topilganligi hodisasi yuzasidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi tergov qilinmoqda.

Jinoyat ishi bo‘yicha o‘tkazilgan tergov davomida to‘plangan materiallarda Dilshod Salimovning xonadonida qon sachragan kiyimlar va uning jinoyatini ko‘rsatuvchi boshqa narsa va hujjatlar bo‘lishi mumkinligi haqida yetarli asoslar mavjudligini, ularni topish va olish zaruriyatini nazarga olib, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 158-, 159-, 161-moddalariga asoslanib

#### **QAROR QILDIM:**

1. G.Tursunovaning qasddan o‘ldirilganligi yuzasidan 14/18-11sonli jinoyat ishi bo‘yicha Uchtepa tumani Do‘stlik ko‘chasi 99-uyda yashovchi Dilshod Salimovning uyida va yordamchi xo‘jalik xonalarida tintuv o‘tkazilsin.
  - 2.Bu haqida unga e’lon qilinib, qaror nusxasi topshirilsin.
  - 3.Qaror nusxasi tuman prokuroriga yuborilsin.
- Tergovchi, 1-darajali yurist B.A.Komilov

## **Guvoh tariqasida so‘roq qilish**

### **BAYONNOMASI**

2016-yil 20-mart

Toshkent shahri

Toshkent shahar prokuraturasi jinoyatlarni tergov qilish bo‘limi tergovchisi, adliya kichik maslahatchisi K.A.Hamidov xizmat kabinetimda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 90-, 92-, 96 – 107-, 114-, 115-, 116-, 117-, 118-, 119-moddalariga rioya qilib guvoh tariqasida so‘roq qildim:

<p>1.Familiyasi, ismi va otasining ismi.</p> <p>2.Tug‘ilgan vaqtি.</p> <p>3.Tug‘ilgan joyi.</p> <p>4.Turar joyi.</p> <p>5.Ish joyi va mansabi.</p> <p>6.Kasbi.</p> <p>7.Ma’lumoti.</p> <p>8.Oilaviy ahvoli.</p> <p>9.Sudlanganligi.</p> <p>10.Shaxsini tasdiqlovchi hujjati.</p> <p>11.Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki fuqaroviy javobgarga aloqasi.</p> <p>12.Jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarga aloqasi.</p>	
---	--

Qaysi tilda ko'rsatma berishni xohlaydi: o'zbek tilida.

Guvohga O'zbekiston Respublikasi JPKning 66-moddasidagi huquq va majburiyatlar, ya'ni advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish; so'roq yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida ko'rsatmalar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish; uning so'roq qilinishida ishtirok etuvchi tarjimonni rad qilish; ko'rsatmalarini o'z qo'li bilan yozib berish; o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik; so'roq bayonnomasi bilan tanishish, unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish; ko'rsatmalar berishda yozma belgilari va hujjatlardan foydalanish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi huquqlari, shuningdek, u surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lish; ish bo'yicha o'ziga ma'lum hamma narsa haqida haqqoniy so'zlab berish; berilgan savollarga javob qaytarish; ish bo'yicha o'ziga ma'lum holatlarni so'roq qiluvchining ruxsatsiz oshkor qilmasligi; ish tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shartligi to'g'risidagi majburiyatlari tushuntirildi.

Guvoh:

B.Ahmedov

Men bilaturib yolg'on ko'rsatma bergenlik uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 238-moddasi va ko'rsatma berishdan bo'yin tovlaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 240-moddasi bilan javobgarlikka tortilishim to'g'risida ogohlantirildim.

So'roq vaqt: boshlandi 9 dan 15 daqiqa o'tganda

Tamomlandi: 11 dan 45 daqiqa o'tganda

Ko‘rsatmaning matni

Berilgan savollarga shunday javob qaytardi:

Bayonnomani o‘qib chiqdim. To‘g‘ri yozilgan.

B.Ahmedov

So‘roq qiluvchi

K.A.Hamidov

## **Narsa-buyumlarni ko‘zdan kechirish**

### **BAYONNOMASI**

2016-yil 12-dekabr  
shahri

Toshkent

Ko‘zdan kechirish boshlandi: soat 9 dan 15 daqiqa o‘tganda

Ko‘zdan kechirish tugallandi: soat 10 dan 45 daqiqa o‘tganda

Toshkent shahar prokuraturasi jinoyatlarni tergov qilish bo‘limi tergovchisi, adliya kichik maslahatchisi K.A.Hamidov № 34/06-1188 jinoyat ishi materiallari asosida xizmat kabinetimda O‘zbekiston Respublikasi JPKning 135 – 137-, 141-moddalariga rioya qilib, xolislardan:

1) Toshkent shahar Uchtepa tuman Sh.Burhonov ko‘chasi 9-uyda yashovchi Sobir Razzoqov;

2) Toshkent shahar Yunusobod tumani 5-mavze, 9-uy,

27-xonadonda yashovchi Qodir Mavlonovlar ishtirokida kunduzi, yaxshi yoritilgan xonada mazkur jinoiy ish sodir etilgan voqeа joyidan olingan quyidagi buyumlar: gilam parchasi, ayollar ko‘ylagi, erkaklar shippagini ko‘zdan kechirdim.

O‘tkazilgan tintuvda quyidagilar ko‘zdan kechirish obyekti sanaldi:

1. Oq mayda uchburchaklar va ko‘k egilgan chiziqlar bir-biri bilan kesishib 60x56,5 sm romb hosil qilgan rasmlardan iborat kulrang gilam parchasi. Gilam parchasining orqa tomoniga jigarrang notejis burchakli turli shakldagi 0,5x0,2 sm dan 11x6,5 sm gacha o‘lchamli dog‘lar tushgan.

2. Qizil rangdagi sintetik matodan qilingan, o‘ng tomon chokida cho‘ntagi bor, tepe ko‘krak qismidagi 4 ta yelim tugmadan eng birinchisi tushgan, tugmalari ham qizil rangda bo‘lgan ayollar

ko‘ylagi. Ko‘ylak o‘lchami: orqa kurak uzunligi 122 sm, orqa kurak kengligi 34 sm, yeng uzunligi 54,5 sm. Yengning bir qismi, etak qismiga to‘q jigarrang modda to‘kilgan, shuningdek, to‘q jigarrang burchaksiz turli shakldagi 12x5 sm gacha bo‘lgan qotib qolgan dog‘lar mavjud.

3. Kulrang rezina shippaklar, yuqori qismida “M 2006”, shippakning tag qismida “2121 OTAFUKU SHAHNA 7” degan yozuvi bor. Shippaklarda to‘q qo‘ng‘ir rangdagi turli xil shakldagi 1x3,5 sm gacha bo‘lgan dog‘lar mavjud. Tintuvda ishtirok etgan shaxslardan ko‘zdan kechirish o‘tkazilish tartibi va natijalari hamda bayonnomma mazmuni bo‘yicha hech qanday qo‘srimcha va e’tirozlar tushmadi.

Bayonnomma tergovchi tomonidan o‘qib eshittirildi, hammasi to‘g‘ri yozilgan.

Xolislar:

S.Razzoqov

Q.Mavlonov

Toshkent shahar prokururasi tergovchisi, adliya kichik maslahatchisi

K.A.Hamidov

## SAVODXONLIK TEST TOPSHIRIQLARI

- 1. Qaysi javobda o va a harflari almashtirilgan?**
  - A. Ovqat, ota, ona, oltin
  - B. Qozon, tovoq, qovoq, qovirdoq
  - D. Hakazo, tamosha, qavun, arqa
  - E. Osoyishta, osuda, ortiqcha, oson
  - F. Osmon, otashin, somon, oftob
  
- 2. Qaysi qatordagi so‘zlar noto‘g‘ri yozilgan?**
  - A. Yemoq, yer, yelka, yelkan
  - B. Enchmoq, qayerilish, engi, echim
  - D. Kechuv, terak, poyezd, yetti
  - E. Yengmoq, keng, sermeva, dengiz
  - F. Sessiya, kengash, teng, tepa
  
- 3. Qaysi qatordagi so‘zlar noto‘g‘ri yozilgan?**
  - A. Yelpig‘ich, yeishli, yengilmas, yettovlon
  - B. Yozuvchi, yo‘llanma, yondashmoq, yoqut
  - D. Yubiley, yugan, yumush, yurt
  - E. Yalchimoq, ering, yastiq, yosharmoq
  - F. Yagona, yakdil, yakun, yashirin
  
- 4. Qaysi qatordagi so‘zlar noto‘g‘ri yozilgan?**
  - A. Badjahl, badiha, badhazm, bahramand
  - B. Badbaht, badahloq, behabar, behato
  - D. Banogoh, barhayot, bahra, bahs
  - E. Barham, barhaq, bahuzur, baham
  - F. Bahamjihat, bahor, bahodir, bahona
  
- 5. Qaysi qatordagi so‘zlar noto‘g‘ri yozilgan?**
  - A. Bahmal, behos, baht, bahil
  - B. Bahor, bahs, behuzur

- D. Bo'ron, bo'hton, behad
- E. Behuda, behisht, behi
- F. Bahuzur, beh-beh, behol

**6. Qaysi qatordagi so‘zlar xato yozilgan?**

- A. Baxayol, baxayr, baxil
- B. Baxyal, baxsh etmoq, baxshi
- C. Bexudlik, baxmal, bexos
- E. Buxoro, bamaylixotir, baxtiyor
- F. Baxor, baxs, bexi

**7. Qaysi qatordagi so‘zlar xato bilan yozilgan?**

- A. Gavhar, girih, gumroh
- B. Gazethon, gulhayri, gulhan
- D. Goh, goh-goh, goho
- E. Gunoh, guruh, Gulchehra

**8. Qaysi javobdagisi so‘zlar noto‘g‘ri yozilgan?**

- A. Daraxt, daxma, daxmaza
- B. Daxldor, dilso‘xta, dilxiroj
- D. Dilxush, dilmun, dilxasta
- E. Dexqon, daxa, daxlsiz
- F. Doxil, duxoba, do‘xtisovuq

**9. Qaysi qatordagi so‘zlar xato bilan yozilgan?**

- A. Mubohasa, mubham, mudhish, mulohaza
- B. Muholif, mohora, muhammas, mutahassis
- D. Musohaba, mahram, mahrum, mahsi
- E. Mahsuldor, mehrob, mahfiy, mehmon
- F. Mehvar, mahshar, mehnat, mehr

**10.Qaysi qatordagi so‘zlarda xato bor?**

- A. Nasihat, nahang, nohaq, nahor

- B. Nahotki, nohiya, nahr, nohor
- D. Mahsus, nusha, no‘hat, narh
- E. Nogahon, nigoh, nikoh, nihol
- F. Nihoyat, nihoya, nomehribon

**11. Qaysi qatordagi so‘zlar bo‘g‘inga noto‘g‘ri ajratilgan?**

- A. Ko‘n-gil, ken-gash, den-giz, hor-man-giz
- B. Tay-yor, tur-g‘un, da-vom, ha-mo-hang
- C. Bay-ram, biy-ron, qa-ror, qadr-don
- E. Sa-lo-mat, om-ma-viy, ay-yor-lik, sa-yil-goh
- F. Rah-ba-ri-yat, dra-ma-turg, ta-raq-qi-yot, de-mo-krat

**12. Qaysi qatordagi so‘zlar bo‘g‘inga noto‘g‘ri ajratilgan?**

- A. Dab-da-ba, kul-dir-gich, pi-shiq-chi-lik, so-at-soz
- B. Tash-ki-lot, erk-se-var, eh-ti-mol, mu-ta-xas-sis
- D. Mu-saf-fo, sa-zo-vor, lo-qayd-lik, ko‘r-sa-tuv
- E. Mu-ay-yan, mam-la-kat, ke-chi-kish, gul-das-ta
- F. Uch-rash-uv, to‘l-dir-uv-chi, kech-qur-un, tea-tr

**13. Qaysi qatordagi so‘zlar bo‘g‘inga noto‘g‘ri ajratilgan?**

- A. Im-lo-viy, qiy-mat, ba-di-iy, qo‘-shim-cha
- B. Qah-ra-mon, shi-or, qu-yi-da-gi, be-to‘x-tov
- D. Bog‘-i-miz-da, do‘s-tlik, bir-od-ar-lik, ho-ki-mi-yat
- E. Hu-ku-mat, va-zir-lik, mah-ka-ma, tong-gi
- F. Tek-shi-ruv, ku-yun-chak, se-vim-li, yod-gor-lik

**14. Qaysi qator so‘zlari turdosh otlar va kichik harf bilan boshlanishi lozim?**

- A. Usta, Ustoz, Shalola, Sadarayxon
- B. Boltaboy, Teshaboy, Erkin, Dildor
- D. Malika, Lola, Nilufar, O‘lmas
- E. Rayhon, Po‘lat, Toshtemir, Gulshan
- F. Bashorat, Dilbar, Nodir, Zafar

**15. Qaysi javobdagи joy nomlari bosh harf bilan yozilishi lozim?**

- A. Tolzor, “Navoiy”, adirlik, janggoh
- B. Sardoba, jarlik, o‘rikzor, o‘tloq
- C. Ko‘kcha, saroy, uch tom, qarshi
- E. Paxtazor, uchquduq, pasttekislik
- F. Yangiariq, terakzor, toshloq

**16. Qaysi qatordagi so‘zlar atoqli ot bo‘lmagani uchun bosh harf bilan yozilmasligi lozim?**

- A. Qo‘qondan, Qorako‘l, Chinobod, Kosonsoy
- B. Otchopar, Bog‘ko‘cha, Do‘nglik, Qorasuv
- D. Tepalik, Farg‘ona, Parkent, Haqqulobod
- E. Ra’nolar, Xorazmlik, Toshkentcha, Nasibalar
- F. Taroqchilik, Sirdaryodan, Chorsu, Orol

**17. Qaysi qatordagi so‘zlar va so‘z birikmalari bosh harf bilan yozilishi lozim?**

- A. Universitet, akademiya, shahar, rahbariyat
- B. Yozuvchilar uyushmasi, sessiya, hokimiyat
- D. Birlashgan millatlar tashkiloti, devonxona, uy-joy boshqarmasi
- E. Sog‘lijni saqlash vazirligi, sanoat-qurilish banki
- F. Oliy majlis, vazirlar mahkamasi, oliy majlis rayosati

**18. Qaysi qator so‘zlari oliy davlat lavozimlarini bildiradi va bosh harf bilan yoziladi?**

- A. Bosh vazir, oliy majlis rayosati raisi
- B. Yetakchi mutaxassis, professor, akademik
- D. Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi, bosh muharrir
- E. Bosh muhandis, muxtor elchi, prezident maslahatchisi
- F. Universitet rektori, litsey direktori, madaniyat vaziri

**19. Qaysi javobda qo'shimcha qo'shilgandan so'ng o'zakda tovush o'zgarishi bo'lgan so'zlar o'z ifodasini topgan?**

- A. Ishga, o'qishga, suzishga
- B. Yong'oqqa, mashqqa, sovuqqa
- C. Tevarakka, katakka, terakka
- E. Yomg'irga, ro'yxatga, san'atga
- F. O'rtog'im, yuragim, tilagim

**20. Qaysi javobda qaratqich kelishigining qo'shimchasi o'rnilida tushum kelishigining qo'shimchasi yozilgan?**

- A. Gulni hidi, nonni mazasi, uni ko'zları
- B. Suvni ichdim, ro'yxatni o'qidim, yong'inni o'chirishdi.
- D. Kitobni varaqlashdi, mashqni yozdi, jadvalni tuzdi.
- E. Soyabonni ochdi, uzumlarni uzdik, xayolni bo'ldi.
- F. Yutuqni to'lashdi, vergulni o'chirdi, gapini tugatdi.

**21. Qaysi qatordagi so'zlar qaratqich kelishigining belgisiz shaklida qo'llangan?**

- A. Bolalar keldi, gullar ochilibdi, Karim o'qiyapti.
- B. Pomir tog'lari, O'zbekiston Respublikasi, mifik o'quvchilari
- D. Suv ber, rasm chizdim, qor yog'yapti.
- E. Mashina haydaydi, sher yotadi, g'isht terilyapti.
- F. Devor urdim, she'r o'qiding, ko'ylak tikdi.

**22. Qaysi javobda tushum kelishigining qo'shimchasi tushib qolgan?**

- A. O'yin qizg'in, bog' ko'rki, gurung qizidi.
- B. Sayr gashti, rayhon isi, yoz issig'i
- D. Musiqa tingladim, do'ppi tikding, gul terdim.
- E. Bobur she'rlari, to'garak mashg'uloti
- F. "Dilxiroj" kuyi, havo beg'ubor, jahon championi

**23. Javobning qaysi birida egalik qo'shimchasi qo'shilgach, o'zagida tovush tushgan so'zlar berilgan?**

- A. To'ning, imtihonim, yakuni, qonuni
- B. Qadamim, ko'lami, kami, saloming
- D. Mashqim, qalaming, san'ati, maketi
- E. O'rnim, ko'ngling, bo'yni, qornim
- F. Mehnatimiz, niyatingiz, aftim, tafti

**24. Qaysi qatordagi qo'shma so'zlar noto'g'ri yozilgan?**

- A. Ko'ztikan, ko'kyo'tal, ko'pnuqta, laylakuya
- B. Lolarang, dovyurak, marvarid gul, och sariq
- D. Lashkar boshi, bodom qovoq, tog' olcha
- E. Muzo'yar, naycha payvand, namozshomgul, jonkuyar
- F. Umumxalq, o'rinbosar, chet el, sof ko'ngilli

**25. Qaysi qatordagi qo'shma so'zlar qoidaga muvofiq yozilmagan?**

- A. Hayotbaxsh, g'ayrirasmiy, qora yurak, erksevar
- B. Shirinso'z, sofdil, shifobaxsh, cho'rtkesar
- D. Kumushrang, rohatbaxsh, soddadil, qay tarzda
- E. Oq saroy, so'z boshi, hammavaqt, qiyma taxta
- F. Ozmuncha, otashnafas, moshrang, kungaboqar

**26. Qaysi qatordagi qo'shma so'zlarning yozilishi qoidaga mos kelmaydi?**

- A. Kam yerli, karnaygul, iskabtopar, go'shtkuydi
- B. Zarpechak, bajonidil, bosh yalang, bir oz
- D. Biryo'la, birato'la, bodroqrang, ana shu
- E. Arpapoya, och ko'k, tomsuvoq, tilyog'lamalik
- F. Yer yong'oq, bir oz, vaqt chog'lik, oq bilak

**27. Javoblarning qaysi birida qisqartma so'zlar noto'g'ri yozilgan?**

- A. BMT, AQSH, BAA, MDH
- B. ToshDPU, Tdyu, O'ZRFA
- D. ToshDTU, videofilm, avtoyo'l
- E. Teleko'prik, O'zR, sannazorat
- F. O'zbekbirlashuv, O'zgazloyiha, multfilm

**28. Qaysi qatordagi gapning oxirida qo'yilgan ishoraviy belgi noto'g'ri?**

- A. Siz bu shoirlarni bilasiz-a?
- B. Tong otdi.
- D. Maysalar oftobda yashnaydi!
- E. Qattiqroq chaqir, boraman! Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket.
- F. Cho'l shamoli o'jar bo'ladi.

**29. Qaysi qatordagi gapning oxirida qo'yilgan ishoraviy belgi noto'g'ri?**

- A. To'lin oy chiqdi.
  - B. Soatingizga qarang-chi?
  - D. Eh, bu vodiy naqadar go'zal!
  - E. Rais nima uchun hatto o'g'liga ham hech narsa demadi.
- (A.Q.)
- F. Eh-he, ish katta-ku!

**30. Qaysi qatordagi gapning uyushiq bo'laklarida vergul o'z o'rnida qo'yilmagan?**

- A. Sodda muomala yaqinlik, mehribonlik belgisidir.
- (A.Qodiriy)
- B. U qaynoq, asabiy, g'azabli ommani ko'zdan kechirdi. (O)
- D. Mirzakarim Marg'ilonga tushib ahvolni bildirib, tushuntirib keldi. (S.A.)

E. Shaxmat o‘zida ham nazariy, ham amaliy tomonlarni birlashtiradi.

F. Kecha men Salimjonni juda dilbar, rahmdil qiyofada ko‘rgandim. (X.T.)

## GLOSSARY

**Adliya.** Sudlov muassasalari tizimi, sud idoralari faoliyati. Sudlov tashkilotlari faoliyatini tashkil etish, boshqarish va tartibga solish tizimi.

**Afv.** Jazodan ozod qilishning bir turi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan afv etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga berilgan.

**Alibi.** Ayblanuvchi yoki aybdor deb gumon qilingan shaxsning jinoyat sodir etilgan paytda boshqa joyda bo‘lish holati.

**Aliment.** Qonun belgilagan hollarda oilaning sobiq a’zosi tomonidan boshqa a’zosi yoki a’zolarini moddiy ta’minlash uchun majburan to‘lanadigan mablag‘.

**Amnistiya.** Jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlik uchun jazodan to‘liq yoki qisman ozod qilish, shuningdek, jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash.

**Apellatsiya.** Muayyan ishni qayta ko‘rib chiqish uchun kiritilgan shikoyat arizasi.

**Ayblov.** Jinoyat protsessida vakolatli organlar va shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs aybdorligini isbotlashdan iborat faoliyat.

**Da’vo.** Buzilgan yoki cheklangan huquqni yoxud qonun tomonidan muhofaza qilinadigan manfaatni sud orqali himoya qilish vositasi.

**Fraksiya.** 1. Muayyan siyosiy partiya qarashlarini parlamentda ifoda etuvchi, mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruvda, jamoat tashkilotlarida o‘z organlariga ega bo‘lgan ayni partiya a’zolaridan iborat tashkiliy guruh. 2. O‘z platformasiga ega bo‘lgan siyosiy partiyaning alohida qismi.

**Jabrlanuvchi.** Yetarlicha dalillarga asoslangan hamda jinoyat oqibatida moddiy, ma’naviy, jismoniy zarar yetkazilgan shaxs.

**Javobgar.** Sud tomonidan da’vogarning buzilgan huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari yuzasidan javob berish uchun chaqirilgan shaxs.

**Memorandum.** 1. Diplomatik yozishmalar hujjati. 2. Savdo tizimida hisob-kitob, qarzdorlik bilan bog‘liq bo‘lgan hujjat. 3. Xizmat masalasi bo‘yicha ma’umotnoma.

**Nota.** Bir davlatning boshqa davlatga rasmiy ravishda yozma murojaati.

**Offshor.** Dunyodagi moliyaviy markazlar, shuningdek, bank operatsiyalarini tavsiflash uchun qo‘llanuvchi atama.

**Oliy sud.** Fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliy organi.

**Ombudsman.** Parlament tomonidan maxsus saylangan, davlat organlari harakatlarining qonuniyligi hamda fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etilishini kuzatuvchi mansabdar shaxs.

**Order.** 1. Buyruq, farmoyish, ko‘rsatmadan iborat rasmiy hujjat. 2. Biror narsani olish uchun hujjat.

**Patent.** 1. Davlatning mas’ul organlari tomonidan beriladigan va quyidagilarni belgilovchi hujjat: kashfiyot hamda yangiliklar uchun, mualliflik huquqini berish uchun. 2. Ba’zi davlatlarda ayrim turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish uchun ruxsat beruvchi huquqiy hujjat.

**Qonun.** Oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilingan va o‘zida qonunning amal qilish hududi, muddatini mujassamlashtirgan huquqiy-normativ hujjat.

**Ratifikatsiya.** Xalqaro shartnomani imzolash.

**Sanksiya.** Jinoyat sodir etishda guman qilingan shaxsga nisbatan majburiy chora (qamoq, tintuv va shu kabi) ko‘rish uchun sud tomonidan beriladigan ruxsat.

**Suverenitet.** Davlatning ichki ishlarni olib borish va tashqi munosabatlarda boshqa davlatlardan to‘la mustaqilligi.

**Ultimatum.** Bir mamlakat hukumatining boshqa mamlakat hukumatiga qo‘yadigan qat’iy, hech qanday bahs va e’tirozlarga yo‘l qo‘ymaydigan talabi.

**Vasiylik.** Muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lmanan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun belgilanadigan huquqiy hujjat.

**Xabeas korpus.** Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini konstitutsiyaviy kafolatlovchi institut.

**Yuridik shaxs.** O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan mulk sifatida, xo‘jalik yurituvida alohida mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatları bo‘yicha ushbu mulki bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshira oladigan, da’vogar va javobgar sifatida sudda qatnasha oladigan tashkilot.

**Yurisprudensiya.** Huquqshunoslik va yuridik fanlar majmui, shuningdek, yuristlarning amaliy faoliyati.

**Yurist.** Yuridik ma'lumotga ega bo‘lgan mutaxassis; huquq sohasidagi amaliyotchi arbob.

**Yuristkonsultant.** Tashkiliy-huquqiy xizmat xodimi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2012.
4. Ўзбекистон Республикасининг кодекслари: тўплам. – Т.: Адолат, 2014.
5. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – Т., 2007.
6. Usmonov S. O‘zbek tili. – Т., 2012
7. A’lamova M., Ziyamuxamedova Sh. Nutqda aks etar bir olam boylik. – Т., 2009.
8. Begmatov E. va boshq. Nutq madaniyati va adabiy norma. – Т.: O‘zbekiston, 1987.
9. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. – Т., 2003.
10. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Tuzuvchilar: Sh.Raxmatullayev, A.Hojiyev. – Т., 1995.
11. Ko‘chimov Sh. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi (til, uslub, huquqiy atamashunoslik). – Т., 1996.
12. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-, 2-, 3-kitoblar. – Т.: ILM ZIYO, 2013.
13. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Т., 2014.
14. Madayev O., Sobirov A. va boshq. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Т.: Turon zamin ziyo, 2017.
15. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Т.: O‘zbekiston, 1992.
16. Rafiyev A., Qo‘nishev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Т., 2012.
17. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. – Т.: O‘zbekiston, 2015.

18. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1978.
19. Raxmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1980.
20. Rustamov A. Сўз хусусида сўз. – T.: Yozuvchi, 1987.
21. Saidov A., Sarkisyans G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. – T., 1994.
22. Tojiyev Y. va boshq. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – T., 1994.
23. Turdiyev B. Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum. – T., 1980.
24. Umurqulov B. So‘z tanlash san’ati. – T.: Fan, 1985.
25. Usmonov S. Davlat tilida ish yuritish amaliyoti. – T., 2008.
26. Цицерон. Нотиқлик санъати. – Т.: Янги аср авлоди, 2015.
27. Shoabduraxmonov Sh. O‘zbek tilining leksik normalari. Nutq madaniyatiga oid masalalar. – T., 1973.
28. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1983.
29. Esanov M.G., Obidov M.H., Alayev Sh.P. – Tergovchi (tergovchining kasbiy sifatlari, protsessual huquq va vakolatlari, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish usullari hamda surishtiruv va dastlabki tergov protsessual hujjatlari namunalari). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
30. O‘zbek xalq maqollari. – T., 2005.
31. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – T.: O‘qituvchi, 1982.
32. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.
33. Qonun va til. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997.
34. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati – T.: O‘qituvchi, 1974.

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I Bo‘lim. Yozma nutq madaniyati. yozma yuridik nutq .....</b>	<b>5</b>
1-Mavzu. Yozma nutq madaniyati va uning kelib chiqishi .....	5
2-Mavzu. Yozma nutqning aniqligi .....	9
3-Mavzu. Yozma nutqning mantiqiy izchilligi .....	16
4-Mavzu. Yozma nutqning ta’sirchanligi .....	20
5-Mavzu. Normativlik – yozma nutqning muhim xususiyati .	23
6-Mavzu. So‘z tanlash mezoni – yozma nutq me’yorlarini belgilovchi muhim omil .....	27
7-Mavzu. Yozma nutqda termin qo‘llash me’yorlari .....	31
8-Mavzu. Til va huquq .....	36
9-Mavzu. yuridik til – o‘zbek adabiy tilining tarkibiy qismi ..	39
<b>II Bo‘lim. Imloviy me’yorlar .....</b>	<b>43</b>
10-Mavzu. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari .....	43
11-Mavzu. Bosh harflar hamda qisqartmalar imlosi .....	50
12-Mavzu. Asos va qo‘sishimchalar imlosi .....	53
13-Mavzu. Ko‘chirish qoidalari .....	57
14-Mavzu. Qo‘shib yozish, ajratib yozish va chiziqcha bilan yozish qoidalari .....	60
15-Mavzu. Yozuv tamoyillari .....	65
<b>III bo‘lim. Punktuatsion me’yorlar .....</b>	<b>67</b>
16-Mavzu. O‘zbek tilining punktuatsion me’yorlari .....	67
17-Mavzu. Qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi	87
<b>IV bo‘lim. Yozma yuridik matnda so‘z birikmasi va gap..</b>	<b>93</b>
18-Mavzu. So‘z birikmasi va sintagma .....	93

19-Mavzu. Yuridik matnda qo'shma gap tuzish talablari .....	98
<b>V Bo'lim. Yuridik matn oldiga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>101</b>
20-Mavzu. Matn va uning turlari .....	101
21-Mavzu. Yuridik matn tuzish talablari .....	105
22-Mavzu. Rasmiy uslub va uning yurist faoliyatida tutgan o'rni .....	108
23-Mavzu. Rasmiy uslubda yuridik matn tuzish .....	112
<b>VI bo'lim. Yozma ish turlari .....</b>	<b>116</b>
24-Mavzu. Ijodiy-tavsifiy matn .....	116
25-Mavzu. Diktant va uning turlari .....	120
26-Mavzu. Bayon va uning turlari .....	125
27-Mavzu. Insho va uning turlari .....	129
28-Mavzu. Davlat tilida ish yuritish qoidalari .....	133
29-Mavzu. Yuridik tilda ish qog'ozlarining lug'aviy jihatlari – leksikasi .....	135
<b>Ma'muriy-idoraviy doiradagi hujjatlar va ularning namunalari .....</b>	<b>140</b>

**G.Gulyamova  
Sh.Ziyamuxamedova  
N.Bozorova  
O.Choriyev**

**YURISTNING YOZMA NUTQI**

*darslik*



«Azmir Nashr Print» nashriyoti.  
100200, Toshkent shahar, A.Rahmat ko‘chasi, 10-uy.

Bosishga 2020 \_\_\_\_\_ ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ .Ofset qog‘ozi. Times New Roman  
garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 9,5. Nashr tabog‘i \_\_\_\_\_.  
Adadi 1145 nusxa. Buyurtma raqami 178.

«Azmir Nashr Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
100200, Toshkent shahri, A.Rahmat ko‘chasi, 10-uy.